

BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ

**O'ZBEKISTON
DAVLATCHILIGI
TARIXI: YANGICHA
QARASHLAR VA
ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR**

SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI

SAMARQAND-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMIIY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITYETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI**

“O'ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI: YANGICHA QARASHLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbekiston tarixi

Samarqand -2022

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchilar:

Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasida professori F.Nabiyev, dotsent O.Irisqulov, dotsent S.Muhiddinov

Taqrizchilar:

Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasida mudiri, professor B.G’oibov

Xorijiy ekspert:

Tojikiston davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori Sh.Vaxidov

O‘quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

MUNDARIJA

I.	MODULNING IShChI DASTURI.....	5
II.	INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	18
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	42
V.	GLOSSARIY.....	96
VI.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	125
VII.	EXPERT XULOSA.....	129

I. MODULNING ISHCHI DASTURI

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

I. Modulning maqsadi va vazifalari

"O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar" modulining maqsadi, pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

"O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar" modulining vazifalari:

- "O'zbekiston tarixi" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;
- "O'zbekiston tarixi" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar fani bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari, tarix va tarixiy xotiraning milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati;
- O'zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;
- Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligimiz ildizlarini;
- O'zbekistonda ilk o'rta asrlar davri yangi shaharlarning shakllanishini;
- Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- Ijtimoiy fanlarni o'qitish bo'yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo'llash;
- O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar bo'yicha ma'ruza, amaliy mashg'ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to'g'ri qo'llay olish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

– O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar fannining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

– Ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish va dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

– ijtimoiy fanlarning dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

– ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;

– O‘zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;

– ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;

– ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash;

– videodarslarni tayyorlash;

– egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

– ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;

– Mustaqil O‘zbekistondagi islohatlarning nazariy konseptual asoslari, innovatsiyalarni ta‘lim tizimiga tadbiq etilishi, yangicha qarash va yondashuvlarga oid zamonaviy manbalardan foydalana, tarixiy-demografik jarayonlarni tahlil qila olish olish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			
			Jami	Jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	“O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi	2	2	2		
2.	Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.	2	2	2		
3.	Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo'li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo'li”. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.	2	2	2		
4.	Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.	2	2	2		
5.	O'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari, Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.	2	2		2	
6.	So'nggi o'rta asrlarda o'zbek xonliklari: ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari	2	2		2	
7.	Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari.	2	2		2	
8.	O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida.	2	2		2	
9.	O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.	2	2		2	
10.	Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o'rni va roli	2	2		2	
	Jami:	20	20	8	12	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi (2 soat)

Reja:

1. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

Darsda **“O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar”** fanining nazariy-konseptual asosi O'zbekiston Respublikasining Prezidentining asarlari ekanligi ko'plab manbalar va misollar asosida

tushuntiriladi. Nazariy konseptual asosning natijalari tushuntiriladi.

2-mavzu: Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. (2 soat)

Reja:

1. Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.
2. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.
3. “Avesto” o‘zbek davlatchilik tarixi bo‘yicha tarixiy manba sifatida.

O‘rta Osiyo hududida ilk davlat-tuzumining vujudga kelishi va tashkil topishi. Ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tish va dehqonchilik taraqqiyoti. Ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va uning o‘ziga xos qiyofasi. Davlat tashkil topishi jarayonida boshqaruvning shakllanishi.”Avesto” o‘zbek davlatchilik tarixi bo‘yicha tarixiy manba sifatida. Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi. Qadimgi davlatchilikning tashkil topish shart-sharoitlari. O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekiston xududida rivoj topgan ilk davlar-podsholiklar, Ahmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati (mutloq monarxiya) Satrapliklarda boshqaruv tizimi; Aleksandrning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzumi; Kushon davlati (podsholigida) xo‘jalik boshqaruvi; Qang‘ davlati hududi va tizimi.

3-mavzu: Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar. (2 soat)

Reja:

1. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”,
2. Davlatlar paydo bo‘lishining mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.
3. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.

Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar. Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimidagi funksiyalar; iqtisodiy funksiyalar; ijtimoiy funksiyalar; harbiy-siyosiy funksiyalar; hududiy funksiyalar va ularning faoliyatlari.

4-mavzu: Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli. (2 soat)

Reja:

1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.
2. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.

O‘zbekiston xududida rivoj topgan ilk shahar-davlatlar, Axmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati (mutloq monarxiya) Satrapliklarda boshqaruv tizimi; Aleksandr Makedonskiyning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzumi; Dovon va Qang‘ davlatlari hududi va boshqaruv tizimi; Kushon davlati (podsholigida) xo‘jalik boshqaruvi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

1-mavzu: O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji. (2 soat)

Reja:

1. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv (V-VIII asr o‘rtalarigacha)
2. Rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvi
3. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji

Darsda eftaliylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy tuzum; Turk xoqonligi va uning ma‘muriy tuzilishi, ijtimoiy iqtisodiy tuzumi va davlat boshqaruv tartiblari (Xoqon) el, ulus maxalliy boshqaruvi; tuman xokimliklari, qishloq va shahar

jamoalari. Arablarning O'rta Osiyoni istilo etishi va ularning Movarounnahrda boshqaruvi; ijtimoiy siyosiy jarayonlar. O'rta Osiyoda islom dinining tarqalishi va etakchi mavqega ega bo'lishi; mahalliy boshqaruv tartibi. Somoniylar davlati; ijtimoiy-siyosiy jarayonlar; davlat boshqaruv tartibi; huquqiy munosabatlar. Qorohoniylar davlati; ma'muriy tuzilishi, hududi; davlat boshqaruvi tartiblari; ijtimoiy – siyosiy tuzumi (Xoqon-Qoroxon); huquq-tartiboti. G'aznaviylar va Saljo'qiylarning boshqaruv tizimi. Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining ma'muriy tuzilishi, boshqaruv tartiblari; ijtimoiy iqtisodiy hayoti. Amir Temurning siyosiy hokimiyatni qo'lga olishi va markazlashgan davlat asoslarining yaratilishi. Amir Temur zukko, tajribali va siyosatdon, buyuk davlat arbobi. Davlat boshqaruvidagi islohotlar. Amir Temurning el yurtini o'z tasarrufi va itoatida tutish uchun tuzgan o'n ikki "tuzug'i": davlat boshqaruvida dargoh va devonlar manbalar asosida yoritiladi.

2-mavzu So'nggi o'rta asrlarda o'zbek xonliklari: ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari (2 soat)

Reja:

1. Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
 2. Xiva xonligi: hududi, ma'muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
 3. Qo'qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma'muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
- Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Shayboniylar davlatining ma'muriy tuzilishi. Abdullaxon II ning siyosat maydoniga chiqishi. Buxoro xonligining viloyat (ulus)lari. Buxoro shahri va unga tegishli tumanlar boshqaruvi. Mang'itlar sulolasi humkronligi davrida davlat boshqaruvi va ma'muriy tizim. Amir – eng oliy hukmdor. Davlat boshqaruvida qushbegi mansabining ahamiyati. Saroy unvonlari va mansablari: harbiy amaldorlar, saroy amaldorlari, diniy unvon va mansablar. Unvonlar va darajalar.
- Xiva xonligi: hududi, ma'muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvdagi ijtimoiy tabaqalar, harbiy ma'muriy amaldorlar, Kengash, inoq, shayxulislom, devonbegi, yasovulboshi diniy unvon va mansablar.
- Qo'qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma'muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Saroy unvonlari va mansablari: oliy darajali, o'rta darajali, quyi darajali. Harbiy ma'muriy mansablar va unvonlar.

3-mavzu. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari. (2 soat)

Reja

1. Turkiston o'lkasida harbiy-mamuriy hokimiyat tizimining yuzaga kelishi..
2. Turkiston general-gubernatorligida xokimiyat tuzumini va uning funksiyalari.
3. Rossiya imperiyasining Turkistondagi milliy siyosatining o'ziga xos xususiyati.

Turkiston o'lkasida harbiy-mamuriy hokimiyat tizimining yuzaga kelishi. Turkiston o'lkasi ichki boshqaruvini tashkillashtirishda imperiyaga xos ma'muriy an'analari, mutloq harbiy qo'mondonlik va podsho g'aznasi manfaatlaridan kelib chiqib o'tkazilishi. Turkiston general-gubernatorligida xokimiyat tuzumini va uning funksiyalari. Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limlari faoliyati. Mustamlaka boshqaruv tizimining takomillashtirilishi. Rossiya imperiyasining ko'chiruvchilik siyosati. Hokimiyat, politsiya va sud organlari, faoliyat doirasining kengayishi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi milliy siyosatining o'ziga xos xususiyati.

4-mavzu. O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida. (2 soat)

Reja

1. 1917 yil siyosiy jarayonlarida Turkiston. Turkiston Muhtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi.
 2. Bolsheviklar tuzumiga qarshi kurash. XXSR va BXSRLarning tashkil topishi.
 3. O'rta osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi maqsad va mohiyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi.
 4. O'zbekistonda sinfiy mafkuraga asoslangan kommunistik partiyaning mutloq xukmronligining o'rnatilishi.
- 1917 yil siyosiy jarayonlarida Turkiston. Turkiston Muhtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi. Sovetlar andozasi asosida TASSR tashkil topishi. Bolsheviklar tuzumiga qarshi kurash. XXSR va BXSRLarning tashkil topishi. O'rta osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi maqsad va mohiyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. O'zbekiston SSRning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi SSSR da boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'zining barcha salbiy ko'rinishlari bilan qaror topishi va mustahkamlanishi sharoitida sodir bo'lishi. O'zbekistonda sinfiy mafkuraga asoslangan kommunistik partiyaning mutloq xukmronligining o'rnatilishi. O'zbekiston SSR

Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

5-mavzu. O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. (2 soat)

Reja

1. 1991 yil 31 avgust "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinishi.
2. O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.
3. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

1991 yil 31 avgust "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinishi va 1 sentyabrni Mustaqillik kuni deb e'lon qilinishi. O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

6-mavzu. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o'rni va roli (2 soat)

Reja

1. O'zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mamlakatni modernizatsiyalashda amalga oshirilayotgan jarayonlar mohiyati.
2. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi va boshqaruvda yangi, samarali usullarning qaror topishi.
3. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o'rni va roli.

O'zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mamlakatni modernizatsiyalashda amalga oshirilayotgan jarayonlar mohiyati. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi va boshqaruvda yangi, samarali usullarning qaror topishi. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o'rni va roli. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi davlatchiligi taraqqiyoti.

II. INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Ana’naviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

Oddiy ma’ruzada ma’ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera oladi	Muammoli ma’ruzada kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
O‘qituvchi asosan o‘zi va a’lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma’ruzada ko‘p sonli talabalar, tinglovchilar qamrab olinadi
Oddiy ma’ruzada faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi	Muammoli ma’ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tutilishi mumkin.
O‘qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga burishga intilishlari

Rezyume, Veyer metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва

Namuna:

Falsafadan malaka talablari					
Sobiq standartlar		Amaldagi standartlar		Takomillashtirilgan standartlar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“FSMU” metodidan foydalanish

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.



Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiriladi;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiriladi va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlarini o‘ziga xosliklari







1-topshiriq

Savol	Javob
Zamonbobo	Buxoro viloyati Qorako'1 tumanidagi Zamonbobo ko'li bo'ylarida miloddan avvalgi II mingyillikda yashagan chorvador va dehqonlarning qadimiy madaniyati.
matriarxat	eng qadimgi tuzum rivojidadagi bir bosqich bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, urug'ga va oilaga ayol kishi sardorlik qilgan.
patriarxal oila	ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topgan oiladir.
patriarxat	eng qadimgi jamoa tuzumining bir davri bo'lib, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqeyega ega bo'lgan, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan.

2-topshiriq

Savol	Javob
so'nggi paleolit	bu davr miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.
urug'chilik	o'zaro qon-qarindosh bo'lgan kishilardan iborat dastlabki odamlar uyushmasi.
sivilizasiya	(lotincha «sivilis»-fuqaroviy, ijtimoiy, ya'ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz) — jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarining hamda ularni yanada ko'paytirib takomillashtirib borish usullarining majmui.
eng qadimgi urug'chilik tizimi	insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan, hamma odamlar hamkorlikda mehnat qilgan bir davridir.

3-topshiriq

Savol	Javob
Baqtriya	Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, Janubiy Tojikiston va Surxondaryo viloyati.
varzana	“vis”lar birikuvidan vujudga kelgan yirik qo'shni jamoa
Dovon	Farg'ona vodiysining qadimgi nomlaridan biri
Zulqarnayn	Aleksandr Makedonskiyning laqabi. O'rta osiyoda u shu laqab bilan atalgan. Bu laqab – “ikki shoxli , “ikki tomonni tutuvchi” degan ma'nolarni anglatgan.

4-topshiriq

Savol	Javob
Qiziltepa	hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi shahar.
Abbosiyalar	arab xalifalari sulolasi bo'lib (749-1258 yy.), bu sulolaga Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Abu-ul Abbas as-Saffoh (749-754 yy.) asos solgan. Abbosiylar sulolasi besh asr, ya'ni 749 yildan 1258 yilgacha hukm surgan. Abbosiylardan 38 kishi xalifa bo'lgan.
amir al-mo'minin	mo'minlarning hukmdori. Ilk islom davrida xalifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab xalifa Umar olgan. Keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan yuritilgan
Ummaviylar	arab xalifalari sulolasi (661-750 yy.). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiyalar zodagoni Abu So'fyonning o'g'li Muoviyadir. Muoviya xalifa Ali hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qilgan.

III. NAZARIY MATYERIALLAR

MA'RUZALAR MAZMUNI

(10 soat ma'ruza)

1-mavzu: “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

Reja:

1. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

Darsda “**O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar**” fanining nazariy-konseptual asosi O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining asarlari ekanligi ko‘plab manbalar va misollar asosida tushuntiriladi. Nazariy konseptual asosning natijalari tushuntiriladi.

- **fanning**:- Predmeti mamlakatimiz hududida eng qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kunga qadar kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar yaxlitlik, uzviylik va o‘zaro aloqadorlikda o‘rganiladi
- **Ob’ekti**- mamlakatimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar; ishlab chiqarish kuchlari va vositalarining takomillashib borishi; til va yozuv, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi; davlat boshqaruv shakllari va evolyutsiyasi; etnik jarayonlar, urf-odat va rasm-rusumlar; diplomatiya va elchilik aloqalari; sulolalar, tarixiy geografiya; milliy ozodlik harakatlari; din, mafkura va turli g‘oyalar; buyuk tarixiy shaxslar, davlat arboblari va boshqalar

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi fanining maqsad va vazifalari. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi fanining asosiy maqsadi davlatni boshqarish sohasidagi tarixiy tajribani o‘rganish orqali malakali tarixchi, arxivshunos kadrlarni tayyorlashda o‘z ifodasini topadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni yechish talab etiladi:

- davlat muassasalarining paydo bo‘lish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;
- davlat muassasalari tuzilishi hamda faoliyatini o‘rganish;
- davlat muassasalarining huquq va majburiyatlari, vazifalarini yoritish;
- zamonaviy davlat muassasalari tizimini takomillashtirishning vosita va yo‘llarini tushuntirish.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi fani boshqa fanlarga o‘xshash holda o‘ziga tegishli ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘rganish va tartibga solish nazariy-amaliy qoida-tartiblar tizimiga ega. Tarixiy fanlar tizimining alohida sohasi sifatida ushbu fan davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etilgan muassasalar tarixi, faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatishni qamrab oluvchi o‘z predmetiga ega.

Shuningdek, jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan qadimgi O‘zbekiston davlatchiligi, davlat muassasalari va boshqaruvi masalalarini har tomonlama tadqiq etish

ham mazkur fanning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston davlatchiligi tarixi fani bo'yicha davlat muassasalari tarixini tizimli va xronologik ketma-ketlikda vujudga kelishini, yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini, ular vakolatlari, vazifalari, majburiyatlari, tashkiliy-huquqiy jihatlari, faoliyat yo'nalishlari, ma'lum bir davlat muassasasi vakolatlarining boshqasiga o'tkazilishi sabablarini yoritib beradi.

O'zbekiston davlatchiligi tarixi fani bilimlarini tarixchi, arxivshunos mutaxassis bo'lib shakllanadigan talabalar uchun zaruriy bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston davlatchiligi tarixi fani bilimlariga ega bo'lishlik tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot faoliyatlari uchun zaruriy bo'lgan ma'lumotlarni davlat arxivlaridan oson qidirib topish imkonini beradi. Ma'lumki, davlat arxivida materiallar ma'lum bir davlat muassasasi faoliyati bilan bog'liq holda tizimli ravishda fondlarda saqlanadi.

Arxivlarda faoliyat olib boradigan xodimlar uchun turli arxiv ishlariyuritishda ya'ni hujjat materiallarini jamlash yoki fond tashkil etishda, ularning qimmatligini ekspertiza qilishda, tizimlashtirish va klassifikatsiyalashda, nashr etish uchun ma'lumotlarni saralashda O'zbekistonning davlat muassasalari tarixi kursini o'rganish muhim sanaladi.

“O'zbekiston davlatchiligi tarixi” fanining metodologik tamoyillari: Tarixiylik tamoyili deganda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tarixiy jihatdan davriy ketma-ketlikda, o'zaro aloqadorlikda, yaxlit tarixiy jarayon sifatida, o'rganilayotgan zamon ruhi, axloqiy va huquqiy me'yorlari, hayot mezonlari nuqtai nazaridan talqin qilish va sharhlash tushuniladi.

Xolislik tamoyili o'rganilayotgan tarixiy jarayonlar xolis va betaraf o'rganilishini, voqea va hodisalarni biror g'oya yoki mafkura nuqtai nazaridan sharhlamaslikni, tarixiy jarayonlarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish va o'rganishni, yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklardan ham ko'z yummaslikni, tarixni bayon qilishda ehtirolarga berilib ketmaslikni, tadqiqotchining g'oyaviy, siyosiy, mafkuraviy, diniy qarashlari, milliy mansubligi ustunlik qilmasligini, bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslikni, voqealarni tahlil qilishda bugungi kun nuqtai nazaridan yondashmaslikni, manbalarga tanqidiy munosabatda bo'lib, boshqa zamondosh manbalar bilan tasdiqlangan dalillargagina tayanishni, dalillarni soxtalashtirmaslikni, ertak va afsona elementlaridan xoli bo'lishni anglatadi.

Manbalar bilan asoslanganlik tamoyili: bayon qilinayotgan tarixiy jarayon, keltirilayotgan har qanday faktlar chinakam ilmiy va asl manbalarga asoslangan bo'lmog'i lozim. Manbadagi xabarning haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi manbaga zamondosh bo'lgan boshqa manbalar ma'lumotlari bilan, agar ular mavjud bo'lmasa arxeologiya, numizmatika singari yordamchi tarix fanlari ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

Mintaqa va jahon tarixi bilan bog'liqligi tamoyili: har bir xalqning tarixi alohida ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga ular umuminsoniyat tarixining ajralmas va uzviy tarkibiy qismini tashkil etadi. O'zbekiston tarixini umumjahon tarixining bir bo'lagi, ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Milliy qadriyatlar, xalq an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va tarixiy-madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan yondashish tamoyili: har

bir tarixiy voqea va hodisani o‘rganishda milliy hamda mahalliy xususiyatlar, ya’ni har bir millat va elatning tili, dini, yashash hududi, ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish usuli, ruhiyati, urf-odatlarini, rasm-rusum va an’analarini va marosimlarini o‘rganilayotgan davr axloqi nuqtai nazaridan to‘la anglagan va har tomonlama hisobga olgan holda munosabatda bo‘lish nazarda tutiladi.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixiga oid asosiy yozma manbalar:

- Avesto

Qadimgi Eron va Hind manbalari

- Xvaday namak
- Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»
- «Mahobharata»

Yunon va Rim manbalari:

- Xeradot «Tarix»
- Kvint Kursiy Ruf «Buyuk Iskandar tarixi»
- Arrian Flaviy «Iskandarning yurishlari»
- Pompey Trog «Filipp tarixi»
- Gay Pliniy Sekund «Oddiy tarix»
- Polibiy «Umumiy tarix»
- Strabon «Geografiya»
- Ptolomey Klavdiy «Geografiya»

Xitoy manbalari:

- Sima Syan «Shi Szi» - («Tarixiy esdaliklar»)
- Byan Gu «Syan Xan shu» - («Avvalgi xan sulolasining tarixi»)
- Li Yan-shou «Bey shu» («Shimoliy sulolalar tarixi»)
- Fan Xua «Xou Xan shu» («Keyingi xan sulolasi tarixi»)

IX-XII asr arab tilidagi manbalar:

- Muhammad Muso al Xorazmiy «Kitob at-tarix» - («Tarix kitobi»)
- Madoiniy Abluhasan Ali ibn Muhammad «Kitob al mag‘oziy» («Urushlar haqida kitob»)
- Al-Ya‘qubiy «Kitob al buldon» («Mamlakatlar haqida kitob»)
- Balazuriy «Kitob futuh al-buldon» («mamlakatlarni zabt etilishi»)
- At-Tabariy «Tarixi ar-rusul va-muluk» («Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi»)

- Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Osor ul-boqiya an al-qurun an-holiya»)
- Muhammad Qoshg‘oriy «Devonu lug‘at at-turk» («Turkiy so‘zlar lug‘ati»)

XIII-XIV asr fors tilidagi manbalar:

 - Narshaxiy «Buxoro tarixi»
 - Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»
 - Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»
- Muhammad Tarag‘ay mirzo Ulug‘bek «To‘rt ulus tarixi» («Tarixi arba’ ulus»)

O‘zbek tilidagi manbalar:

 - Yusuf Xos Xojib Bolasog‘uniy «Qutadg‘u bilik» («Saodatga yo‘llovchi bilim»)
 - «Temur Tuzuklari»
 - Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» («Vaqoyi’»)
 - Muhammad Solih «Shayboniynoma» va boshqalar

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Umumiy tarix fanlari yordamida jahon davlatchiligi evolyutsiyasi, davlat muassasalari tizimi, ularning vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Yuridik fanlar davlat va huquq asoslari tushunchasi, davlat shakllarini o‘rganishda yordam bersa, ijtimoiy-siyosiy fanlar davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarini tushunish va taqqoslash orqali ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi.

Maxsus tarix fanlari, jumladan tarixiy xronologiya, gerldika, sfragistika arxivshunoslik bilan ham chambarchas bog‘liq.

Xronologiya tarixiy fanlarning rivojlanishi natijasida vaqtni o‘rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga keldi. Xronologiya ilm sifatida Qadimgi Bobil, Misr, Yunoniston va Rimda shakllangan. O‘rta asrlarda xronologiyaning rivojlanishiga Markaziy Osiyolik olimlar ham o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Xronologiya – yordamchi tarix fanlaridan biri bo‘lib, u vaqt to‘g‘risidagi fandır. Xronologiya so‘zi yunoncha so‘z bo‘lib, “xronos” – vaqt, “logos”– fan, ya’ni vaqtni o‘rganish haqidagi fan deganidir. Xronologiya vaqtlarni o‘rganish, hisoblash haqidagi fan sifatida ikki qismga bo‘linadi, bular astronomik (matematik) xronologiya va tarixiy xronologiyadir. Astronomik xronologiyaning vazifasi – osmon jismlarining siljishi to‘g‘risidagi aniq astronomik davrlarning vaqtini aytib berishdir. Tarixiy xronologiya tarixiy taraqqiyot davomida vaqtni hisoblash tizimini o‘rganadi, ularning o‘zaro bog‘liqligini, vaqtlarni bir hisob sistemasidan ikkinchisiga aylantirish uslublarini ishlab chiqadi.

Geraldika gerblar va ular haqidagi bilimlar tizimidir. Geraldika atamasi lotincha “heraldus” – jarchi so‘zidan kelib chiqqan. Polyakcha “herb”, nemischa “erbo” atamalari meros va merosxo‘r ma’nolarida qo‘llanilgan. Gerb biron bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy xarakterdagi g‘oyalari majmuasini, o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik xususiyatlari, tabaqaviy tavofutlarini, tarixiy shaxs, uning xonadoni, oilasi, qaysi urug‘

yoki qavmga mansubligi hamda nasl-nasabini ifodalovchi alohida ramziy belgidir.

Geraldika moddiy madaniyat yodgorliklarini: gerb, tamg'a, muhr, nishonlarni hamda gerbli va ramzli yozma manbalarni o'rganadi, milliy an'analar, ijtimoiy xususiyatlar, mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rganishga yordam beradi. Fanning asosiy vazifasi belgilangan ob'ektga qarab tarixiy manbalarni o'rganish, tadqiq etish va ular orqali ma'lum bir davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ochib berish, hukmdorlar, sulolalar, shaxslar, voqealarni davrlashtirishdan iborat.

Genealogiya (yunoncha *genealogiya* –shajara) tarix faning yordamchi sohalaridan biri bo'lib, tarixiy shaxs, uning urug'-aymog'i, nasl-nasabi, oilasi, xonadon vakillari va ularning kelib chiqishi, qon-qarindoshlik munosabatlari, nasl-nasab zanjiridagi o'rnini o'rganadi. Uning amaliy sohasi shajaralar yoki nasabnomalar tuzishdir. Numizmatika tanga pullarni o'rganuvchi va tadqiq etuvchi fan sohasi hisoblanadi. "Numizmatika" so'zi grekcha "nomisma" – ya'ni *tanga pul* yoki *chaqa* degan ma'noni anglatadi. Tangashunoslik oltin, kumush va misdan ishlangan metall pullarni o'rganish haqidagi fandır. Ushbu sohaga bundan tashqari yana qog'oz pullarni o'rganish (bonistika) va orden, medal hamda shu xildagi esdalik tamg'alarini (znachoklar) florestika) o'rganish ham kiradi.

"Numizmatika" atamasi o'rta asrdan e'tiboran tanga pullar haqidagi fanning nomi sifatida ishlatila boshlandi. U tanga va qog'oz pullarning, orden va medallarning yuzaga kelish tarixini o'rganadi. Turli davrlarda hukmdorlar o'z nomidan pul zarb qildirganlar, bu tanga pullar davlatning chegarasini, iqtisodiy birligini, bozordagi qiymatini belgilaydi. Har bir hukmdorning zarb qildirgan tanga pullarida hukmdorning tasviri yoxud hukmron sulola yoki davlat ramzi bo'lgan gerblar o'z aksini topgan. Tanga pullar boshqa manbalarga qaraganda alohida informativ hamda qimmatli tarixiy dalillar berishi bilan ajralib turadi. Sfragistika – hujjatlarga qo'yilgan muhrlar orqali uning qaysi davlat, idora yoki mansabdor shaxsga tegishliligini aniqlashda yordam beradi.

"Arxiv" atamasi lotincha "arxivum" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "mahkama", "muassasa" degan ma'noni anglatadi. Lekin bu so'z hozirgi kunda boshqacha ma'noda qo'llaniladi. Arxiv deganda biz odatda hujjatlar saqlanadigan muassasasani tushunamiz. Ayni paytda biron-bir tashkilot yoki jismoniy shaxslar qo'lida to'planadigan hujjatlar majmuiga nisbatan ham "arxiv" atamasi qo'llaniladi. Arxivshunoslik – bu arxivlar faoliyatining nazariy, huquqiy va uslubiy masalalarini hal etishga qaratilgan fandır. U arxivlar faoliyati bilan barcha muammolarni kompleks tarzda o'rganadi. Umuman olganda O'zbekiston davlatchiligi tarixini o'rganishni bir qator fanlar bilan bog'liq ravishda olib borish hamda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda muassasalar faoliyati takomillashtirishda qo'llash joizdir.

Manbalar va adabiyotlar

1. *Nizomulmulk*. Siyosatnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
2. *Azamat Ziyo*. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2000.
3. *Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana: V 3-x t.* / Otv. red. E.V. Rtveladze, D.A. Alimova. – T.: Uzbekistan, 2009.
4. *Sagdullayev A., Aminov B.B., Mavlonov O'M., Norqulov N.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.

5. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari / Mas'ul muharrirlar: D.A. Alimova, E.V.Rtveladze. – T.: Sharq, 2001.
6. [The Modern State: Theories and Ideologies](#). – Edinburgh University Press, 2007.
7. Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.– Toshkent: Akademiya, 2006.
8. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi.- T.; Yangi asr avlodi, 2012.
9. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi.- T.; Yangi asr avlodi, 2012.

2-mavzu: Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. Davlatlar paydo bo'lishining “Sharq yo'li”, “Yevropacha yo'li”. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.

Reja:

1. Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.
2. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo'li”, davlatlar paydo bo'lishining mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo'li”.
3. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.
4. “Avesto” o'zbek davlatchilik tarixi bo'yicha tarixiy manba sifatida.

O'rta Osiyo hududida ilk davlat-tuzumining vujudga kelishi va tashkil topishi. Ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish va dehqonchilik taraqqiyoti. Ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va uning o'ziga xos qiyofasi. Davlat tashkil topishi jarayonida boshqaruvning shakllanishi.”Avesto” o'zbek davlatchilik tarixi bo'yicha tarixiy manba sifatida. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi. Qadimgi davlatchilikning tashkil topish shart-sharoitlari.O'rta Osiyo jumladan, O'zbekiston xududida rivoj topgan ilk davlat-podsholiklar, Ahmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati (mutloq monarxiya) Satrapliklarda boshqaruv tizimi; Aleksandrning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzimi; Kushon davlati (podsholigida) xo'jalik boshqaruvi; Qang' davlati hududi va tizimi.

Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo'li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo'li”. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar. Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimidagi funksiyalar; iqtisodiy funksiyalar; ijtimoiy funksiyalar; harbiy-siyosiy funksiyalar; hududiy funksiyalar va ularning faoliyatlari.

Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz “Avesto”ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech

kim inkor etolmaydi.

I. A. Karimov

1. Davlatning kelib chiqishiga tsivilazatsiyaviy nuqtai nazardan yondashish to'g'risida

Davlatchilikning rivojlanish tarixi to'g'risida so'z borganda, odatda, «davlatning tipi» kategoriyasidan foydalaniladi.

Davlatning tipi - bu muayyan, qoidaga ko'ra, davlatlarning tarixiy shartlangan guruhiga xos bo'lgan umumiy belgilar jamidir.

Sho'rolar davrida yuridik fanda jamiyat va davlat rivojlanishi tarixiga yondashuvning fakat davlat va huquqning markscha-lenincha nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan *formatsiyali yondashuvidan* foydalanilar edi.

Ushbu yondashuvga muvofiq davlatning tipi sinfiy jamiyatning iktisodiy tuzumi, unga muvofiq keluvchi sinfiy tuzilma, uning sinfiy mohiyati bilan belgilanar edi.

Formatsiyali yondashuvning asosiy nuqsonlari:

- ▶ *birtchidan*, davlatchilikning tarixiy rivojlanishini davlatning bir tarixiy tipining boshkasi bilan mexanik almashishi deb talqin qiluvchi *bir tomonlamalik* bo'lib, bu tarixning davlat rivojlanishi yo'llari va shakllarining ko'p xilliligi, ushbu rivojlanishning siklligiga, davlatlar tiplari o'zgarganda jarayonlarning kaytishi ehtimoliga muvofiq kelmaydi;
- ▶ *ikkinchilan*, besh formatsiyali sxemaning *nomuqobilligi* va butunjaxon ko'lamida davlatning quldorchilik, feodal, burjua va sotsialistik tiplarining xato ravishda *universallashtirilishi* hisoblanadi. Davlatchilik tarixi ko'p variantlidir va hamma vakt ham uning uchun chizilgan sxemaga «tushavermaydi»;
- ▶ *uchinchidan*, ishlab chiqarishning Osiyocha usuli inkor qilinadi;
- ▶ *turtinchidan*, ma'naviy omillar (madaniy, milliy, diniy, va boshka omillar) yetarlicha baxolanmaydi hamda davlatchilik rivojlanishida va uning tipologiyasida jamiyat ma'naviy, madaniy hayogining axamiyati kamsitiladi, uni antagonistik sinflar manfaatini aks ettiruvchi g'oyalar, tasavvurlar va kadriyatlar bilan cheklaydi;
- ▶ *beshinchidan*, davlatchilikning sotsialistik tipini tarixan so'nggi va oliy tarixiy tip deb biladi. Davlat rivojlanishi amaliyoti davlatning «o'lishi» to'g'risidagi utopik konsepsiyani fosh kilib tashladi.
- ▶ Hozirgi vaktida davlatlar tipologiyasiga *sivilizatsiyaviy yondashuv* tobora katta rol o'ynamoqda.

Sivilizatsiyaviy yondashuv asosida «*sivilizatsiya*» (lotincha - *civilis fukarolik*) tushunchasi turadi. Ushbu tushunchaning o'zi turlicha tavsiflanadi. «*Sivilizatsiya*» *atamasi* ko'proq umuman madaniyatning sinonimi sifatida ko'llaniladi hamda odamlar turmushi va faoliyatini tashkil etishning tiplari va shakllarida, ularning o'zaro

munosabatparida, shuningdek ular tomonidan yaratiladigan moddiy va ma'naviy tsadriyatlarda ifodalanadigan jamiyat tarakqiyotining tarixan muayyan darajasini, insonning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini anglatadi

Zamonaviy nuktai nazardan qaraganda davlatlar tipologiyasiga davlatchilik mavjud bo'lishining tashqi xususiyatlariga emas, balki ichki xususiyatlariga asoslangan sivilizatsiyaviy yondashuv qimmatliroq tuyuladi. Davlat bu hokimiyatning tashkil etilishidir, shu sababli, har xil davlatlar xususiyatlarini tahlil qilganda diqqat e'tiborni eng avvalo davlat hokimiyatining shakllanishi, tegashliliti, amalga oshirilishi jixatlariga qaratish zarurdir. Bunday nuktai nazardan davlatlar tipologiyasiga sivilizatsiyaviy yondashuvda davlat va shaxs nisbati tasniflashga asos kilib olinadi.

Binobarin, **sivilizatsiyaviy yondashuvning formatsiyali yondashuvdan asosiy farki** jamiyat va davlatchilik rivojlanishini insonning o'z faoliyati kadriyatlarini va maqsadlari to'g'risidagi tasavvurlari orqali ochib berimdan iboratdir. «Sivilizatsiya» tushunchasi yordamida tarixni o'rganish asoslari ingliz tarixchisi *A.J. Toynbi* (1889-1975 yy.) tomonidan 1934-1961 yillarda chop etilgan o'n ikki jildlik «Tarixni anglash» («A Study of History») asarida ishlab chikilgan. Muallif sivilizatsiyalar farkini eng avvalo tafakkur tarzida ko'radi. U madaniy element o'zida «sivilizatsiyaning qalbi, qoni, limfasi, mohiyati»ni ifodalashi to'g'risidagi qoidani asosladi. Toynbining fikricha, sivilizatsiya geografik, milliy, liniy belgilar va boshqa belgilarning umumiyliigi bilan farq kiluvchi jamiyatning tor va mahalliy holatidir. U ularga bog'liq ravishda jahon tarixida 21 sivilizatsiyani ajratib ko'rsatdi.

Davlatning shakllanishi'- uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon har xil xalklarda turli yo'llar bilan bordi.

- Birinchidan, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chikarish usuliga asoslangan «Sharq yo'li» bo'lib, unda iktisodiyotning asosini irrigatsiya dehqonchiligi tashkil etgan;
- er va irrigatsiya inshootlari davlatning mulki bo'lgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan
- Ishlab chikarishning osiyocha usuli miloddan avvalgi ming yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Xindiston kabi mamlakatlarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining ikkinchi «Yevropacha yo'li» Yevropa hududida .miloddan avvalgi U asrdan boshlab milodiy Sh asrgacha kadimgi yunon polislarida mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi,. tufayli kelib chikdan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabakalanishuvi jarayoni (sinflar shakllanishi jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

- Davlat paydo bo'lishining ushbu yo'li Fridrix Engelsning «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chikishi» asarida batafsil yoritilgan.
- T.V.Kashanina davlat paydo bo'lishining ikki yo'lini ajratib ko'rsatib, «Sharq yo'li»ni «davlat-hokimiyat», «Yevropa yo'li»ni esa «davlat-mulkchilik» yo'li deb ataydi.

Demak, davlatning kelib chikishiga sivilizatsiyaviy yondashuvning uch muxim prinsipini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- **birinchidan**, davlatlarning mohiyata kuchlarning real mavjud nisbati bilan emas, balki tarixiy jarayon davomida jamlangan va madaniyat doirasida dunyo, kadriyatlar, xulq-atvor namunalari, o'tmishning tarixiy tajribasi to'g'risidagi tasavvurlar bilan belgilanadi;
- **ikkinchidan**, davlat hokimiyati siyosat dunyosining markaziy hodisasi sifatida ayni vaktida madaniyat olamining bir qismi sifatida karalishi mumkin, bu boshka jihatlar bilan birgalikda davlat hokimiyati bilan nufuz, axlok,, qadriyatli yo'nalishlar aloqasini ochib berish imkonini beradi;
- **uchinchidan**, vakt va makonda madaniyatlarning xilma-xilligi nima uchun bir xil sharoitlarga muvofiq kelgan davlatning ayrim tiplari boshka sharoitlarda uz rivojlanishida to'xtab krlganligini tushunish imkonini beradi. Bunda milliy madaniyatlarning o'ziga xosligi va milliy xarakter belgilari va boshkalar alohida axamiyatga ega bo'ladi.

2.Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar turlari to'g'risida.

Barcha davrlar va xalqlar uchun yagona bo'lgan davlatlarning hosil bo'lishi qonuniyatlari to'g'risidagi ma-salani davlatning paydo bo'lishi sabablari to'g'risidagi masala bilan aralashgirib yubormaslik kerak. Ushbu masalada davlat va huquqning kelib chiqishining ko'plab nazariyalari mavjud. Ilmiy qarashlarning bunday plyuralizmi jamiyat rivojlanishining tarixiy xususiyatlari, dunyoning u yoki bu mintaqalarining o'ziga xosligi,ular o'z oldiga qo'ygan vazifalar va boshqa sabablar bilan belgilanadi. Jumladan, **teologiya nazariyasi** davlatlar kelib chiqishini ilohiylik bilan bog'laydi va «shohlik ham xudodan»dir degan tezisni mahkam ushlaydi va himoya qiladi.

Ushbu nazariyaga baho berganda ko'plab birlamchi shahar-davlatlarga xos bo'lgan hokimiyatning ilohiy so'z bilan yoritilishi unga obro'-e'tibor keltirar va so'zsis majburiyat yuklar edi.

U o'rta asrlarda juda keng yoyilganligi tasodifiy emas (F.Akvinsiy). XVI-XSh asrlarda teologiya nazariyasidan monarxning cheksiz hokimiyatini asoslash uchun foydalanishar edi. Fransiyada qirol absolyutizmi tarafdorlari esa, masalan *Jozef de Mestr*, uni XGX asr boshida qatgiq turib himoya qildilar.

Mazkur nazariya ayrim hozirgi zamon olimlarining asarlarida o'ziga xos rivojlangiriddi. Ular neolit inkilobining chegaralovchi ahamiyatini e'tirof etgan holda o'zlashgiruvchi iktisodiyotga o'tish ilohiy asosga egadir, deb chiqdilar. Teologlarning fikricha, fan insoniyat tarixidagi ushbu sifat burilishining anik, tabiiy sabablarini aniqlamagan, uning liniiy asosi esa Bibliya va Qur'undayoq mavjuddir.

Patriarxal nazariya davlatning paydo bo'lishini bevosita oiladan o'sib chiqqan deb qaraydi, monarx hokimiyatini otaning oila a'zolari ustidan hokimligi belgilab beradi. Teologiya nazariyasi kabi patriarxal nazariya

ham podsho, monarx hokimiyatining cheklanmaganligini asoslashga yo'naltirilgan edi,

biroq ushbu xrkimiyatning manbaini nafaqat uning kelib chikishining ilohiyligida, balki oilada oila boshlig'i, patriarxning

cheklanmagan hokimiyati mavjud bo'lgan shakllarida ham ko'rdi.

Ushbu Ushbu nazariya Gretsiyada tug'ildi, dastlab Aristotel asarlarida asoslandi, biroq o'z rivojlanishini XVII asrda ingliz R.Filmerning «Siyosat» asarida topdi.

Cheklanmagan kirolik hokimiyati tarafdori bo'lgan R.Filmer Bibliyaga tayangan holda, uning fikricha, Odam Ota xudodan hokimiyatni o'z qo'liga olgan, so'ngra bu hrkimiyatni o'zining katta o'g'li - patriarxga, u esa o'z avlodlariga - qirollarga bergan.

Patrimonial nazariya vakillari (A.Galler, XK asrda yashagan fransuz olimi) davlat yerga mulkchilik huquqidan kelib chiqqan deb hisoblashadi (patrimonium). Yerga egalik kilish xukz/kidan hokimiyat bevosita u yerda yashovchi odamlarga yoyiladi. Feodal syuzerenitet mana shu tarzda asoslanadi.

XUP-XUSh asrlarda keng yoyilgan davlatning kelib chikishi tug'risidagi shartnomaviy nazariyaga kapa rol tegishlidir. Gollashshyada XVII asrda G.Grotsiy, Angliyada J.Lokk va .Gobss, Fransiyada XUSh asrda J.J.Russo, D.Didro, Sh.L.Monteske16 ushbu nazariya tarafdori bo'ldilar.Rossiyada inkilobchi demokrat A.Radishchev (1749-1802)shartnomaviy nazariya vakili edi. U davlat hokimiyati xalqqa tegishlidir, u tomonidan monarxga berilgan va xalqning nazorati ostida bo'lishi kerak der edi. Odamlar davlatga kirar ekan o'zlarining tabiiy erkinligini yo'kotmaydilar, balki cheklaydilar xolos. U mana shundan kelib chiqib, agar monarx hokimiyatni suiiste'mol qilsa va o'zboshimchalikka yo'l ko'ysa, xalq ko'zg'olon ko'tarishi va inkilobiy yo'l bilan monarxii ag'darib tashlashga hakli ekanligini keltirib chiqardi.

Kuch ishpatish nazariyasi (Ye.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy).Uning tarafdorlari davlat kuchsiz va himoyasiz kabilalarning kuchli va uyushgan kabilar tomonidan bosib olinishi yo'li bilan kuch ishlatish natijasida paydo bo'lgan deydilar. L.Gumplovichning fikricha, aynan kabilalarda,ularning o'zaro kurashida «biz davlatning hakikatda o'zagini, bosh, asosiy kismini qabilalarda z'tirof ztishimiz mumkin. Qabilalar asta-sekin sinflarga va tabakalarga aylanadilar. Ushbu qabilalardan davlat tashkil etiladi. Ular va fakat ular davlatning o'tmishdoshlaridir» K.Kautskiy jamiyatning keyinchalik tarakdayoti davomida davlat yalpi uyg'unlik vositasiga aylanishini va ham kuchli, ham kuchsizlarning yalpi farovonligini ta'minlovchi va himoya qiluvchi organga aylanishini isbot kilishga urindi. Nazariya natsistlar Germaniyasi tomonidan rasmiy mafkura sifatida qabul qilindi

Irrigatsiya nazariyasi nemis olimi K.Vittfogel nomi bilan bog'likdir. Uning «Sharqiy despotizm» asarida davlatlarning paydo bo'lishi, ularning birlamchi despotik shakllari sharqiy agrar viloyatlarda ulkan irrigatsiya inshootlari kurulishi bilan bog'lanadi. Ushbu zaruriyat jamiyatni asoratga soluvchi «menejerial-byurokratik sinf» hosil bo'lishiga olib keladi. K.Vittfogel despotizmni «gidravlik» yoki «agromenejerial» sivilizatsiya deb ataydi.

Psixologiya nazariyasi (DPetrajishiy19, Z.Freyd,G.Tard) davlatning paydo bo'lishini

insonning psixikasi, individning jamoada yashashga ehtiyoji, ko'rsatmalariga kundalik hayogda amal qilish mumkin bo'lgan obro'li kishilarni izlashi, buyruk. berish va itoat etish istagi

bilan izohlaydi. Mazkur nazariya tarafdorlari o'z g'oyalarini asoslash uchun inson ongining dohiylar, liniy va siyosiy arboblar, qirollar va boshka rahnomalarning obro'-e'tiboriga bog'liqligining tarixiy misollariga havola qiladilar.

Psixologiya nazariyasi (DPetracijshiy19, Z.Freyd, G.Tard) davlatning paydo bo'lishini insonning psixikasi, individning jamoada yashashga ehtiyoji, ko'rsatmalariga kundalik hayogda amal qilish mumkin bo'lgan obro'li kishilarni izlashi, buyruk. berish va itoat etish istagi bilan izohlaydi. Mazkur nazariya tarafdorlari o'z g'oyalarini asoslash uchun inson ongining dohiylar, diniy va siyosiy arboblar, qirollar va boshka rahnomalarning obro'-e'tiboriga bog'liqligining tarixiy misollariga havola qiladilar.

Sinfy nazariyaga muvofiq {K.Marks, F.Engels, V.Lenin, G.Plexanov20) davlat ijtimoiy-iktisodiy munosabatlar o'zgarishi, ishlab chiqarish usuli natijasidir, sinflar paydo bo'lishi va ular o'rtasida sinfiy kurashning keskinlashishi yakunidir. U odamlarni ezish, bir sinfnig boshqa sinf ustidan hukmronligini ko'llab-

quvvatlash vositasidir. Biroq sinflar yo'qotilishi bilan davlat ham o'ladi. Davlatning kelib chiqishi haqidagi markscha nazariyaning asosiy qridalarini nizoli, xato va hatto xayoliy koidalarning muayyan kombinatsiyasi tashkil etadi.

3. Ilk davlatchilik tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi aksariyat olimlarning e'tirof etishicha, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik asoslarini bronza (mil.avv. III-II m.y.) davridagi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik xo'jaliklari tashkil etgan edi. Shuningdek ilk davlatchilikning tarixiy ildizlari faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, balki qadimgi Sharqdagi yuksak darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq bo'lgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yuqori sifatli moddiy madaniyat buyumlari o'zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta'sirni ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuzlab ming yilliklarni o'z ichiga qamragan insoniyat tarixida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi – nisbatan ancha kech yuz bergan jarayondir. Davlatchilik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi. Ilk davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlariga ega bo'lib, ilk davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qayerda oldinroq rivojlangan bo'lsa, o'sha yerda paydo bo'lgan. Xo'jalik ishlab chiqaruvchi shakllarning taraqqiyoti aholi joylashuvi, hududlarning kengayishi va tashqi aloqalarning rivojlanishiga olibkelgan. Shu tariqa aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlanib, bir hududda turli urug' vakillari yashaydigan bo'lgan, ya'ni qarindosh-urug'chilik jamoasi o'rniga hududiy qo'shnichilik jamoalari paydo bo'lgan.

Bu jamoalar vakillari alohida qishloqlar, ekinzorlar va sug'orish tarmoqlari bilan chegaralangan bo'lib, ular to'la o'zlashtirilgan va doimiy xo'jalik hamda ishlab chiqarish

maqsadlarida foydalanib kelingan vo-ha-tumanlarda yashaganlar. Ular o'z ichki va tashqi munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda birlashishga harakat qilganlar. Jamoalardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalani-sh, diniy urf-odat-larni bajarish kabi masalalar ijtimoiy mansablar hamda boshqaruvning paydo bo'lishiga asos solgan.

4. **Avesto» kitobida qadimiy davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar:**

- Avesto - Zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir;
- U «qat'iy qonunlar» degan ma'noni anglatadi;
- Bu dinning g'arbdagi nomi - zoroastrizm, arablar otashparastlar deyishgan;
- Bu dinning payg'ambari-Zaratushtra, u buyuk munajjim sifatida g'arbda shuxrat qozongan;
- Zardushtiylikda ezgulik, adolat, tenglik, rahm-shafqat va barcha insoniy fazilatlar targ'ib etiladi;
- Unda yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal, ya'ni kishining o'ylagan fikri, aytgan so'zi, qilgan ishi bir-biriga muvofiq bo'lgandagina u haqiqiy baxt saodatga erishadi – degan g'oya yotadi;
- Zardushtiylik dinining xudolari: Axuramazda (ezgulik xudosi), Axrimon (yovuzlik xudosi), Xumo – Semurg'-Farna (baxt va tole' xudosi), Mitra (yorug'lik va quyosh xudosi), Anaxita (hosildorlik va farovonlik xudosi);
- Zardushtiylar asosan olov, quyosh, yer va yulduzlarga topinishgan;
- U 17 ming qora mol terisiga zarxal harflar bilan bitilgan.
- «Avesto»da jami 16 mamlakat sanab o'tilgan
- Katta Xorazm (mil.avv. VII asr)
- Qadimgi Baqtriya (mil.avv. VII asr)
- Marg'iyona (m.a. VII asr)

Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda Vatanimiz hududida shakllangan ilk davlat tuzilmalari

Katta Xorazm

Amudaryo quyi havzasidan Turkmaniston janubiga qadar; Shuningdek, O'rta Osiyoning Markaziy tumanlarini o'ziga birlashtirgan O'rta Osiyoning keng hududlarini o'z nazoratida tutgan qabilalar konfederatsiyasi

Qadimgi Baqtriya

O'zbekiston janubi. Janubiy-sharqiy O'rta Osiyoning katta hududlarini, jumladan, hozirgi Surxondaryo, qisman Zarafshon, Amudaryo yuqori oqimi, shuningdek, Afg'oniston shimolini o'z nazoratida tutgan qabilalar konfederatsiyasi

Ilk davlatlar paydo bo'lishi arafasida

O'rta Osiyo jamiyati

- Ma'muriy hududiy boshqaruv:
- oila – nmana
- urug' jamoasi – vis
- qabila – zantu
- viloyat – dahyu
- hukmdor - kavi:
- Ijtimoiy tabaqalar:
- Qohinlar
- Harbiylar
- Dehqonlar
- Chorvadorlar
- Hunarmandlar

Manbalar va adabiyotlar

1. *Nizomulmulk*. Siyosatnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
2. *Azamat Ziyo*. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2000.
3. *Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana: V 3-x t.* / Otv. red. E.V. Rtveladze, D.A. Alimova. – T.: Uzbekistan, 2009.
4. *Sagdullayev A., Aminov B.B., Mavlonov O'.M., Norqulov N.* O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
5. *O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari / Mas'ul muharrirlar: D.A. Alimova, E.V.Rtveladze.* – T.: Sharq, 2001.
6. [The Modern State: Theories and Ideologies](#). – Edinburgh University Press, 2007.
7. *Rtveladze E. Sivilizvsii, gosudarstvo, kulturny Sentralnoy Azii.*
– Tashkent, 2005.
8. *Sagdullayev A., Mavlonov O'.* O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.– Toshkent: Akademiya, 2006.
9. *Eshov B.J.* O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi.- T.; Yangi asr avlodi, 2012.
10. *Eshov B.J.* O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi.- T.; Yangi asr avlodi, 2012.

3-4-mavzular: Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.

Reja:

1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.
2. O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.
3. Ilk o'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv (V-VIII asr o'rtalarigacha)

O'zbekiston xududida rivoj topgan ilk shahar-davlatlar, Axmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati (mutloq monarxiya) Satrapliklarda boshqaruv tizimi; Aleksandr Makedonskiyning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzimi; Dovon va Qang' davlatlari hududi va boshqaruv tizimi; Kushon davlati (podsholigida) xo'jalik boshqaruvi.

1.Davlat boshqaruvining tarixiy ildizlari. Ilk davlatchilik tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi aksariyat olimlarning e'tirof etishicha, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik asoslarini bronza (mil.avv. III-II m.y.) davridagi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik xo'jaliklari tashkil etgan edi.Shuningdek ilk davlatchilikning tarixiy ildizlari faqat ichki sabablargagina bog'liq bo'lmay, balki qadimgi Sharqdagi yuksak darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yuqori sifatli moddiy madaniyat buyumlari o'zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta'sirni ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuzlab ming yilliklarni o'z ichiga qamragan insoniyat tarixida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi –nisbatan ancha kech yuz bergan jarayondir. Davlatchilik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi. Ilk davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlariga ega bo'lib, ilk davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qayerda oldinroq rivojlangan bo'lsa, o'sha yerda paydo bo'lgan. Xo'jalik ishlab chiqaruvchi shakllarning taraqqiyoti aholi joylashuvi, hududlarning kengayishi va tashqi aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan. Shu tariqa aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlanib, bir hududda turli urug' vakillari yashaydigan bo'lgan, ya'ni qarindosh- urug'chilik jamoasi o'rniga hududiy qo'shnichilik jamoalari paydo bo'lgan.

► Bu jamoalar vakillari alohida qishloqlar, ekinzorlar va sug'orish tarmoqlari bilan chegaralangan bo'lib, ular to'la o'zlashtirilgan va doimiy xo'jalik hamda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanib kelingan voqa-tumanlarda yashaganlar. Ular o'z ichki va tashqi munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda birlashishga harakat qilganlar. Jamoalardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalalanish, diniy urf-odatlarini bajarish kabi masalalar ijtimoiy mansablar hamda boshqaruvning paydo bo'lishiga asos solgan.

► miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlari O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari (Baqtriya, Sug'd, Xorazm) jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bir necha kichik oilalardan tashkil topgan uy jamoalari (katta oila vakillari)dan iborat bo'lgan. Ushbu uy jamoalarining boshqaruv tartibida katta oilalar boshliqlar yoki uy

egalari, shuningdek, alohida qishloq qo'rg'onlarini boshqaruvchi jamoalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

► Bu jarayonda alohida uylar o'rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar ikkinchi darajali bo'lib borgan. Bu shunda ko'rinadiki, har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida xususiy mulkka, o'z uy-joyiga, ishlab chiqarish qurollariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollariga ega bo'lganlar, bir so'z bilan aytganda, ular o'zlarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan xo'jaliklarni aks ettirganlar.

► Ushbu xo'jaliklarda mansablarni egallash, jamoa ishlab chiqarish ishlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan. Boshqaruv faoliyati zarurati ishlab chiqarishni takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish hamda jamoa mahsulotini taqsimlash kabi ishlar bilan maxsus shug'ullanuvchi ayrim shaxslarni yuzaga chiqargan. Shu tariqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti jamiyatda o'z obro'-e'tiboriga ega bo'lgan, faqat ijtimoiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanmasdan, ijtimoiy va xo'jalik hayotini nazorat qiladigan hamda boshqaradigan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Bunday odamlar o'zlarining shaxsiy axloqiy xislatlari, amaliy bilimlari va nufuzlari bilan boshqalardan ajralib turganlar. Aynan shu asosda ishlab chiqarish faoliyatidan tashkiliy-boshqaruv faoliyati ajralib chiqqan.

► **A.S.Sagdullayev tadqiqotlariga ko'ra, boshqaruvning paydo bo'lish asoslari quyidagilardan iborat:**

► *ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti,
► *tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniş zarurati,
► *jamoodagi mavjud urf-odatlarini bajarish,
► *jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo'linishi. Olimning ta'kidlashicha, eng qadimgi davrlardan boshlab to bugungi kungacha quyidagi boshqaruv vazifalari ustivor bo'lib kelmoqda: tashkil qilish, tartibga solish, nazorat, jamiyatning ichki va tashqi murakkabliklarini boshqarib turish.

►

► **Iqtisodiy funksiyalar** tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim o'rin tutgan. Dehqonchilik ishlari, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo'jaliklarida yer va suvni taqsimlash, qurilish va sug'orish irrigatsiya ishlarini yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, mahsulot ayirboshlash hamda savdo-sotiq aloqalari shular sirasiga kiradi. Ishlab chiqarish taraqqiyotining turli bosqichlarida rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va nazorat qilish kabi ishlarni bajarish vazifalari ham yuzaga kelgan.

► **Ijtimoiy funksiyalar**

► qadimgi jamoalardagi o'zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish, munozarali masalalarni hal qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy jihatdan

► **Harbiy-siyosiy funksiyalar**

► tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniş, harbiy qo'shinlarni tashkil etish,
► vohalar hududlarida mudofaa ishlarini amalga oshirish,

▶ tuman va vohalar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish hamda munozarali masalalarni hal qilish kabi vazifalar asosida shakllanib rivojlangan boshqarib turish zaruratiga asoslangan.

▶ **Hududiy funksiyalar**

▶ voqa, tuman, viloyat hududlarida joylashgan qishloq jamoalari, tuman aholisi (bir necha qishloq jamoalari) va viloyat (bir necha tuman) aholisining munosabatlarini nazorat qilish hamda boshqarib turish zarratidan kelib chiqqan

▶ **2.Davlat boshqaruvi tushunchasi va boshqaruv tasnifi**

▶ Boshqaruv – bu muayyan jamoa yoki tashkilot a'zolarining faoliyat yo'nalishini ta'minlaydigan, butun tashkilot va uning bo'limlarini belgilangan maqsad doirasida ushlab turadigan, faoliyat turlariga ko'ra, jamiyatning barcha jabhalarida o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lgan, muayyan rahbar kadrlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifadir. Shuning uchun ham lotincha “adminis-tratio” atamasi rahbarlik qilishni (kimgadir, nimagadir), boshqaruvni anglatadi. Boshqaruv – tegishli ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan faoliyatlarni o'zida mujassam etadi

▶ **Zamonaviy boshqaruv vazifalari tizimi quyidagicha belgilanishi mumkin:**

▶ 1. Tashkil etilgan tashkilot (jamoat, birlashma, idora va h.k.) rahbari va yetakchisi sifatidagi faoliyati, a'zolarining birlashuvi.

▶ 2. O'zaro hamkorlik – muloqotni yo'lga qo'yish va doimiy muloqot.

▶ 3. Axborotni qabul qilish, saralash va tarqatish.

▶ 4. Yangi texnologiyalarni muntazam joriy etib borish.

▶ 5. Mavjud zahiralarni taqsimlash.

▶ 6. Qoida buzilishlarining oldini olish va kadrlar qo'nimsizligini boshqarish.

▶ 7. Mo'zokaralar olib borish, shartnomalar tuzish.

▶ 8. Innovatsiyalar o'tkazish, raqobatbardosh loyihalar ishlab chiqish.

▶ 9. Doimiy reja asosida ish olib borish (rejalashtirish).

▶ 10. Xodimlar faoliyatini nazorat qilish va ularni yo'naltirish bo'yicha mutaxassis amalga oshirishi mumkin va lozim bo'lgan vazifalarning barchasi emas.

▶ Tadqiqotchilar insonning hayotning turli jabhalariga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan quyidagi boshqaruv turlarini ajratib ko'rsatadilar:

▶ 1. Hayvonot va o'simlik dunyosiga zarur shaklda ta'sir ko'rsatish yo'lini tanlash bilan bog'liq bo'lgan **biologik boshqaruv**.

▶ 2. Texnologik jarayonlar, mexanizmlar va shunga o'xshash

▶ holatlarni boshqarish bilan bog'liq **texnologik boshqaruv**.

▶ 3. Insonning insonga ta'sir qilish vositalarini shakllantiruvchi jamiyat boshqaruvini nazarda tutadigan **ijtimoiy boshqaruv**.

▶ Ijtimoiy boshqaruv o'z xususiyatlari bilan qolgan ikkita boshqaruv turlaridan ajralib turadi.

▶ Davlatning qonunlar asosida ish yuritishi va mehnatni samarali tashkil etishi ma'lum tashkilotlar, jamoalar, idoralarning yashovchanligini ta'minlovchi omillari sifatida maydonga chiqadi. Ushbu omillarga ajralmas darajada bog'lanib ketgan uchinchi omil – bu davlat boshqaruvida rahbarlik faoliyatidir. Tashkilot taraqqiyoti va uning barcha munosabatlari, shu jumladan, tashkilotning ichki munosabatlari ham uni

boshqarayotgan rahbar yoki tashkilot tizimida faoliyat ko'rsatayotgan turli darajadagi rahbarlar – rahbariyatning xatti-harakatlari natijasida amalga oshadi. Shuning uchun ham tashkilot samarali mehnat va uni rag'batlantirishni yo'lga qo'ymasa, rahbar tashkilotga munosib faoliyat yuritmasa, u tanazzulga uchraydi.

► Rahbar kadrlar faoliyatini nazorat qilishda amaliy ish olib boruvchi tizimlar – **komissiya, reviziya, attestatsiya** kabi tuzilmalar mavjud bo'lib, bu tuzilmalar ham davlat, ham nodavlat tashkilotlarga baravar xizmat ko'rsatadi.

► O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi –bu davlat va nodavlat idoralarining qonunlarni hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish vazifalarini bajarish yo'lida o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan kundalik qonuniy ijrochilik va ma'muriy faoliyatidan iborat

Davlat boshqaruvi xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirila borib, quyidagi masalalarni nazarda tutadi:

► 1. Ma'muriy ijro tizimining yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga qarab harakatlanishi.

► 2. Davlat boshqaruvi sub'ektlarining huquqiy-hokimiyat vakolatlarini ma'muriy tartibda amalga oshirish.

► 3. Boshqaruv sub'ektlari huquqiy me'yorlarni mustaqil o'rnatadigan ma'muriy qonun ijodkorligi imkoniyatlarining mavjudligi

3.Davlatning vazifalari va boshqaruv ko'rinishlari. Davlatning vazifalari – bu davlatning milliy va umumbashariy mohiyati hamda ijtimoiy vazifasini aks ettiradigan asosiy faoliyat yo'nalishlaridan iborat. Bu vazifalar davlat hududi doirasida amalga oshiriladigan ichki vazifalar hamda uning hududlaridan tashqarida amalga oshiriladigan tashqi vazifalarga bo'linadi. Davlat vazifalari doimiy va muvaqqat (favqo'lodda holatlarda) vazifalarga bo'linib, bu vazifalar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi

Davlat ijtimoiy rolining mohiyati barcha fuqarolarining umumiy xohish-irodasini ifoda etgan holda butun jamiyatga ma'lum maqsadlarni nazarda tutuvchi, tashkillashtiruvchi ta'sir o'tkazishdan iborat. Shuning uchun davlat tomonidan o'zining ijtimoiy vazifalarini bajarishini belgilab beradigan quyidagi ikki jihati ajratiladi: 1) davlat fuqarolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari va xohish irodasini o'zida qanchalik mujassam etishining ko'rsatkichi; 2) davlatning ijtimoiy jarayonlarni qanday boshqarayotgani, jamiyat taraqqiyotini ta'minlayotgan.

► Davlatning boshqaruv vazifasi davlatning deyarli barcha vazifalarini qamrab olganligi bois, davlatning vazifalari – bu boshqaruv vazifalarining majmuasi sifatida izohlanadi. Davlatning **asosiy boshqaruvchilik vazifalari** rahbarlik, muvofiqlashtirish, tashkil etish, nazorat, sotsiumni saqlash va rivojlantirish maqsadida qarorlar qabul qilish, uning tuzilishi va faoliyatini tartibga keltirish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ularning har tomonlama faoliyat ko'rsatishi uchun qo'lay sharoitlar yaratishdan iborat

► Davlat o'zining tarkibiy tuzilishi va aloqalariga ko'ra ko'ptizimlilik xususiyatiga ega. Bu tizimda ko'plab davlat idoralari va boshqa tuzilmalar, ko'p sonli mansabdor shaxslar va boshqa xizmatchilar, millionlab kishilar ishga solinadi. Davlat boshqaruvida quyidagi tizimlar alohida ajratib ko'rsatiladi:

► 1. Boshqaruvchi tizim – davlat boshqaruvi sub'ektini belgilovchi sifatida.

► 2. Boshqariladigan tizim – butun jamiyat va uning davlat ta'siriga tortilgan tarkibiy qismlari boshqaruv ob'ektlari sifatida.

► 3. O'zaro hamkorlik tizimi – davlat va jamiyatning aloqalarini amalga oshiradigan turli institutlar.

► Hokimiyatning markaziy idoralari va mintaqalarning o'zaro aloqalari xususiyatlariga ko'ra boshqaruvning subordinatsiyali va muvofiqlashtiruvchi shakllari farqlanadi. **Muvofiqlashtiruvchi boshqaruv** hokimiyatning yagona markaziy idorasi bilan birga to'liq yoki qisman mustaqillikka ega bo'lgan joylardagi idoralar ham mavjud bo'lgan federatsiya yoki konferensiya shaklida amalga oshiriladi.

► **Subordinatsiyali boshqaruv** unitar davlatlar uchun xos bo'lgan joylardagi hokimiyatning markazga ma'muriy bo'ysunishi, quyi boshqaruv idoralariga ta'sir o'tkazish, yuqori boshqaruv idoralaridan keladigan buyruqlarga majburan bo'ysundirishiga asoslanadi

Mulk shakllaridan foydalanish mezonlariga ko'ra, quyidagi boshqaruv turlari: **federal boshqaruv; mintaqaviy boshqaruv; munitsipal boshqaruv; xususiy (korporativ) boshqaruv kabilar farqlanadi.** Boshqariladigan ob'ektlarga ta'sir o'tkazishga ko'ra, quyidagi soha (funksional) va hududlar boshqaruvi mavjud: 1) Soha boshqaruvi markazdan to korxonagacha bo'ysunish bo'lishini nazarda tutadi. Bunday holat tarmoqda yagona texnikaviy siyosatni joriy etadigan, tarmoq ichidagi va tarmoqlararo muvozanatni ta'minlaydigan tarmoq vazirliklari orqali amalga oshiriladi. 2) Hududiy boshqaruv ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish hamda mintaqalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy darajasini tenglashtirishga qaratiladi.

► Muvaqqat harakat me'yorlarining miqyosiga bog'liq holda **boshqaruv strategik, taktik va tezkor ko'rinishlarga bo'linadi.** **Strategik boshqaruv** jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar yuzasidan to'liq yoki ayrim yo'alishlar, sohalar, ob'ektlar, hududlar bo'yicha uzoq muddatli mo'ljallarni belgilab beradi, jamiyat rivojining maqsadlari, vazifalari, strategiyalarini aniqlaydi va boshqaruvning har bir bo'g'iniga faoliyat yo'nalishini beradi. **Taktik boshqaruv** – belgilangan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlardir. Bu qisqa muddatli boshqaruv bo'lib, unda mavjud axborot negizidagi strategik mazmunga ega bo'lgan ko'rsatkichlar doimo ma'lum davrda erishilgan natijalar bilan qiyoslanadi

► **4. Boshqaruvdagi qonuniylik va tartib-intizom.** Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining demokratik qadriyatlari hukmron bo'lgan hozirgi davrda erkin va mas'uliyatli shaxslarni kamol toptirish uchun davlat boshqaruvining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruvga huquqiy hodisa sifatida qarash davlat boshqaruvining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishning asosiga aylanadi

► Davlat boshqaruvining huquqiy munosabatlari – bu davlat va jamiyat ishlarini boshqarish zarurati munosabati bilan davlat hokimiyatini amalga oshiradigan, huquq me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu munosabatlardan huquqiy me'yor shakllanadi. Huquqiy me'yor – bu davlat tomonidan o'rnatilgan, davlat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan, o'zgaradigan va barham topadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadlarini ko'zlaydigan xatti-harakat qoidalaridir.

Huquqiy me'yorning o'ziga xos tomoni shundaki, ub'ektlarning davlat tomonidan belgilab qo'yilgan xatti-harakat oidalari ma'muriy choralar va tartib-intizom mas'uliyati bilan himoya qilinadi. Huquqiy munosabatlar sub'ektlari – bu ma'lum harakatlar sodir etish huquqiy va majburiyatiga ega bo'lgan shaxslardir.

► O'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra huquqiy munosabatlar **moddiy** (boshqaruv sohasida paydo bo'ladigan) va **protsessual** (boshqaruv jarayonida uni amalga oshirish qoidalarini tartibga solgan holda shakllanadi) huquqiy munosabatlarga bo'linadi. Moddiy munosabatlar protsessual munosabatlar vositasida tartibga solinadi. Davlat boshqaruvida vakolatlarni belgilash va ularni amalga oshirish uchun tegishli shaxslarga davlat-hokimiyat vakolatlarini berish – davlat boshqaruvini huquqiy tartibga solishning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. **Vakolatlar** – davlat organi yoki mansabdor belgilab qo'yilgan vazifa-vakolatlarini bajarish uchun ularga berilgan huquq va majburiyatlar yig'indisidir.

► **Vazifa-vakolatlar** - davlat organi yoki mansabdor shaxsning Konstitutsiya, qonun yoki me'yoriy hujjatlar bilan belgilab berilgan vakolatlar majmui bo'lib, ular o'z faoliyati davomida shundan tashqariga chiqishi mumkin emas.

► **Idoraviy vakolatlar** – konstitutsiyaviy tushuncha bo'lib, davlat va jamiyat hayotining ma'lum sohalarida hokimiyat-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish huquqini bildiradi.

► Davlat organining **huquqiy maqomi** quyidagilardir: davlat organining davlat apparati umumiy tarkibiy tuzilmasidagi holati va uning hokimiyat-boshqaruv

► faoliyat turiga (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati), maxsus ixtisoslashgan kichik tizimlarga (umumiy vakolatlar, huquq-tartibot, harbiy va h.k.) mansubligi; davlat organi vakolatlarining ma'lum faoliyat sohasida ular bajaradigan vazifa va vakolatlarning huquqiy ifodasi sifatidagi birligi; davlat organi faoliyatining tashkiliy tuzilmasi, tamoyillari, shakllari, usullari va tartib-qoidalari, ma'lum masalalarni hal etish tartibi va boshqalar

► Milliy qonunchilikning har qanday sohasi boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy imkoniyatlardan foydalanadi. Bu huquqiy imkoniyatlar – **buyruq-ko'rsatma, ta'qiqlash va ijozatdir**. **Buyruq -ko'rsatma** – ijobiy majburiyat bo'lib, huquqiy me'yorda ko'zda tutilgan biror-bir harakatni sodir etish uchun to'g'ridan-to'g'ri huquqiy majburiyat yuklashni bildiradi. **Ta'qiqlash** – huquqiy me'yorda ko'zda tutilgan sharoitda biror-bir harakatni sodir etmaslik uchun to'g'ridan to'g'ri huquqiy majburiyat yuklashni bildiradi. **Ijozat** – huquqiy me'yorda ko'zda tutilgan sharoitda muayyan harakatlarni sodir etish va o'z ixtiyori bilan ularni sodir etishdan tiyilishdir.

► O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-qism, 16-moddasiga binoan, davlat, uning idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlar asosida faoliyat yuritadi. Ushbu qonun quyidagi holatlarga ko'ra, boshqaruv sohasida alohida ahamiyatga ega: boshqaruv davlat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining ko'pgina sohalarini qamrab oladi; boshqaruv sub'ektlari o'z vazifa va vakolatlarini huquq qo'llanadigan faoliyatni amalga oshirish orqali bajaradi; boshqaruv idoralari o'z vakolatlari doirasida Konstitutsiya va qonunlarga asoslangan holda ularni bajarishga qaratilgan qonun ijodkorligi faoliyatini amalga oshiradi; o'zini-o'zi boshqarish idoralari faqat qonunda belgilab qo'yilgan vaziyatlarda fuqarolarning

huquq va erkinliklarini cheklashga olib keladigan ma'muriy majburlov choralarini qo'llash sohasida keng vakolatlarga ega.

► Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash bu sohadagi qonunlar va qonuniy hujjatlarning aniq va so'zsiz bajarilishi, qo'llanilishi, ularga rioya etilishi bo'yicha shaxs va tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatidan iboratdir. Bunday faoliyat quyidagi masalalarga qaratiladi: ijro hokimiyati va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida amaldagi qonun va qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan talab va ko'rsatmalarni bo'zishga yo'l qo'ymaslik; bunday holatlarni o'z vaqtida va tezkor aniqlash; ularni oldini olish va sabablarini aniqlash; ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; aybdorlarni tegishli javobgarlikka tortish.

► O'zbekistonda qonuniylikni ta'minlash usullari quyidagilardan iborat:

► 1. Tashkiliy-tarkibiy tuzilmalar (davlat idoralari va jamoat birlashmalari).

► 2. Tashkiliy-huquqiy usullar (alohida faoliyat turlari, amaliy usul va vositalar). Bu usullar ko'zatish va nazoratdan iborat

Antik davr O'zbekiston hududlarida tarqqiy etgan davlatlardan biri – Qang' davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil.avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to'g'ri keladi. Ammo, Qang' davlati va qang'arlar tarixining mashhur bilimdoni K. Sh. Shoniyo'zovning fikricha, bu davlat mil. avv III asrning boshlarida paydo bo'ladi.

Qang' davlati haqida bizgacha yetib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv.202-mil. 25 yy) Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o'sha davrda tashkil topgan Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar. Demak, o'sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo'lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog'liq masalalar ana shu kengash yig'ilishida hal qilingan.

Qang' davlatiga qarashli yerlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo'lingan bo'lib, ularning har birini jobg'u yoki yobg'u (qad. Xitoy manbalarida – chjaovu) deb nomlangan xokimlar boshqargan.

Jobg'ular mamlakat boshqaruvida Qang' podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg'ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan. M.I. Filanovichning fikricha, siyosiy tuzilma sifatida Qang', ehtimol, mil. avv II asrgacha shakllangan ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalarning Qang' yo'l boshchilari qo'l ostida birlashtirilgan turli-tuman ittifoqlaridan iborat bo'lgan. Dastlab u uncha katta bo'lmagan qabilalar ittifoqidan iborat bo'lib, janubda yuyechjilar hokimiyatiga bo'ysunsa, sharqda xunnlarga qaram edi. Ammo, mil.avv. II-mil. II asrda asta-sekinlik bilan u qudratli davlatga aylanadi.

Manbalar Qang' podsholarining nomlari haqida ma'lumotlar bermaydi. Faqat shu narsa ma'lumki, ular o'z nomlari bilan birgalikda urug' nomini ham qo'llaganlar va

«Qang‘ xonadoni hukmdori» deb atalganlar. Qang‘da saylangan hukmdorning hokimiyati oqsoqollar kengashiga tayangani va ayni paytda kengash tomonidan cheklab qo‘yilganini ko‘z atash mumkin. Qang‘ hukmdorlarining qanday unvon bilan atalganligi ma‘lum. Ammo, kengashdagi zodagonlar vakillari qanday atalganligi turli bahslarga sabab bo‘lgan. Antik davrdagi usunlar, yuyechjilar va qang‘larning hukmdorlari yabg‘u unvoni bilan atalgan.

Qadimgi Davan (Parkana)

Mil. avv. III asrdan mil. II asrga qadar mavjud bo‘lgan. Davan davlati haqidagi ma‘lumotlar ko‘proq Xitoy manbalarida uchraydi. Mil. avv. III asr manbalarida bu davlat «Davan», keyinroq esa «Boxan» hamda «Polona» nomlari bilan eslatiladi. Ularda Davanning 70 ta shahri bulgani qayd etilgan. Davan davlatining chegaralari shimolda Kangyuylar mamlakati va hozirgi Toshkent vohasigacha, janubda esa Yuechjilar davlatiga qadar cho‘zilgan. Ershi shahri (hozirgi Marhamat) qadimgi Davan davlatining poytaxti bo‘lgan. Davan davlati o‘zining «samoviy» otlari bilan shuhrat qozongan. Ularning dovrug‘i Xitoyga ham yetib borgan. Xitoyliklar Farg‘ona otlarining qanoti borligiga ishonishgan va ularni ilohiylashtirishgan. Mil. avv. 104-101 yillarda xitoyliklar ikki marta Farg‘onaga bostirib kirgan.

Davan davlati tarixi bo‘yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borgan o‘zbek olimlari - A.Asqarov, A.Xo‘jayev, B.Matboboyev, A.Anorboyev, S.Qudratov, B.Abulg‘oziyeva, B.Abdullayev, Abduholiq Abdurasul o‘g‘li kabilar arxeologik ma‘lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo‘lishlariga qaramay, bu yo‘nalishda hali ko‘pgina masalalar o‘z yechimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo‘shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Davan davlati ma‘lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo‘lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo‘lgan Motsay, Chan Fin, Mug‘ua, Yan‘lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo‘lgan podsho, ya‘ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma‘lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bita katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo‘lmagan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba‘zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilganlar. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag‘lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

Davan davlati hududlari shaharlar va vohalarga bo‘lingan holda idora etilgan bo‘lishi mumkin. Chunki manbalarning ma‘lumot berishicha, Yuchen shahrining hokimi Xitoy qo‘shiniga oziq-ovqat yetkazib berishdan bosh tortgan. Tadqiqotchi N. Gorbunova har bir shaharning, ehtimol, vohaning o‘z hokimi bo‘lganligi haqidagi taxmini ilgari suradi. Olimaning fikricha, aynan mana shu hokimlar oqsoqollar kengashi tarkibiga

kirgan va unda hal qiluvchi mavqega ega bo'lgan.

A. Asqarovning fikricha, oqsoqollar kengashi oldida podsho-hukmdorning huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oqsoqollar kengashi qo'lida edi. Tadqiqotchilarning fikricha, Davan davlati mil.avv. III – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, boshqaruv tizimiga ko'ra podsholik hisoblangan. Aholining ko'pchiligi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Xitoydan O'rta yer dengizigacha cho'zilgan bu yo'ldagi qit'alararo savdoda sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'lining xavsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar yetkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, yuyechjilar mil.avv. 140-130 yillar oraliqida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada Katta yuyechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuyechji hukmdorlari qo'l ostida beshta xokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumii.

Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuyechji davrini uch bosqichga bo'ladilar: 1. Mil.avv. 139-125 yillar – Katta yuyechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi. 2. Mil.avv. 25 yilga qadar – Katta yuyechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Yuyechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumii mulklaridan iborat bo'lib, ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan. 3. Mil.avv. 25 yildan keyin Katta yuyechji davlatining inqirozi. Kushon yabg'usi Kiotszyukyu qolgan to'rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya'ni, podshoga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar tulab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqida a'lumotlar bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq. Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Kushon davlatining inqirozga uchrashi Gerk-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha o'xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qo'lash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo'lganlar. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalalanish uchun ichki va tashqi sabablarga ko'ra, zaiflashgan yirik davlatlarda yetarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib Kushon podsholigi o'zining asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari Shimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.

Shunday qilib, Kushon podsholigi o'z tarkibiga ko'pgina hududlar va ko'plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo'lsada, uning tarixi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan o'zviy bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-

siyosiy, iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo‘lib kirdi.

Kushonlar davlatining dastlabki poytaxti Sho‘rchi tumanidagi Dalvarzintepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan, u Xitoy manbalarida Xodzo deb nomlanadi. Kujula Kadfiz davrida Afg‘oniston va Kashmir Kushonlar davlatiga qo‘shib olingan; Kushonlar davri mil. avv. I asr oxirlaridan milodiy IV asr o‘rtalariga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi; Kushonlar davrini shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin: 1) ilk kushonlar davri (Kadfiz I va Kadfiz II), bu davrda siyosiy markaz O‘zbekistonning janubida va shimoliy Afg‘onistonda bo‘lgan; 2) Kanishka va uning vorislari davri, bu davrda siyosiy markaz shimoliy-g‘arbiy Hindistonga ko‘chadi;

Kushon podsholigi (Kujula Kadfiz, Vima Kadfiz, Kanishka I, Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III) 1-4 asrlar.

Xioniylar va kidariylarga nisbatan eftalitlar haqidagi ma‘lumotlar nisbatan ko‘proq saqlangan. Shunga qaramadan eftalitlarning kelib chiqishi haqidagi olimlarning fikrlari turlicha. Misol uchun, S.P. Tolstov, A.N.Bernshtom, K.V.Trever kabi olimlar eftalitlarning ilk vatani Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A.Mandelshtam, R.Grishman, L.Gumilyov, K.Yenoki kabi olimlar esa eftalitlar vatanini Badaxshon deb hisoblaydilar. B.Litvinskiy va K.Inostransevlar eftalitlarning ilk vatani Farg‘onaning tog‘ oldi hududlari bo‘lganligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Ularning turkiy halqlar bo‘lganligi haqidagi masala o‘zil-kesil yechimini topmagan. Eftalitlar turli manbalarda turlicha nomlanadilar. Misol uchun, xitoy manbalarida ular “ida, iyeda, idan, idyan” deb, suriya va lotin manbalarida esa “eplalit, eftalit, abdal” arab va fors mualliflarida “haytal, yaftal, yeftal” degan nomlar bilan eslatiladi.

Eftalitlar nomi bilan mashhur bo‘lgan davlat qadimgi Turon zaminida eramizning birinchi asrning birinchi yarmida shakllana boshlagan. IV va V asrlarda esa ular Kushonlar imperiyasini tamoman tugatib, juda katta hududda o‘z hukmronliklarini o‘rnatganlar. Ularning sulolasiga asos solgan shaxs-Kunxon bo‘lgan. O‘rta Osiëda yashagan massagetlar va hunlarga mansub bir necha turkiy qavmlarning ittifoqidan iborat eftalitlar (oq hunlar) sulolasiga asos solindi. Ular Badaxshon, Chag‘oniën, Sug‘d va Tahoriston kabi o‘lkalarni bosib olganlaridan keyin V asrda (457 y.) kuchli markazlashgan davlat sifatida taniladi. Ularning qudrati 484 yilda Sosoniylardan bo‘lgan Peruz rahbarligidagi qo‘shinlarni yenganlaridan keyin yanada yuksaladi. Eftalitlar O‘rta Osiëda yagona hukmron kuchga aylanadilar. Ularning davlatlari Qashg‘ar, Hindiston mamlakatlari bilan chegaradosh edi. Ular o‘z hokimlarini “Ixshid” deb ataganlar. Eftalitlarning qaysi qavmlardan tashkil topganliklari haqida tarixiy kitoblarda turli-tuman fikr va mulohazalar mavjud. Ayrim mualliflar ularni Eroniy qavmlardan edilar degan fikrda bo‘lsalar, ayrimlari ularni O‘rta Osiëda yashagan o‘troq va ko‘chmanchi turkiy qavmlardan edilar deb hisoblashadi. Masalan, S.P. Tolstovning fikriga ko‘ra, ular Orol bo‘yida yashagan massaget, sak, Xunlarning aralashuvidan tashkil topganlar. Eftalitlar halqlarimiz haëtida o‘zidan avval o‘tgan markazlashgan davlatlar kabi o‘chmas izlar goldirdi. Ular davrida Ishtixon, Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlar rivojlandi. Jayxun, Sayxun, Oqxun kabi nomlar, atamalar ularning tarixi bilan bog‘liqdir.

Siyosiy tuzum. Prokopiyy Kesariyskiy bergan ma‘lumotlarga Karaganda, eftaliylar

yagona podsho boshkaruviga, rivoj toptan obod fukaro jamiyatiga ega bulishgan. Jamiyatdagi fukarolar orasida va kushni davlatlar bilan munosabatlarda adolat ular uchun asosiy mezon sanalgan. Oilaviy munosabatlarini kuzatish ularda patriarxal tartibga xos jixatlar rivoj topganligini kursatadi. Birok bu vaktga kelib eftaliylarda urugchilik tuzumi xususiyatlaridan farkli yerga xususiy mulkchilik mavjudligini yukorida kuzatgan edik. Patriarxal boshkuruv tartibiga xos ayrim jixatlar kuyidagi misollarda kuzga tashlanddi: “Ular orasidan eng boy kishilar taxminan yigirma va undan ortik kishini uzlariga sherik kilib oladilar; dustlar xar doim u bilan birga tushlik kiladilar, unta tegishli ne’matlardan umumiy xukuklari borligi sababli bab-baravar foydalanadilar. Dust va sherik ortgirgan shaxs ulimidan keyin, konunga kura, tobutga uning dustlari tiriklayin birga kuyilishi shart bulgan” (Prokopiyy Kesariyskiy). Eftaliylarning xarbiy kushinlari juda katta kuchga ega edi. Askarlari kulida xarbiy kurol-yaroglardan gurzi, uk-yoy va asosiysi kilich muxim o‘rin tutgan. Muxorabalar paytida ularning otlik bulinmalari yetakchilik kilgan. Milodiy V asrda sosoniylar va eftaliylar davlati o‘rtasidagi xarbiy tuknashuvlarda eftaliylar kushinining ustun kelishi ular xarbiy maxoratining yukori darajada ekanligidan dalolat beradi. Firdavsiyning “Shoxnoma” asarida Vaxshunvor va Peroz (Feruz) davri vokealari xam o‘z aksini topgan. Eftaliylarning podshosi Katulf “Shoxnoma”da shu xalkning Gatfar nomli podshosiga uxshatilgan. Gatfar turklarga karshi kurash olib borgan shaxs sifatida Firdavsiy asarida gavdalangan. Eftaliylar davlati yirik xududni kamrab olgan edi. Urta Osiyoning asosiy kismi, Sharkiy Turkiston tulik ravishda va Shimoliy Xindistonning ayrim kislmlari xamda Gandxara bu davlat tarkibiga kirgan.

Turk hoqonligi davlat boshqaruvi xususiyatlari

VI asr o‘rtasida Oltoyda (Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya) O‘rta Osiyo tarixida muxim rol o‘ynagan ko‘chmanchilar davlati – Turk xoqonligi (551 –744) tashkil topdi. Turk so‘zining birinchi marta tilga olinishi 542 yilga to‘g‘ri keladi. Yozma manbalarda u turlicha aytiladi: Xitoy manbalarida «tutsdus», forsiy tildagi manbalarda «turk» , bitik toshlarda saqlanib qolgan yozuvlarga qaraganda bu xalq o‘zini turk deb atagan. «Turk» atamasi (kuchli, baquvvat) dastlab etnik ma’noga emas, ijtimoiy ma’noga ega bo‘lgan, Ashina urug‘i, unga bo‘ysungan va yaqin qarindosh bo‘lgan xamda yangi davlat birlashmasining o‘tashkil etgan qabilalarning xarbiy zodagonlari shunday atalar edi. Keyinchalik, ulkan qabilalar ittifoqini va unga itoat qilgan xalqlarni turk deb atay boshlaganlar. Qabilaning eski nomi ashina xukmronlik qiluvchi sulola nomi bo‘lib qolgan.

Turk xoqonligining paydo bo‘lishi 552 yilga to‘g‘ri keladi. Mazkur yilda turklar Ashina urug‘idan Bumen (Guman) raxbarligida Juan-juanlarni tor – mor keltirgan edilar. Mana shu paytdan boshlab turk xukmdorlari o‘zlarini juan – juanlar egalik qilgan yerlarning va ularning ilgarigi kuch – qudratining vorislari sifatida tasdiqlab xoqon (qog‘an) unvonini qabul qilganlar. Birinchi xukmdor Bumin, bo‘lib, u taxtga Ish qag‘on unvoni bilan o‘tirgan. Uning o‘g‘li va merosxo‘ri Kolo (Qora – qag‘an) davrida juan – juanlar yana bir marta mag‘lubiyatga uchratildi (533) , Qoraqag‘onning ukasi Muxan qag‘an 55 yilda ularni uzil – kesil tor – mor qildi. Juan - juanlarning katta qismi g‘arb tomonga qochdi va u yerda avvallar degan nom bilan tanildi. Muxan qag‘on xukmronlik qilgan davrda (553 – 572) xoqonlik Markaziy Osiyoda siyosiy gegemon bo‘lib qoldi:

janubiy – g‘arbiy manjuriyada xidanlar, Yenesey bo‘yida qirg‘izlar va boshqa qabilalar bo‘ysundirildi. Shimoliy Xitoy davlatlari turklarga o‘lpon to‘lay boshladilar.

Qadimgi turklarning tasavvuriga ko‘ra, davlatchilikning markazi, davlatni o‘zida mujassam etuvchi shaxs xoqon yoki yana aniqroq qilib aytganda xoqonlarning xukmron sulolasi edi. U uchta kuch – osmonning (Tangri), yer – suvning kuch va irodasi va turk xalqining faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Xoqonning rafiqasi xotun unvoniga ega edi. I.O. Smirnova ta’kidlaganidek, keyinchalik bu unvon sug‘d tiliga kirdi va bu unvonni olgan ayol etnik mansubligidan qat’iy nazar, umuman xukmdorning rafiqasini anglatadigan bo‘lib qoldi.

Taxtga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo‘lgan uluslarga bo‘linish tizimiga muvofiq belgilanar edi. Unga ko‘ra, taxt otadan o‘g‘ilga emas, akadan – ukaga, kichik amakidan katta jiyanga meros qolar edi. Shaxzodalar o‘zlarining xukmdorlik navbatlari kelishini kutib, ungacha o‘zlariga berilgan uluslarda xokimlik qilar edilar. Xokimiyatni xukmron sulola qo‘l ostida jamlash prinsipi Markaziy Osiyoning ko‘chmanchi davlatlarida boshqaruvning an’anaviy usuli, chunki u ikki yoqlama samara berardi: bir tomondan ko‘chmanchi chorvachilik xukmron bo‘lgan sharoitlarda boshqaruvning va mudofaaning barqarorligi ta’minlansa, ikkinchi tomondan. Sulolaning o‘z ichida xam nisbatan osoyishtalik ta’minlanar edi.

Davlatning asosini yer bilan birga xalq tashkil etardi. Davlatchilikning mustaqil va an’anaviy O‘rta Osiyo shakllarini rivojlantirgan turk davlati jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan nazorat qilinadigan xo‘jalik faoliyatiga tayanar edi. Bu faoliyatning asosini ko‘chmanchi chorvachilik tashkil etar, unga katta bo‘lmagan miqyosda dexqonchilik xam qilinardi. Xitoy manbasi «garchi turklar doimiy yashash joyiga ega bo‘lmasa xam, lekin ularning xar birining ajratib berilgan yeri bor» deb ta’kidlaydi.

Davlatni boshqarishda xoqonga uning qarindoshlari, eng avvalo, xukmron sulola a‘zolari va ular tomonidan yaratilgan boshqaruv apparati yordam berar edi. Qadimgi turkiy bitiklarga ko‘ra u to‘rtga bo‘lingan: Qarindoshlar; xoqonga ittifoqdosh bo‘lgan qabila va xalqlar; xoqonning o‘ng tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va ma‘muriy xodimlar, xoqonning chap tomonidan joy olgan amaldorlar va ma‘muriy xodimlar. Xoqonning qarindoshlari – o‘g‘illari, amakisi, jiyanlari va og‘a – inilariga tegin unvoni berilgan. Xitoy manbalarining ma‘lumot berishicha, qadimgi turk davlatidagi mansablarning asosiy shtati 28 ta bo‘lgan. Bunda ularning faqat beshtasi oliy mansabdor xisoblangan: yexu (yabg‘u), me (shad), dele (teginlar), silifa (eltabarlar) va tutunfa (tudunlar). Qolgan 23 tasi kichik amaldorlardan iborat bo‘lgan. Barcha mansablar meros qilib qoldirilar edi.

Tudunlarning mansabi turklarga bo‘ysunuvchi xalqlarni boshqarish bilan bog‘liq edi. Xitoy manbasi ta’kidlab o‘tganidek, «bo‘ysundirilganlar ustidan nazorat qilish». Va «soliqlar yig‘ish» ularning vazifalari sirasiga kirar edi.

Turk qo‘shinlarining tashkil etilishi xaqida yozma manbalarda ma‘lumot kam. Turklarning «o‘rdasi qo‘shin sifatida» o‘ng va chap qanotlarga bo‘linishi aniqlangan. Gan davriga oid xitoy yilnomalarida turk qo‘shini bo‘linmalari o‘nliklar bilan sanaladiki, bu Yu.S.Xudyakovning fikricha, turklarda xalq va qo‘shin bo‘linishida o‘nlik «Osiyocho» tizimi mavjud bo‘lgan, deb taxmin qilishga imkon beradi. Ular orasida shaxsiy soqchilar (ashina urug‘iga mansub) xoqonlarning zirxli gvardiyasi ajralib turgan.

Turklarning jamiyatida chorva mollari, qullar va boshqa buyumlarga xususiy mulkchilik xukmron edi.

Turk davlati yetarli darajada to‘liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega edi. Jazoning asosiy turlari qatl qilish, kompozitsiya va talion xisoblanardi. O‘lim jazosi davlatga qarshi Jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik), xamda odam o‘ldirganlik uchun berilgan .

Odam o‘ldirilganligi uchun qatl qilish talion edi. Buzuqlik qilgan kishining jinsiy a‘zosini, ya‘ni jinoyat qaysi a‘zo yordamida sodir etilgan bo‘lsa, o‘sha a‘zoni kesib tashlash xam talion edi. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar kompozitsiya , ya‘ni yetkazilgan zararni o‘n baravar qilib to‘lash, jaroxat yetkazgani yoki mayib qilgani uchun mol – mulk tarzida tavon to‘lash, qizi xotinini qullikka berish, suyagini sindirganligi uchun esa ot berish yo‘li bilan jazolanardi.

Masalan, xitoy manbalarining bergan ma‘lumot 10, 20 va qirq kishilik aloxida yirik qushilmalar shadlar yoki yobg‘u qo‘mondonligida bo‘lgan. O‘zlarining kuch – g‘ayratga to‘lgan davrlarida, birinchi turk xoqonligi vaqtida xam, ikkinchi xoqonlik davrida xam turklar, odatda 100 ming kishilik qo‘shin to‘play olganlar. Qo‘shinda xizmat qilish, majburiy edi, lekin uning tartibi qanday bo‘lganligi ma‘lum emas.

Turk bo‘lmagan xalqlar va turkiy qabilalar turk davlati tarkibiga qurol kuchi bilan qo‘shib olinardi. Zabt etilgan dushmanlar – o‘zga yerliklarning boshqaruvi xam o‘zgapadir. – Ular o‘zlarining ijtimoiy tuzilmalarini saqlashlari mumkin edi va bu tuzilmalar ustidan noib tutuq nazorat qilardi. Shunday davlat mavjud ediki, unda o‘z xalqi ma‘muriy (xarbiy - ma‘muriy) prinsip asosida xayot kechirgan va urug‘ qabilachilik tashkiloti shakllaridan foydalana olgan, begona xalq esa bo‘ysundirilgan va agar unga nisbatan xukmron xalqning ma‘muriy tizimi joriy etilmagan bo‘lsa, u o‘zining ijtimoiy tuzilmalarini saqlagan va noib tomonidan boshqarilgan.

Manbalar va adabiyotlar

- 1.Nizomulmulk. Siyosatnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
- 2.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2000.
- 3.Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana: V 3-x t. / Otv. red. E.V. Rtveladze, D.A. Alimova. – T.: Uzbekistan, 2009.
- 4.Sagdullayev A., Aminov B.B., Mavlonov O‘.M., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
- 5.O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari / Mas‘ul muharrirlar: D.A. Alimova, E.V.Rtveladze. – T.: Sharq, 2001.
- 6.The Modern State: Theories and Ideologies.– Edinburgh University Press, 2007.
- 7.Rtveladze E. Sivilizvsii, gosudarstvo, kultura Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
- 8.Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.– Toshkent: Akademiya, 2006.
- 9.Popov A.A. Greko – Baktriyskoye tsarstvo. – SPb., 2008.
- 10.Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi.- T.; Yangi asr avlodi, 2012.

11. Asqarov A. O'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Qadimgi Farg'ona // Farg'ona kecha, bugun va kelajakda. – Farg'ona, 2003.
12. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lar. – Toshkent, 1995.
13. Zaxidov P. Gosudarstvo Kangyuy. – Tashkent, 2009.
14. Matbobayev B.X. O'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Farg'ona.//O'zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Farg'ona. Ma'ruza matnlari.– Namangan, 2001. – 23-40 bb.
15. Trever K.V. Eftaliyы i xioniyы. Istoriya narodov Uzbekistana. – T., 1950.
16. Muhammadjonov A.R. O'zbekiston tarixi (V asrdan XVI asr boshlarigacha). – T.: O'qituvchi, 1994.
17. Nosir Muhammad. Qadimiy Turon davlatlari va hukmdorlari (mil.avv. VIII asrdan milodiy XX asr boshlariga qadar). To'ldirigan ikkinchi nashr. – T., 2013.
18. *Vohidov Sh., Xoliqova R.* Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATYERIALLARI

(jami 10 soat)

1-mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji. (2 soat)

R Ye J A:

1. **XIY asr o'rtalarida Movarounnahrda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot.**
2. **Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi.**
3. **Amir Temur davlatining ma'muriy tuzilishi**

Amir Temur – buyuk davlat asoschisi .Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushni qilich bilan amalga oshirdim (AMIR TYeMUR)

Sohibqiron Amir Temur o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi ilm-fan va madaniyat homiysi;

Amir Temur Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos solgan. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo Suriya, Misr va shimoliy-g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari; shimoliy-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha; janubiy-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlar bo'ysundirilgan;

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlariga qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan;

U asosan XIV asr 60-yillar o'rtalarida o'z siyosiy faoliyatini boshlagan, mamlakatda hukm surgan tarqoqlik va mo'g'ul zulmiga zarba berish maqsadini ilgari surgan;

Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi faoliyati

Amir Temur mo'g'ul hukmdori Tug'luq Temur va uning o'g'li Ilyosxoja qarshi faol kurashlar olib borgan;

1365 yilda Toshkent va Chinoz oralig'ida mo'g'ullar bilan olib borgan yirik jangi "Loy jangi" nomi bilan tarixda qolgan;

1370 yil 10 aprelda Amir Temur Movarounnahrning hukmdori bo'lib, taxtga o'tiradi;

Amir Temur davlatiga ikki xavf mavjud edi: birinchisi mahalliy hukmdorlarning boshboshdoqligi, ikkinchisi mo'g'ullar xavfi;

Mo'g'uliston bilan Oq O'rda hukmdorlari Farg'ona vodiysining sharqi, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga havf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talon-taroj qilardi;

Amir Temur isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi;

Shibirg'on viloyati bo'ysundirilgan;

Xorazmni Amir Temur Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb xisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi;

Amir Temur Xorazm so'fiylariga qarshi besh marta yurish qildi va 1388 yilda uning xududlari Amir Temur davlatiga bo'ysundirildi;

Yigirma yil (1371-90) mobaynida Sohobqiron Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alaba qozondi.

Amir Temur tomonidan markazlashgan qudratli davlatga asos solinishi

1361-1365 yillar Mo'g'ulis-ton xoni Tug'luq Temur va uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi urush;

1370-yili Amir Xusaynga qarshi Balxga yurish va uni bartaraf etish;

1370-1371- yillarda Farg'ona, O'tror, Yassi, Toshkent, Xisor, Badaxshon, Qunduz bo'ysundirildi.

1381-yili Xirotda, Seiston, Mozandaron, Saraxs, Jom, Kav-siya, Sabzavor bo'ysundirildi;

1371-1389-yillarda jami 7 marta Mo'g'uliston hukmdorlari-ga qarshi kurashdi va buysundirdi;

1371, 1373, 1375, 1379, 1388-yillarda Xorazmdagi so'fiylar sulolasi hukmdorlari: Xusayn, Yusuf va Sulaymon So'fiylarga qarshi kurash olib bordi;

Xorazmni o'z davlati hududiga qo'shib oldi.

Amir Temur faoliyatining ikki bosqichi:

1. 1370-1386 mo'g'ul zulmiga barham berilgan, mamlakat yagona davlatga birlashtirilgan, davlat boshqaruv asoslarini kuchaytiruvchi ichki siyosat olib borilgan.

2. 1386-1405 mamlakatning saltanatga aylanish davri. 27 davlat birlashtiriladi. Davlatning obro'si oshib Sharqning eng qudratli saltanatiga aylanadi.

Oltin O'rdaga qarshi kurash: Amir Temur shu bilan birga shimoliy-g'arbdan, ya'ni Oltin O'rta tomonidan bo'layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida To'xtamishga qarshi uch marta ko'shin tortishga majbur bo'ldi

1-jang 1389 yilda Dizaq (Jizzak)ning Achchiq mavzeida bo'lib o'tgan

2-jang 1391 yilning 18 iyunida (hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan Qunduzcha (Kondurcha) daryosi vodiysida bo'lgan

3-jang 1395 yilning 28 fevralida Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi

Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida Quyi Idil (Volga) viloyatlari, Saroy Berka, Saroychik va Hojitarxon (Astraxon) kabi shaharlar vayron qilindi

Amir Temur To'xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha bordi va Yelets shahrini ishg'ol qildi

Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi faqat Markaziy Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, tarqoq Rus knyazliklarning birlashishi uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan

Amir Temurning tashqi yurishlari: 1381 — 84 yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval (1381) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal'alari, 1384 yilda Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari buysundirildi 1371, 1373, 1375, 1379, 1388-yillarda Xorazmga qarshi besh marta yurish qildi va uni bo'ysundirdi. 1371-1389-yillarda Mo'g'uliston bo'ysundirilgan

«Uch yillik» (1386 - 88) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shim qismi. Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi

Amir Temur butun e'tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiy va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt etishga qaratdi. U «besh yillik» (1392 — 96) urush davomida G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar va jaloiariylar hukmronligi barham topdi

Amir Temur 1398-1399 yillarda Hindistonni zabt etgan

Amir Temurning 1399 — 1404 yillarda olib borgan «**etti yillik**» harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o'lkasi (qad. Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g'alaba qozondi

Amir Temur davlatining markaziy boshqaruv tizimi

AMIR - MUTLOQ HUKMDOR-BOSH VAZIR – Devonbegi

Mamlakat va raiyat ahvoli, hosil, soliqlar, kiritim – chiqimlar bilan

shug'ullanuvchi vazir. Sipoh vaziri – harbiy ishlar bilan shugullangan. Mulkchilik va soliq ishlari vaziri o'lib ketganlar, qachonlar kelib – ketayotganlar, chorvalar, o'tloq-yaylovlar va ulardan olinadigan daromadlarni nazorat qiluvchi vazir. Saltanat ishlarini yurituvchi vazir. Chegara yerlar va tobe davlatlar ishi bo'yicha 3 vazirlik-Soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi vazir. Sipoh ishlari vaziri. Daraksiz yo'qolgan kishilar, kelib – ketib yuruvchilar, hosil, aqldan ozganlar, vorissizlar mol-mulki, qozilar va shay-xulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirgan.

QURULTOY VA UNING DAVLAT HAYOTIDAGI O'RNI

- Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilgan;
- xalq vakillari bilan kengashish vositasi;
- Qurultoyda urush, tinchlik masalalari yoki davlat boshqaruviga oid boshqa muhim ishlar hal etilgan;
- U oliy tabaqa vakillarining kengashi;
- Qurultoy boshqaruvda jamoat fikriga tayanish imkonini yaratgan;
- Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi o'rtasidagi aloqadorlikning ta'minlashiga ta'sir etgan;
- Qurultoy monarxiyaning demokratiya bilan uyg'unlashgan ko'rinishi davlatda tenglik, adolat tamoyillarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatgan;
- Qurultoy davlatning manbai xalq bo'lganligini anglatadi.

AMIR TEMUR DAVLATINING MA'MURIY TUZILISHI

SALTANAT-Ulus – Viloyat-Tuman (10 ming askar yetkazib bergan)-Hazora (minglik)-Sada (yuzlik)-Daha (o'nlik).

Viloyat va tuman boshqaruvlari-Hokim-Moliyadevoni boshlig'i-Adolatamiri-Quzi-Muftiy -Mutavalliy –Muxtasib-Kutvol(komendant)-Mahalliyerkin jamoalar-Mahalla oqsoqollari.

AMIR TEMUR BOSHQARUVIDA USTUVOR XUSUSIYATLAR

- Boshqaruvda turkiy, mo'g'ul va forsiy boshqaruv an'alaridan foydalanilgan, ammo mahalliy an'alar ustunlik qilgan;
- O'troq va ko'chmanchi aholi manfaatlarini himoya qilgan;
- Davlat mafkuraviy, ma'naviy va axloqiy asoslarni kuchaytirishda shariat qoidalariga tayangan;
- Saltanatda xalqlarning tinchligi, barqarorligi, qonuniylik va adolat ta'minlangan;

- Davlat soliqlar, bojlar, *xiroj, moli omon*, o'ljalar, badavlat zamindor, tadbirkorlarning xayriya hadyalari va boshqa manbalar evaziga to'ldirilgan;
- Davlatda kuchli ijtimoiy himoya ta'minlangan;
- Kuchli harbiy va mudofaa tizimi shakllangan;
- Ilg'or sud-huquq tizimi joriy etilgan;
- Tadbirkorlik ichki va halqaro miqyosda keng rivojlangan, yer egalari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana boshlagan;
- Ilm-fanga homiylik qilingan;
- Balki saltanatning barcha qishlog'u shaharlarida ko'plab qurilishlar bunyod etilgan;
- Buyuk Ipak yo'liga e'tibor berilgan va uning ustidan nazorat o'rnatilgan;
- Yagona makon, integratsiya, globallashuv asoslarining dastlabki ko'rinishlari paydo bo'lgan;
- Madaniyatlar, dinlararo ko'priklar o'rnatilgan.

AMIR TYEMUR DAVLATINING IJTIMOYIY TUZILISHI

- Bu davrda yirik zamindorlar, o'rta va kichik yer egalari hayotida sifat o'zgarishlari yuz bergan;
- Ruhoniyalar tabaqasi - shayxulislom, qozi, imom xatib, voiz, mudarris, sadr, shayxlar va boshqalar.
- Savdo ahllari - tujjorlar, "ahl-i bozor", savdogarlar, olib sotarlar va b.
- Hunarmandlar, ularning birlashmalari - kasb-hunar, maorif va axloqiy-ma'rifiy maskan bo'lgan;
- Qishloq aholisi - Mayda xususiy yer egalari, ijarachilar, erkin dehqonlar, qullar
- Yer egaligi turlari: 1-davlat mulki (mamlaka); 2-xususiy yerlar; 3-vaqf yerlari; 4-jamoa yerlari;
- Harbiylar: oddiy askar, bahodirlar, o'n boshi, yuz boshi, ming boshi, tumanboshi (10.000 askar boshlig'i), o'n ikki darajali amirlik tizimlari, beklarbegi, amir ul-umaro (jami 313 amirlar);
- Ziyoli aholi va harbiylar
- Mutaxassislarni tanlashda nomzodning nasl-nasabi, kasbiy malakasi, sog'ligi, aql-farosati, yuksak ma'naviy axloqi, ko'rsatgan jasorat hamda xizmatlariga e'tibor berilgan.
- Kam ta'minlangan tabaqalar ijtimoiy himoya qilingan, dehqonlar va savdogarlikning faoliyat boshlashlariga xatto kambag'allarning uy-joy qurilishlarida ham foizsiz davlat ko'mak bergan
- Raiyat – xazina – qo'shinning boyligi saltanat qudratining tayanchi deb tushunilgan.

SUD-HUQUQ TIZIMI

- Dorulimorat- xokimlik boshqarmasi;
- qozixona-sud idorasi;
- doruladolat-adliya boshqarmasi;
- fuqarolik ishlari bilan shug'ullanuvchi qoziliklar;
- shariat ishlari bilan shug'ullanuvchi qoziliklar;

- harbiy ishlar bilan shugʻullanuvchi qoziliklar;
- Asaslar - kecha qorovullari, qidiruv ishlari boshliqlari;
- qoʻrchi - davlatning qurol-yarogʻlarini avaylab-asragan maʼmurlar;
- kunduzgi, tungi, fuqarolik va harbiy ishlarga tegishli boʻlinmalar;
- muhtasib - toshu tarozilar, maʼnaviy gunohlar uchun jazoni tayinlovchi kishilar;
- arzbegilar – aholidan tushgan arz-shikoyatlarni koʻrib chiqib, muhim choralar belgilagan.

Amir Temurning tarixdagi xizmatlari

- Amir Temur yurtimizda ildiz otgan moʻgʻullar zulmiga uzil-kesil barham berdi;
- mayda davlatlarga boʻlinib ketgan, tarqoqlik, ichki urushlar va adolatsizliklar hukm surgan Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirib, uning boshqaruv asoslarini shakllantirdi va mustahkamladi;
- Davlat boshqaruv asoslarini takomillashtirib yangi bosqichga koʻtardi;
- qonun ustuvor boʻlgan jamiyat asoslarini barpo etdi;
- saltanatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy asoslarini mustahkamladi;
- nisbatan qisqa vaqt ichida Movarounnahrni dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirdi;
- Osiyo, Afrika, Yevropa mintaqalaridagi xalqlarning tinchligi, farovonligi uchun katta xizmatlar qildi va halqaro maydonda adolatni taʼminlash uchun kurashdi;
- turli din, millat, elat vakillari oʻrtasida oʻzaro aloqalarning oʻrnatilishi oqibatida birinchi marta yagona makon va integratsiya gʻoyalari shakllana boshladi;
- Saltanatda islom dinining ilmiy asoslariga, bagʻrikenglik tamoyillariga tayanilib davlat boshqaruvi amalga oshirilgan;
- Amir Temur hukmronligi davrida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uygʻunlashtirildi;
- Bu davrda saltanat hayotida siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy barqarorlik oʻrnatilgan;
- Davlat boshqaruvining muhim sohalaridagi faoliyat adolat, tinchlik, hamkorlik va taraqqiyot yoʻlida tashkillashtirilgan hamda chiqarilgan qonunlar shu maqsadlarga yoʻnaltirilib, oʻz vaqtida ijrosini topgan;
- Amir Temur birinchi marotaba gʻarb va sharq xalqlari oʻrtasida hamkorlik koʻprigini oʻrnatgan. Bugun uning bu faoliyati «qoʻl choʻzish siyosati» deb baholanmoqda;
- Saltanatning barcha hududlarida keng bunyokorlik ishlari olib borilgan;
- Amir Temur davlatida ilm-fan, maʼnaviyat, meʼmorchilik va sanʼat beqiyos darajada rivoj topdi va fanda bu haqli ravishda ikkinchi Uygʻonish davri deb talqin etildi.

2.Mansab va unvonlar..

Amir Temur davrida davlat yumushlarini ado etgan quyidagi oliy lavozimlar: otaliq, arzbegi, a'lam, boqovulboshi, bitikchi, daftardor, jalol ul-islom, jarchi, zinbardor, kutvol, majlisnavis, miroxur, munshiy, muftiy, muxtasib, mushrif, muhandis, muhosil, filbon, sadr a'zam, sohib devon, yasovul, tavochi, farrosh, faqih, xazinador, xonsolor, chuhra og'asi, shayxulislom, eshik og'a boshi, yurtchi, qozi asqar, qozi ahlos kabi lavozimlar tilga olinadi.

Arzbegi – oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shikoyatini podshoh (xon) ga yetkazib turuvchi va ularga javob qiluvchi mansabdor.

A'lam – fiqh (musulmon qonunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a'lamning tasdig'idan o'tgandan keyin kuchga kirgan.

Baqovulboshi – podshoh (xon) oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat piiruvchilar tepasida turgan mansabdor.

Bitikchi – devonlarning yozish-chizish ishlariga mutasaddi bo'lgan mansabdor.

Daftardor – Devoni mustavfiy (moliya vazirligi) da Oliy-soliq to'lovchilar ro'yxati, soliqlar daftarini yurituvchi mansabdor.

Jalol ul-islom – oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor.

Jarchi – podshohning farmonlari va buyruqlarini (masalan, qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga yetkazib turuvchi mansabdor.

Zinbardor – podshoh (xon) otiga egar-jabduq urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqtida xonning zahiradagi otini o'zi bilan birga yetaklab yurgan.

Kutvol - qal'a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u yerdagi qo'shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan.

Kadxudo - qishloq oqsoqoli.

Majlisnavis – oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig'ilishlarida bo'lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib.

Miroxur – podshoh (xon) otxonalariga qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo'lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig'i bilan urush paytida qo'shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan.

Munshiy – podshoh (xon) ning shaxsiy kotibi

Muftiy – musulmon qonunshunoslarining boshlig'i. Shariat qoidalari asosida chiqarilgan hukm (fatvo) faqat uning tasdig'idan keyin kuchga kirgan.

Muxtasib – musulmonlar tarafidan islom va shariat ahkamlari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi diniy mansabdor. Bu lavozim XVIII – XIX asrlarda Buxoroda Rais deb atalgan.

Mushrif – bosh nazoratchi. Shahzodalar va mansabdorlar tepasiga qo'yilgan nazoratchi.

Muhandis. – oliy hukmdorning amri bilan qurilayotgan binoning shakli va qanday qurilishi kerakligini aniqlab beruvchi mutaxassis.

Muhosil – bo'ysundirilgan shahar xalqidan o'lpon undiruvchi mansabdor.

Filbon – podshoh (xon) ning urushga o‘rgatilgan va og‘ir yuklarni tashuvchi fillarga qarab turuvchi xizmatkor

Sadr a‘zam – sadrlar boshlig‘i, zimmasiga vaqf bilan bog‘liq ishlarni nazorat qilib turish yuklatilgan oliy mansabdor.

Sohib devon – davlatning barcha devonlari ishini nazorat qilib turuvchi oliy mansabdor.

Tavochi – harbiy yurish oldidan barcha viloyat, tuman va uluslardan belgilangan yerga lashkar yig‘ib keluvchi harbiy mansabdor. Odatda, u bu ishga jarchi bilan birga borgan.

Farrosh – podshoh (xon) turgan joylarni supurib-sidirib turuvchi, oliy hukmdor oldiga mehmon kelganda to‘shak to‘shovchi kichik xizmatkor.

Faqih – fiqh (musulmon qonunshunosligi) ilmining bilimdoni. Amir Temur saroyida yetuk faqihlarini tutgan. Aftida ushbu lavozim egasi davlatda qozilar ishini nazorat qilgan va qonun ustuvorligini ta‘minlagan.

Xazinador – davlat xazinasi ishlarining tasarrufi bilan mashg‘ul bo‘lgan yirik moliya mansabdori

Xonsolor – oliy hukmdor va uning mehmonlari oldiga dasturxon yozuvchi saroy xizmatchisi, dasturxonchi.

Chuhra og‘asi – oliy hukmdorning shaxsiy qo‘riqchilari (chuhralari) boshlig‘i.

Shayxulislom – musulmonlar jamoasining boshlig‘i.

Eshik og‘a boshi - qabul marosimlarini tashkil qiluvchi mansabdor, saroy vaziri

Yurtchi – harbiy yurishlar paytida oldindan borib, podshohning chodirini tikishga rahbarlik qiluvchi mansabdor.

Qozi asqar – harbiy sudya.

Qozi ahdos – jinoiy ishni qadimdan kelgan urf-odatlar va tartib asosida ko‘rib hal qiluvchi sudya.

2-mavzu So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma‘muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari (2 soat)

Reja:

1. Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
2. Xiva xonligi: hududi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
3. Qo‘qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.

Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Shayboniylar davlatining ma‘muriy tuzilishi. Abdullaxon II ning siyosat maydoniga chiqishi. Buxoro xonligining viloyat (ulus)lari. Buxoro shahri va unga tegishli tumanlar boshqaruvi. Mang‘itlar sulolasi humkronligi davrida davlat boshqaruvi va ma‘muriy tizim. Amir – eng oliy hukmdor. Davlat boshqaruvida qushbegi mansabining ahamiyati. Saroy unvonlari va mansablari: harbiy amaldorlar, saroy amaldorlari, diniy unvon va mansablar. Unvonlar va darajalar.

Xiva xonligi: hududi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvdagi ijtimoiy tabaqalar, harbiy ma‘muriy amaldorlar, Kengash, inoq, shayxulislom, devonbegi, yasovulboshi diniy unvon va mansablar.

Qo‘qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Saroy unvonlari va mansablari: oliy darajali, o‘rta darajali, quyi darajali. Harbiy ma‘muriy mansablar va unvonlar.

XV asrning so‘nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o‘rtasidagi toj-taxt uchun o‘zaro kurashlar avj olgan edi. Ko‘pgina mulklar va viloyatlar, xususan, Farg‘ona, Hisor, Samarqand bilan Buxoro, Toshkent, Xorazm o‘zlarini mustaqil hisoblab, ko‘p hollarda birlari bilan kurash olib borar edilar.

Shuning uchun ham Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo‘linib ketgan edi. Shayboniyxon esa temuriylar hukmronligiga barham berish uchun bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi.

Temuriylar o‘rtasidagi sulolaviy urishlar, keyinroq esa Shayboniyxon qo‘shinlarini qo‘llab-quvvatlashda Toshkent mulki zodagonlari katta rol o‘ynadilar. 1485 yilda Toshkent hokimiyatini mashhur diniy arbob Xo‘ja Ahror yordamida Yunusxon egallagan bo‘lsa, uning vafotidan so‘ng o‘g‘li Mahmudxon (1487-1503 yy) Toshkent taxtini egallaydi. Mahmudxon temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxon ittifoqini umid qilgan bo‘lsada, niyatiga yeta olmadi.

Muhammad Shayboniyxonning vafotidan so‘ng davlatdagi markaziy hokimiyat anchagina zaiflashdi. Beklar (amirlar) va sultonlarning ko‘pchiligi Shayboniyxondan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo‘ysundilar. Shayboniyxon vafotidan so‘ng uning jiyani Sulton Mahmudning o‘g‘li Kuchkunchixon (1510-1530 yy.) taxtga o‘tirdi. Aynan Kuchkunchixon davrida sultonlarning mustaqilligi kuchaya borib, ular orasida Buxoro mulki hukmdori Ubaydulla Sultonning obruyi ancha baland edi. Kuchkunchixonning keyingi hukmdori Abu Sa‘id (1530-1533 yy.) ning qisqa hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o‘rtasidagi nizolar yanada kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqdi va Turkiston yerlari parchalana boshladi. O‘zaro urushlarga birmuncha barham berishga erishgan Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo‘lgan bo‘lsa, 1533 yildan butun markazlashgan o‘zbek davlatining oliy hukmdori etib saylanadi. Ubaydullaxon paytaxtni Samarqanddan Buxoroga o‘chiradi

O‘sha paytda Samarqand hukmdori bo‘lgan Kuchkunchixonning o‘g‘li Abdulla Sulton ham Ubaydullaxon hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ldi. XVI asrning 40-yillariga kelib yirik zadagonlar va sulolalar o‘rtasida Movarounnahrning poytaxt shaharlari va mulklari uchun o‘zaro kurashlar yana avj oldi.

1561 yilda Abdullaxon II Pirmuxammad bilan aloqalarni uzdi va otasi Iskandar Sultonni (1561-1583 yy.) xon deb e‘lon qildi. Iskandar Sulton nomigagina xon bo‘lib, mamlakatni boshqaruv ishlariga deyarli aralashmas, hokimiyat amalda Abdullaxon II qo‘lida edi. 1583 yilda Iskandar Sulton vafot etgach Abdullaxon II rasmiy xon deb e‘lon etildi. Shayboniy hukmdorlari orasida Abdullaxon II o‘zining qat‘iyatliliigi, yaxshi siyosatchi va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turadi. U markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida bebosh va o‘zlarini mustaqil hisoblaydigan amirlar, sultonlar, mulklar hukmdorlari bilan tinimsiz kurash olib borishga majbur bo‘ldi. Tinimsiz urushlar natijasida 1573 yilda Farg‘ona, 1574 yilda Shahrisabz Qarshi, Hisor viloyatlari, 1578 yilda Samarqand, 1582 yilda Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron, 1583 yilda Balx, 1584

yilda Badaxshon, 1588 yilda Hirot va uning atroflari, 1595 yilda Xorazm Abdullaxon II hokimiyati ostiga birlashtirildi.

Tinimsiz urushlardan charchagan joylardagi mahalliy aholi ko'p hollarda Abdullaxon II ning markazlashtirish siyosatini qo'llab- quvvatlar edi. Abdullaxon II uzoq yillik olib borilgan urushlardan so'ng butun Movarounnahr, Hisor, Xurosonning katta qismi, Xorazm va Turkistonni qo'lga kiritib Shayboniyxon tuzgan davlatni qayta tiklashga erishdi. Ammo, hududiy jihatdan juda katta bo'lgan bu davlat siyosiy jihatdan o'ta mustahkam emas edi. Bu davlatning kuch-qudrati hokimiyat tepasida turgan hukmdorning shahsiy fazilatlariga suyanar hamda unda mustahkam davlatchilik tizimi yaratilmagan edi. Hamda hokimiyat tepasiga boshqa sulola vakillari keldilar.

2.Ma'muriy boshqaruv quydagicha bo'lgan:

1.XVI asrning 60-yillaridan boshlab Buxoro shayboniylar davlatining ma'muriy-siyosiy markazisifatida e'tirof etilganidan so'ng qonun kuchiga ega bo'lgan barchahujjatlar Buxorodan chiqarilgan.

2.Davlatdagi murakkab boshqaruv apparatini tashkil etgan ko'p sonli amaldorlar guruhi ham aynan Buxoroda markazlashgan. Ma'muriy jihatdan Buxoro xonligi viloyatlar va tumanlarga bo'lingan.

3.Mirza Devonning ma'lumot berishicha, Buxoro xonligi boshqaruvida o'ziga xos an'ana va qonunlar o'rnatilgan bo'lib, joylardagi yuqori mansabga ega bo'lgan zodagonlar davlat boshlig'i tomonidan hokimlikka ko'tarilgan.

4.Yirik hududlarda tashkil topgan shayboniylar davlati **xon** tomonidan boshqarilgan. Xonlikning siyosiy tizimida o'zbek davlatchiligining somoniylardan temuriylargacha bo'lgan davrida qarortopgan davlat boshqaruvi qonun-qoidalari hamda xususiyatlari bilan birgalikda ko'chmanchilarga xos an'analar ham mavjud bo'lgan.

► Shayboniylar davlati boshqaruvida islomiy odat va shariat qonun- qoidalariga qattiq rioya qilingan. Davlatdagi oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladan eng ulug' yoshli shaxsga o'tish tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlanib qolgan bo'lsada, XVI asrning 40-yillaridan boshlab vorisilikda otadan bolaga o'tish an'anasi kuchayadi hamda Abdullaxon II davrida aniq bir shaklga tushadi. Ammo, bu holat uzoq davom etmadi.

► Davlat boshqaruvida xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan **markaziy boshqaruv** hamda viloyatlar va tumanlar qo'lida **mahalliy boshqaruv** asosiy o'rinda turar edi. Tabiiyki, xon ular yordamida hamda bevosita ishtirokida davlatdagi ma'muriy boshqaruvni amalga oshirgan

► Ilgarigi sulolalar davrida bo'lgani kabi shayboniylar davrida ham eng oliy davlat idorasi-**dargoh** hisoblangan. Dargoh tepasida xon turgan bo'lib, bu idora saroy devonida jamlangan hamda davlatning ichki va tashqi hayotiga oid barcha masalalarni hal qilgan.

► Chunonchi, davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo hamda odatda **bosh vazir** tomonidan boshqariladigan bu mahkama davlatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilan kuchga kirib, hayotga tadbiq etilgan.

► Shayboniylar davlat boshqaruvidagi muhim vazifalardan biri **naqib** hisoblangan. Naqiblik mansabi xon huzurida juda katta vakolatlarga ega bo'lib, naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan.

► Manbalarga ko‘ra, rasmiy qabul marosimlarida naqibning oliy hukmdordan chap tomonda birinchi bo‘lib joy olishi naqibning dargohdagi yuksak martabasidan dalolat beradi.

► Shuningdek, xon tomonidan chiqarilgan farmon va yorliqlarda ham naqibning nomi birinchi bo‘lib zikr etilgan. Naqibga davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan Ayrim hollarda harbiy muzokaralar uchun ham xon raqiblar tomonga o‘z naqibini jo‘natgan.

► Harbiy yurishlarni uyushtirish, urushlarni davom ettirish yoki to‘xtatish, raqib tomonning harbiy-strategik tomonlarini o‘rganish kabi vazifalar ham naqibga yuklatilgan hamda xon uning maslahatlari bilan qaror qabul qilgan.

► Manbalarga ko‘ra, naqiblarga o‘ta ma‘suliyatli bo‘lgan elchilik vazifalari ham yuklatilgan. Shayboniy hukmdorlari naqiblik lavozimiga asosan payg‘ambar avlodlari hisoblangan sayidlar xonadoniga mansub shaxslarni tayinlaganlar.

Davlat mansablari

• Shayboniylar davlatidagi muhim mansablardan yana biri otaliqdir. Bu mansabga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lgan. Mazkur lavozim egasi shahzodaga otaliq qilib, otasining o‘rnini bosadigan darajada tarbiya bergan.

• Otaliqlar shahzodalarga mulk qilib berilgan viloyatlardagi xon hokimiyati siyosatini belgilash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lganlar. Xonlar voyaga yetmagan shahzodalarga viloyatlarni mulk sifati taqsimlab berganda ularni doimiy nazorat qilish uchun o‘zining ishonchli kishilarini otaliq qilib tayinlagan.

• Bunday hollarda shahzodalar voyaga yetguniga qadar ma‘lum viloyatlardagi boshqaruv ishlari otaliqlar qo‘lida bo‘lgan. Otaliqlar amalda butun bir viloyat taqdirini, uning markaziy hokimiyat bilan munosabatlarini hal qilganlar

• Davlat ishlarida **ko‘kaldosh** (aynan ma‘nosi-bir onadan sut emgan) mansabi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ko‘kaldoshlar davlat bilan do‘stona va dushmanlik munosabatida bo‘lganlar haqida ma‘lumotlar to‘plagan. Shuning uchun ham ko‘kaldosh dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, bu amaldagi kishilarning vazifasi mamlakatda oliy hukmdorolib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga fuqaroning munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘lgan. Ko‘kaldoshlar yuqori mavqega ega bo‘lib, badavlatkishilar bo‘lgan. Toshkent va Buxoroda ko‘kaldoshlar o‘z mablag‘lari hisobidan madrasa qurdirgani ma‘lum.

• **Xon yasovuli** lavozimidagi shaxslar sulola ichki munosabatlariga oid bo‘ladigan tadbirlarni boshqarib turgan. Chunonchi, oliy hukmdor bilanshahzodalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatilgan tartib asosida yo‘lga qo‘yish, xonning shahzodalarni qabul qilishi, ularning arzlari, iltimoslarini xonga yetkazish kabi tadbirlar shular jumlasidandir

• Shayboniylar xonlari hayotida ovchilik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham xon huzuridagi **qushbegi** yoki **amiri shikor** lavozimi ma‘suliyatli hisoblangan. Amiri shikorning vazifasi xon va sultonlarning ovlarini uyushtirib turish bo‘lgan.

• Ov qilinadigan joy atrofidagi qishloqlar aholisi o‘z ot-ulovi, qurol-aslahasi bilan kelib xon va sultonlarning ov o‘tkazishlarida ularga yordam berish, ular qo‘nib qolganlarida qo‘noq hamda oziq-ovqat bilan ta‘minlash ishlari ham qushbegining vazifasi hisoblangan.

Manba tili bilan aytganda, “turli ovchi qushlar (lochin, burgut-E.B.), tozi itlar va boshqalar” ni tayyorlash ham amiri shikorning zimmasida bo‘lgan

- Davlat dargohidagi xavfsilikni ta’minlash, ichki tartib qoidalar, keldi-ketdidan xabardorlik **eshikog‘aboshi** lavozimidagi shahs zimmasida bo‘lgan. Ushbu mansab chap eshikog‘aboshi, o‘ng eshikog‘aboshi, eshikog‘aboshi kabi lavozimlarga taqsimlanib, bu xizmat vakillari urush paytlarida oliy hukmdorning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarib borganlar

- Umuman olganda, A.Ziyo tadqiqotlariga ko‘ra, o‘sha zamonlarga xos ravishda davlatning biror-bir xizmat idorasi, xizmat turi namoyondalari urush paytlarida o‘zlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifalariga qo‘shimcha ravishda harbiy faoliyat bilan ham shug‘ullanib kelganlar.

- Bu holatni **miroxo‘r** (oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov, ularning ta’minoti kabilarga mas’ul), **shig‘ovul** (chet el elchilarini qabul qilish bo‘yicha maxsus xizmat boshlig‘i), qushbegi, **chuhraboshi** (maxsus harbiy qism boshlig‘i), bakovul, dasturxonchi kabi xizmatlar faoliyati orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, ular o‘z idoraviy vazifalaridan tashqari harbiy yumushlarni ham bajarib kelganlar.

- Mamlakatning siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida harbiy ma’muriy amaldorlar, yirik sarkardalar, qo‘shin boshliqlarining (umaro) ham o‘rni katta edi. Dargohdagi harbiy ishlar bilan bog‘liq **chuhraboshi** va **qurchiboshi** (qurol-aslaha xizmati boshlig‘i) vazifalaridan tashqari jibachi, jarchi, qorovulbegi, tug‘begi kabi xizmatlar ham bo‘lgan.

- Ichki va tashqi xavfni bartaraf etishda, yangi yerlarni bosib olish uchun qilinadigan istilochilik yurishlarda qo‘shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, qo‘shin boshliqlarining qo‘mondonlik mahorati kabilar katta ahamiyat kasb etgan.

- Shayboniylar davlati boshqaruvida harbiy-ma’muriy amaldorlardan tashqari, **ulamolar, shayxlar** va **xojalarning** ham mavqei katta bo‘lgan. Eng kuchli hukmdorlar ham ulamolar bilan hisoblashishga majbur bo‘lganlar.

- XVI asrning boshlarida Shayboniyxon yirik din peshvolarning davlat ishlariga siyosiy ta’sirini anchagina pasaytirishga muvaffaq bo‘lgan va diniy hamda dunyoviy hokimiyatni o‘z qo‘l ostida birlashtirgan edi.

- XVI asrning o‘rtalaridan boshlab Jo‘ybor shayxlari oliy hukmdor taqdirini hal qilish darajasidagi mavqega ko‘tariladilar. Qishloqlarda katta-katta yerlarga, shaharlarda esa yirik ko‘chmas mulklarga ega bo‘lgan shayxlar yirik zodagonlar va amaldorlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazganlar.

- Manbalarga ko‘ra, zabardast shayboniylar hukmdorlaridan biri bo‘lgan Abdullaxon II ham avval Xoja Islom, keyin esa Xoja Sa‘dlarning siyosiy va xo‘jalik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga majbur bo‘lgan. **Shayx-ul-islom** ham jo‘ybor shayxlari xonadonidan saylangan. Din peshvolari orasida shayx ul-islom, sadr, qozi kalon, mufti kabi diniy mansablarning mavqei ancha yuqori bo‘lgan.

3.Harbiy qurilish va boshqaruv.

- Shayboniylar davlatida, siyosatida, boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, qo‘mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega edi. Barcha shayboniy hukmdorlari harbiy siyosatni Dashti Qipchoq o‘zbeklarining an’analariga asoslanib olib borganlar hamda bu jarayonda zarur hollarda zudlik bilan to‘planadigan ko‘p sonli qo‘shinlarga tayanganlar. Undan tashqari shayboniylar ichki va tashqi xavfni bartaraf

etishda, davlat sarhadlarini kengaytirish uchun qilinadigan yurishlarda qo‘shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog‘lar, qo‘shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga ham katta e‘tibor qaratganlar. Shayboniylar davlatida qo‘shni to‘plash, qo‘shinning ta‘minoti, uning tarkibi, qo‘shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o‘tash, harbiy harakatlarni olib borish asosan Chingizxon va Amir Temur qo‘shinlarining harbiy tuzilishiga asoslangan bo‘lib, unga Shayboniyxon tomonidan dasht o‘zbeklariga xos bo‘lgan ayrim o‘zgarishlar kiritilgan. Qurol-aslahalarning o‘zgarishi esa Abdullaxon II davriga to‘g‘ri keladi. Harbiy qo‘shin asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan. Harbiy harakatlar davrida qo‘shin o‘q-yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurollaridan foydalangan. Abdullaxon II davrida piltalar paydo bo‘lgan. Qo‘shinda himoya vositasi sifatida qalqon (sifar), hamda temir simdan mayda qilib to‘qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut (jovshan) yoki jiba (jeva)-temir yoki po‘latdan ishlangan maxsus kiyim kabilardan foydalanilgan.

Shayboniylar qo‘shinining oliy bosh qo‘mondoni xonning o‘z hisoblangan.

Alohida bo‘linmalar o‘ng qanot, so‘l qanot, qalb, qorovul va hirovullarga xonning o‘g‘illari, qarindoshlari yoki jangda sinalgan, tajribali va dovyurak nuyonlar (yoki sultonlar) boshliq qilib tayinlangan. Ilgarigi davrlarda bo‘lgani kabi Shayboniylar qo‘shini ham o‘n minglik (tuman), minglik, yuzlik, o‘nlik bo‘linmalarga bo‘lingan. Shayboniylar qo‘shini asosan **qalb** deb ataluvchi markaziy qism, **barong‘or** (o‘ng qanot) va **javong‘or** (so‘l qanot) qismlaridan va **hirovul** (qo‘shinning orqa qismi) dan tashkil topgan. Manbalarda qo‘shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda **o‘g‘lon** deb ham eslatiladi. Qo‘shin oldida **manglay** deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovor qism **ilg‘or** bo‘lgan. Shuningdek, umumiy qo‘shin oldida **qorovul** deb ataluvchi maxsus qism, qo‘shinning o‘ng va so‘l qanotlari oldida boruvchi **kichik g‘o‘l** deb nomlanuvchi bo‘linmalar hamda qo‘shin ortidan boruvchi maxsus yordamchilarning bo‘linma-**chanox** harakat qilgan.

2. Davlat tizimi va ma‘muriy boshqaruvi

• XVII-XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora – **dargohda** mujassamlashib borgan.

• shayboniylar davrida bo‘lgani kabi ashtarxoniy davrida ham davlat tizimida o‘troq turmush tarzi an‘analari bilan birga ayrim yarim ko‘chmanchilarga xos udumlar ham saqlanib qolgan.

• Bu davrda ham **xon** rasman oliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lib, davlatdagi ichki va tashki siyosatga bog‘liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal etilgan. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy etilib, uning nomidan tangalar zarb qilinadi, xonning nomi xutbaga qo‘shib o‘qilardi.

davlat ma‘muriy boshqaruvi

► Amaldagi boshqaruvda ko‘pgina ashtarxoniy hukmdorlari saroydagi katta mavqega ega bo‘lgan amaldorlar hamda yirik ulamolar qo‘lida qo‘g‘irchoq edilar.

► Nodirmuhammad, Subxonqulixon, Ubaydullaxon kabi xonlar markaziy hokimiyat obro‘cini ko‘tarishga, bebosh amirlar mavqegini cheklashga harakat qilgan bo‘lsalar-da, ularning bu harakatlari deyarli samara bermadi.

► Bu davrda markaziy davlat boshqaruvi **saroy amaldorlari** ko'lda to'plangan bo'lsa, joylardagi mahalliy hokimiyat **viloyat hokimlari** ixtiyorida bo'lgan.

► Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, yasovul, inoq, qurchi, harbiy qozi, harbiy mufti, eshik og'a boshi, mirzaboshi, saroy kutubxonasi boshlig'i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo'lgani ma'lum.

► A.Ziyo tadkikotlariga ko'ra, **otaliqning** vazifasi XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'lik bo'lsa, ashtarxoniylar davrida, ayniqsa Abdulazizxondan boshlab, otaliqning markazdagi mavkei kuchaya boshladi.

► Masalan, Abdulazizxon Buxoro taxtiga chiqqach poytaxtdagi otaliq vazifasini o'sha paytda eng kuchli mavqega ega bo'lgan Yalangto'shbiyga taklif qilgan. Otaliqning mavkei Subxonqulixon davrida ham baland bo'lib, eng muhim harbiy ishlar (masalan, xivaliklarning Buxoroga taxdidini qaytarish, Xuroson yurishi) otaliqqa yuklatilgan.

► "Ubaydullanoma" asarida otaliqqa "umdat al-umaro", ya'ni "butun amirlar tabaqasining tayanchi" degan ta'rif berilgan. Abulfayzxon davridagi otaliq mansabida bo'lgan Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiylar juda katta mavqeiga ega bo'lib, ular oxir-oqibat sulola vakillaridan hokimiyatni butunlay tortib olishga muvaffaq bo'ldilar.

► Ashtarxoniylar, xususan Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrlarida **qo'shbegi** lavozimidagi amaldorlarning ham mavqei o'sgan. Aniqrog'i shu mansabdagi shaxsning mavqei ko'tarilishi bilan u egallab turgan lavozimning ham ahamiyati yuksalgan. Bu davrda qo'shbegi boshi "amirlarning eng ulug'i" edi.

► Bu davrda Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo'lib, uni taxt vorisi boshqarar edi. Rasmiy darajadagi davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib - **markaziy** va **mahalliy boshqaruv** tizimiga ega edi.

► Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunishi belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turishi, xon farmoniga ko'ra, harbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishdan iborat bo'lgan xolos.

► Ko'p hollarda o'zlarini markaziy hokimiyatdan mustaqil deb hisoblagan viloyat amirlari va hokimlari ham o'z boshqaruv tizimiga va harbiy kuchlariga ega bo'lgan.

► Bu davrda amaldorlar toifasiga kirgan shaxslar o'z egallab turgan lavozimlaridan ma'suliyatli vazifalaridan tashqari siyosiy jarayonlar va harbiy yurishlarda ham ishtirok etganlar. Misol uchun, manbalarga ko'ra, 1722 yilda Vobkent ostonasidagi Muhammad Hakimbiy otaliq boshchilik qilgan

Abulfayzxon va Samarqand hokimi Rajab Sulton qo'shinlari bilan bo'lgan to'qnashuvda devonbegi, qo'shbegi, parvonachi, dodxoh, miroxo'r, eshikog'aboshi, to'qsabo, dasturxonchi kabi mansabdorlar ham ishtirok etganlar

Bu davrdagi boshqaruvda dunyoviy lavozimdagi amaldorlar bilan bir qatorda **diniy lavozimdagi** amaldorlarning ham mavqei baland bo'lgan. Boshqaruv tizimida yirik din peshvolari **xojalar** va diniy mansab egalari bo'lmish **shayxulislom, sadr, qozi kalon** va boshqalar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ilgarigi davrda bo'lgandek, bu davrda ham davlat boshqaruvida

Jo'ybor xojalarining mavqei baland bo'lib, asosiy diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlangan. Buxoro shayxulislomi ham Jo'ybor shayxlari orasidan tayinlanib, Abulfayzxon davrida bu lavozimni Xoja Yahyoning o'g'li Muhammad Hakim Xo'ja egallagan.

Shayxulislom jamiyatda juda katta rol o'ynagan bo'lib, nafaqat diniy, balki barcha ishlar bo'yicha hukmdorning doimiy maslahatchisi bo'lgan. Har bir viloyatning o'z qozisi bo'lib, ular diniy, oilaviy, vorischilik hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiqqanlar.

Harbiylar uchun ham alohida qozilar bo'lib, ular **qoziyi-askar** deb atalgan

Mavjud manbalarda Buxoro xonligi bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shahrisabz, Farg'ona amalda yarim mustaqil boshqarilib Buxoroga nomigagina tobe hisoblangan. Avvalgi davrda bo'lganidek, ashtarxoniylar davlati viloyatlar, tumanlar va boshqa ma'muriy birliklarga bo'lingan

So'nggi ashtarxoniylardan bo'lgan Abdulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyat zaiflashganligidan foydalangan o'zbek urug'lari turli viloyatlarda hokimiyatga qarshi isyon va g'alayonlar ko'tarishib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qila boshladilar. Ular orasida ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan, mang'it urug'i boshliqlardan biri Muhammad Hakimbiy otaliq (vafoti 1743y) hamda uning o'g'li Muhammad Rahimbiyning harakatlari ayniqsa keskin edi. Buxoroda bo'lib o'tayotgan tartibsizliklardan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1745 yilda Muhammad Rahimbiy rahbarligida Buxoroga katta qo'shin jo'natdi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda viziyaning yumshatish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Miyonqol va Shahrisabzdagi qo'zg'olonlar bostirildi. Muhammad Rahimbiy davlat apparati tizimi ishlari va hukumat amaldorlarini almashtirish ishlariga jiddiy kirishdi..

► U deyarli barcha yirik davlat mansablariga o'zining yaqin qarindoshlari va maslakdoshlarini qo'yib, ularning yordamiga tayanib poytaxtda o'z mavqenimustahkamlab oldi. 1746 yilda Nodirshoh o'ldirilgach, oradan ko'p o'tmay Abdulfayzxon ham o'ldirildi. Taxtga o'tirgan Abdulmo'min ham 1748 yilda o'ldirildi. Uning o'rniga nihoyatda yosh bo'lgan Ubaydulla Sulton nomigagina taxtga o'tqazildi.

► 1753 yilga kelib yirik amaldorlar, ruhoniylar va urug' oqsoqollarining roziligi bilan Muhammad Rahimxon (1753-1758yy) taxtga o'tirdi va mang'itlar sulolasi hukmronligini boshlab berdi.

► Muhammad Rahimxon markazlashgan davlat tizimi tuzish siyosatini olib bordi. U yirik mulkdorlarni davlatni boshqaruv ishlariga aralashtirmay, mustaqil siyosat yurgizdi. Bu hukmdor Miyonqol, Nurota, Urgut, Kobadiyon, Boysun kabi markaziy hokimiyatni tan olmagan viloyatlarga yurishlar qilib, ularni bo'ysundirishga erishdi

► . Uning davrida Zarafshonning yuqori oqimi, Jizzax, Zomin yana Buxoroga qo'shib olindi. Muhammad Rahimxon qisqa muddat ichida juda katta hududni birlashtirgan mang'itlarning markaziy davlat tizimini barpo etdi. 1758 yilga kelib Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx, Qunduzdan elchilar kelib uning hokimiyatini tan olganliklarini bildiradilar. Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng uning balog'atga yetmagan nabirasi Fozilto'ra taxtga o'tqazilib, hokimiyat aslida Muhammad Rahimxonning tog'asi Doniyolbiy otaliq (1750-1785 yy) qo'liga o'tdi. Doniyolbiyning hukmronligi davri markaziy hokimiyatning zaiflashuvi bilan izohlanadi. U taxtga o'tirgan dastabki paytdayoq markazlashgan davlat siyosatiga qarshig'alayonlar va qo'zg'olonlar ko'tarildi. Miyonqol vohasi, Shahrisabz va Kitob, Sherobod va Boysun, Hisor viloyatlarida katta-katta xalq g'alayonlari vachiqishlar boshlanib ketdi. Dastavval, Hisorga badarg'a qilingan yuz,

kenagas, burkut, bahrin, saroy kabi o'zbek urug'larining amirlari bosh ko'tardilar. Ular mang'itlar sulolasini taxtdan ag'darishni rejalashtirgan edilar. Doniyolbiyning amirlarni tinchlashtirish uchun qilgan harakatlari zoye ketdi. Shundan so'ng Doniyolbiy qo'zg'olonlarga qarshi qo'shin jo'natdi va Buxoro shahri aholisining yordami bilan qo'zg'olon bostirildi. Isyonchi amirlarning ko'pchiligi qatl etildi. Oradan ko'p o'tmasdan yuz urug'larining boshlig'i Fozilbiy bosh ko'tardi. Doniyolbiy qiyinchilik bilan bo'lsa-da bu qo'zg'oloni ham bostirdi. Ayniqsa, 1771 yilda Shahrisabz va Xuzorda ko'tarilgan qo'zg'olon davlat asoslarini jiddiy larzaga sodi. Bu qo'zg'oloni ham katta kuch sarflab bostirishga erishgan Doniyolbiy qo'zg'olonchilar rahabarlarini qatl ettirdi. Mamlakatda g'alayonlarning deyarli to'xtovsiz ko'tarilib turishi markaziy hokimiyatning obro'sini, qudratini tushirib yubordi. Mamlakatning iqtisodiy ahvol ham nochor holatga tushib qoldi. Natijada 1784 yilda poytaxt Buxoroda ham qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, Doniyolbiy 1785 yilda taxtni o'g'li Shohmurodga topshirishga majbur bo'ldi

► Shohmurod taxtga o'tirganidan so'ng **“amir”** unvoni bilan hokimiyatni boshqaradi (1785-1800 yy.). U o'z hukmronligi davrida shaharlar taraqqiyoti va obodonchiligiga, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi rivojiga alohida e'tibor berdi. Tarixda **“Amiri ma'sum”** (**“Gunohsiz amir”**) nomi bilan qolgan Shohmurod o'z davrida markaziy hokimiyatni nisbatan mustahkamlashga erishdi. Uning hukmronligi davrida mamlakatni rivojlantirishga yo'naltirilgan to'rtta muhim islohot- **moliya, sud, ma'muriy va harbiy** islohotlar o'tkazildi. Avvalo, 1758 yildan boshlab, amirlikda to'la holatda (aralashmalarsiz) kumushdan iborat bo'lgan kumush tangalar, oldingilaridan o'zining qiymati, sifati va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalar zarb etila boshlandi. U davlat zarbxonalarida aholining o'z shaxsiy jamg'armalaridan olib kelgan kumush va oltindan bir xil o'lchamdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishga keng ruxsat berdi

Amir Shohmurod o'tkazgan islohotlari

- adliya sohasida o'tkazgan islohoti bilan mamlakatda sud ishlarini olib borishni birmuncha erkinlashtirdi. Manbalarga ko'ra, amirlikdagi sud hay'ati ishlarini Shohmurodning bevosita o'zi boshqargan.

- Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan bo'lib, barcha viloyat, tuman, beklik qozilari aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borganlar

- Umuman olganda, amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan islohotlar mamlakatdagi markaziy hokimiyatni mustahkamlab, iqtisodiy yuksalishni ta'minlagan edi

- Shuningdek, soliqlarning taribga solinishi, sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishi, mahalliy amaldorlar ustidan nazorat o'rnatilishi – savdo-sotiq va hunarmandchilikning, qishloq xo'jaligining yuksalishiga sharoit yaratib bergan edi.

- Shohmurod o'zi idora etib turgan markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash sohasida ham ma'lum ishlarni amalga oshirdi. Uning davrida ham amirlikda bir nechta urug'lar va ayrim viloyatlarning noroziliklari sodir bo'lib turgan edi. Xususan, 1786 yilda Karmana sarhadi aholisi Buxoro amiriga bo'ysunishdan bosh tortdi.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar va muvaffaqiyatli harbiy harakatlar natijasida ancha mustahkamlanib olgan Shohmurod qo'shni Afg'onistonga ham harbiy yurishlar uyushtiradi.

Xususan, Shohmurod Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi ilgarigi Buxoro yerlarini

qaytarib olish uchun Afg'on amiri Temurshohga qarshi urushlar olib boradi. Bu urushlardan so'ng Shohmurod va Timurshoh o'rtasida sulh tuzilib, Amudaryo har ikkala davlat o'rtasidagi chegara deb belgilandi.

Amir Shohmurod 1800 yilda vafot etganidan so'ng uning o'g'li amir Haydar (1800-1876 yy.) valiahd sifatida taxtga o'tirdi. Otasi davrida Qarshining hokimi bo'lgan amir Haydar oq kigizga o'tqazilib xon etib ko'tariladi. Ammo, Haydar xon unvonini emas, balki "amir al-mo'minin" unvonini oldi. Manbalarga ko'ra, xutba amir Haydar nomiga o'qilgan bo'lsa-da, tangalar amir Haydar, amir Shohmurod va Doniyolbiy nomlaridan zarb etilgan

Otasining siyosatini davom ettirishga harakat qilgan amir Haydar o'z hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro hududining butunligini saqlash, Zarafshonning yuqori oqimi hududlari, Shahrisabz, Miyonqol yerlarini qo'lda saqlab qolish uchun kurashlar olib bordi. O'ratepani vaqtincha o'ziga bo'sundirishga erishdi.

► Amir Haydar davrida Xiva xonlari amirlik hududlariga tez-tez talonchilik urushlari qilib turdilar. 1806 yilda amir Haydar butun Buxoro ahlini qurollanishga va Xiva xoni Eltuzarga qarshi kurashishga chaqirdi hamda ularni mag'lubiyatga uchratib, amirlik hududlaridan haydab chiqarishga erishdi.

► Bu urushlardan so'ng Buxoro bilan Qo'qon o'rtasida urushlar boshlanib ketdi. Qo'qon xoni Olimxon 1807, 1810 yillarda O'ratepaga hujumlar qilib, katta o'ljalarni Qo'qonga olib ketdi. Bunday hujumlar Qo'qon xoni tomonidan Jizzax va Zominga ham uyushtirilib turildi.

► Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari katta xarajatlarni talab etganligi bois, amir Haydar qo'shimcha soliqlar yig'ish haqida farmon berdi. Bu esa mehnatkash aholi ahvolini yanada og'irlashishga va amir Haydar hamda u olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlarga olib keldi. Mana shunday qo'zg'olonlar 1821-1825 yillarda Miyonqol, Samarqand va Urgutda bo'lib o'tdi.

► Amir Haydar bu qo'zg'olonlarni katta qiyinchiliklar bilan, qo'zg'olonchilarga katta va'dalar berish evaziga bostirishga erishdi. Shahrisabz va Marv vohasi uchun ham Amir Haydar urushlar olib borishga majbur bo'ldi.

► O'z davrida Amir Haydar qo'shni Afg'on davlati hukmdori Shujo' al-mulk Durroniy bilan do'stlik aloqalarini o'rnatgan bo'lsa-da, Qo'qon va Xiva davlatlari bilan Buxoro davlati o'rtasidagi munosabatlar keskin edi.

► Manbalarga ko'ra, shunday sharoitda amir Haydar hatto Turkiya sultoni Mahmud II ga yordam so'rab murojaat etgan va uning itoatiga o'tishga tayyor ekanligini ham ma'lum qilgan.

► Amir Haydar 1826 yilda vafot etganidan so'ng uning ikkita katta o'g'illari amir Husayn (ikki yarim oy) va amir Umar (to'rt oy) qisqa muddat taxtga o'tirib, o'z ukalari Nasrullo tomonidan o'ldiriladilar. Shundan so'ng taxtga amir Haydarning uchinchi o'g'li Nasrullo o'tirdi.

► Amir Nasrulloning hukmronlik davri (1826-1860 yy.) avvalo, Buxoro amirligidagi siyosiy tarqoqlik, zodagonlarning boshboshdoqliklariga barham berish bilan izohlanadi. Amir Nasrullo hokimiyatni boshqarishda nihoyatda qattiq qo'llik siyosatini olib bordi. O'zining berahmlik siyosati tufayli amir Nasrullo "qassob amir" degan nomga sazovor bo'lgan edi.

► Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni tan olmaydigan bo‘ysunmas mahalliy hokimlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Bu borada Shahrisabz Buxoroga bo‘ysunmay qo‘ygan eng yirik mustaqil viloyat hisoblanardi. Shuning uchun ham amirning siyosatidan naroz bo‘lgan ko‘plab amaldorlar Shahrisabzga qochib panohtopganlar.

► Amir Nasrullo 1832 yilda Shahrisabzga qarshi urush boshlab, 32 marta yurishdan so‘ng 1852 yilda Shahrisabz va Kitobni bo‘ysundirishga erishadi.

► Amir Nasrullo Qo‘qon va Xiva xonlari bilan ham urushlar olib bordi. U 1842 yilda Qo‘qonga yurish qilib uni egalladi. Ammo, bu paytda Xiva xoni Olloqulixon Buxoro chegaralariga hujum qilganligini eshitgach, Qo‘qonga o‘z noibini qoldirib orqaga qaytishga majbur bo‘ldi. Amir Nasrullo o‘z qo‘shinlari bilan Xivaga yurish qilib, Xazoraspn qamal qildi. Ammo, mag‘lubiyatga uchrab qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

► Amir Nasrullo o‘z hukmronligi davrida O‘ratepa va Xo‘jand uchun Qo‘qon xoni bilan to‘xtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qo‘lda-qo‘lga o‘tib ko‘pgina vayronagarchiliklar kelib chiqdi, talon-talojlik avj oldi.

► Manbalarga ko‘ra, Qo‘qondan Keshgacha bo‘lgan barcha mamlakatlarni bo‘ysundirgan amir Nasrullo Buxoroning amaldagi oxirgi mustaqil hukmdori bo‘lib qoldi

► Amir Nasrullodan so‘ng taxtga uning o‘g‘li amir Muzaffar(1860-1885 yy.)o‘tirdi. U mang‘itlar sulolasidan bo‘lgan to‘rtinchi amir bo‘lib, uning 25 yillik hukmronlik davrida juda ko‘p voqealar sodir bo‘ldiki, ulardan eng ayanchlisi – Buxoro amirligining Rossiya imperatori vassaliga aylanishidir.

► Amir Muzaffar o‘z hukmronligining dastlabki yillarida ulamolarga deyarli e‘tibor bermadi, ular bilan biror-bir masala yuzasidan maslahat ham qilmadi. Ammo, 1868 yilda amir ruslardan mag‘lubiyatga uchragach, ulamolarga yon berishga majbur bo‘ldi. Chunki ulamolar mahalliy aholini ruslarga qarshi kurashishga da‘vat etgan edilar. Lekin fursat qo‘ldan boy berilgan edi.

► Ulamolarning xalqni ko‘tarishi ham, amirning o‘g‘li Katta To‘ra (Abdumalik), Kitob va Shahrisabz beklarining sa‘y-harkatlari ham besamar ketdi. Zirabuloq yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchragan amir Muzaffar ruslar tomonidan tuzilgan shartnomaga imzo chekishga majbur bo‘ldi.

► Unga ko‘ra amir O‘ratepa, Jizzax, Zarafshon vohasi hududlaridan mahrum bo‘ldi, rus hukumatiga 125 ming tillo miqdorda tovon to‘laydigan bo‘ldi hamda Buxoroning Rossiyaga vassalligini tan oldi.

Amir Muzaffar o‘g‘li Abdulahadni taxt merosxo‘ri deb e‘lon qildi vao‘sha yili uni Rossiya imperatori Aleksand Aleksandrovichning taxtgao‘tirish marosimi tantanasiga qatnashish uchun Moskvaga jo‘natdi. PodshoAleksandr III ga Buxoro yulduzi ordeni topshirildi va Abdulahad haqiqiytaxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan tasdiqlandi. 1883 yilda esa amirMuzaffar Rossiya imperiyasining I-darajali Muqaddas Anna ordeni bilantaqdirlandi. Arxiv ma‘lumotlariga qaraganda, bu mukofotni Buxorogaimperiyaning nufuzli amaldorlaridan biri – general-mayor, knyazVitgenshteyn boshchiligidagi maxsus elchilar guruhi olib kelgan. Amir Muzaffar 1885 yil 31 oktyabrda kasallik tufayli vafot etadi. Uning o‘g‘li amir Sayyid Abdullahad 1885-1910 yillar Buxoro amirligi taxtini boshqardi. Abdulahad 14 yoshidan boshlab Karmana beki etib tayinlangan. Rus sayyohlarining ma‘lumotlariga ko‘ra u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885 yil 4 noyabrda amir Abdulaxadni Buxoro arkida oq kigizga o‘tirg‘izib, taxtga o‘tqazish marosimi

bo‘lib o‘tdi.

Amir Abdulahad sayohat qilishni yaxshi ko‘rgan. U turli yillarda Moskva, Sankt-Peterburug, Kiyev, Odessa, Yekaterinaslov, Boku, Tiflis, Botumi, Sevastopol, Bog‘chasaroy kabi shaharlarda bo‘lgan. Uning hukmronligi davrida qiynoqlar, o‘lim hukmi va eng dahshatli jazo, Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulahad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yo‘llari qurilishi, savdo faol rivojlantiriladi. Abdulahad amirlikdagi harbiy kuchlarga alohida e‘tibor bergan.

.1895 yildan boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Keyinchalik ham amir Abdulahad o‘z qo‘shinini harbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko‘pgina ishlarni amalga oshirgan. Amir Muzaffar 1910 yil 22 dekabrda buyrak kasalidan vafot etgach 1911 yil yanvarda uning ikkinchi o‘g‘li Sayyid Mir Olim taxtga o‘tiradi. Olimxon 1893-1896 yillarda Peterburgda ta‘lim olgan. Undan so‘ng avval Nasaf viloyatiga, keyin esa Karmanaga hokimlik qilgan. 1911-1920 yillar Buxoro taxtini boshqargan amir Olimxon Buxoroda sovet hukumati o‘rnatilgach Afg‘onistonga chiqib ketdi va 1944 yil Qobulda vafot etdi

1. Amirlikning hududi, ma‘muriy tuzilishi va aholisi

O‘rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqeiga ega bo‘lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga ko‘ra, XVIII asrning o‘rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu davrda Buxoro hukmdorlari o‘z tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Vobkent, G‘ijduvon, Qorako‘l, Vag‘oza tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qololgan edilar. Xo‘jand, Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa G‘uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek Amudaryoning o‘ng sohilidagi Balx, Andxay, Maymana, Badaxshon va Shibirg‘onlar ham Buxoroga vassal bo‘lishiga qaramay unga itoat etmay qo‘yganlar. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi – so‘nggi ashtarxoniyalar davridagi o‘zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeining o‘sishi edi.

► XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya‘ni mang‘itlar sulolasi hukmronligi o‘rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o‘z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi.

► XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surhon vohasi, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo‘ydan to Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan hududlar kirar edi.

► Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang‘itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg‘oniston, ikkichi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to‘rtinchi tomondan Qo‘qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi

► Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mahalliy ma‘muriyat namoyondalari **mavzeni** qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy bo‘linma deb ta‘riflanganlar. Misol uchun, Karki viloyati **mavzelarga** bo‘linsa ham ular o‘z navbatida **bekchalarga** bo‘lingan, bekcha **qishloqlardan** iborat bo‘lgan.

► Pomir viloyatlaridagi Ro'shon va Shug'onon ma'muriy tumanlari **oqsoqollik** deyilgan. Aholi yashaydigan punktlar manbalarda uchta atama- **qishloq, mavze, daha** nomlari orqali qayd etilgan.

► Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez ko'paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln. dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5 mlndan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqanda shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

► Amirlik aholisning katta qismini o'zbeklar tashkil qilgan bo'lib, juda ko'plab o'zbek urug'lari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashaganlar. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog'li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko'lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog' bekliliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilganlar

► Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etganlar. Ular amirlikka qarashli bo'lgan Amudaryoning ikki qirg'og'ida joylashgan yerlarda, ya'ni, amirlikning janubiy va g'arbiy hududlarida istiqomat qilishgan. Buxoro amirligi hududida aholining kichik qismini arablar tashkil etgan bo'lib, ular asosan Qarshi va Sherobod bekliliklarida yashaganlar..

► Shuningdek amirlik hududida hindlar, eroniylar, yahudiylar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham istiqomat qilganlar.

► Buxoro amirligida istiqomat qilgan nomahalliy xalqlar, jumladan hindlar va yahudiylar ijtimoiy qatlam sifatida to'la huquqqa ega emas edilar va ular alohida mavzelarda yashaganlar.

► Amirlikda o'troq aholidan tashqari tog' oldi va dasht hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham yashagan.

► **Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi:** Turkiy xalqlar 85.0 %, ya'ni 1.830.254; Eroniy xalqlar 12.0%, ya'ni 258.389; Boshqa elatlar 3.0 %, ya'ni 64.597 Jami 100.0 %, ya'ni 2.153.240 nafarni tashkil etgan.

3. Davlat boshqaruvi tizimi. Buxoro amirligida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'itlar sulolasining vakillari hukmronlik qiladilar. Sulola hukmronligining asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy biroz muddat (1747 yildan keyin) Abdulfayzxonning o'g'illariga otaliq bo'lgan bo'lib, 1756 yilda sayidlar, xo'jalar va ruhoniylar tomonidan Buxoro taxtiga o'tqaziladi. Rahimbiy xon unvonini olmasdan o'zini "**noib ul-hukumat**" ("**hokim o'rinbosari**") deb bilgan. Doniyolbiy otaliq ham

xonlikka da'vo qilmay avval Fozilto'rani, keyin esa Abdulg'oziy (1758-1784 yy.) xon deb e'lon qilib, o'zi ularga noib hisoblangan. Shohmurod 1785 yilda Buxoroda "**amir**" unvoni bilan taxtga o'tiradi.

Buxoro amirligining siyosiy tizimi, idora etish tartib-qoidalari, davlat ramzlari, unvon va mansablar haqida ko'pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, mang'itlar hukmronligi davrida davlat tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmagan. Bu davrda oliy hukumdor garchi amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo'lsa-da, Buxoro amirligi ham o'ztizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan, o'rta asrlar Movarounnahrdaagi musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxoniylar davlat tizimidan deyarli farq

qilmagan. Buxoro amiri Sayyid Olimxon o'zining "Buxoro xalqining hasratitarixi" asarida Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlar hamda davlat boshqaruvi haqida ma'lumotlar berib, jumladan quyidagilarni yozadi: "Buxoro amirlari hukm yuritishlarida – shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi-o'rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardilar edi.

Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzish mumkin emas edi. Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podshohlarini o'zbek odatlariga ko'ra, to'shakcha ustiga tabarrukona o'tqazib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'taradilar. Buxoro mamlakati 28 ta viloyat (bog'ot)ga bo'linardi. Eng katta viloyatlarga amirning o'zi hokimlarni tayinlardilar edi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako'l, Boysun, Hisor, Dehnov, Qo'rg'on, Boljuvon, Ko'lob, Qubodiyon, Darvoz, Ro'shon, Samarqand, Miyonqol, Farob, Urmeton va Maschohlar kirardi. Valiahdga qarashli mulk qarshi hisoblanardi edi."

Zaruratga qarab mamlakat poytaxtida amir boshchiligida **Davlat Kengashi** chaqirilib turildi. An'anaga ko'ra, lavozimlariga qarab 5 tadan 20 tagacha amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengashda mamlakat hayotiga doir eng muhim masalalar ko'rib chiqildi.

Ilgarigi davrlarda bo'lagani kabi mang'itlar davrida ham davlat boshqaruvi tizimi ikki bo'g'in – **markaziy** va **mahalliy boshqaruv** tizimidan iborat bo'lgan. Bu tizimlar musulmon davlatlariga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega bo'lgan hamda asosan amir, saroy amladorlari, o'zbek urug'lari va qabila boshliqlari, ulamolar, harbiy boshliqlardan tashkil topgan. Amirlikdagi markaziy hokimiyat amir boshchiligidagi saroy a'yonlari qo'lida bo'lsa, mahalliy boshqaruv viloyat noiblari qo'lida edi. Viloyat beklari amir tomonidan asosan mang'it urug'ivakillaridan tayinlangan.

Amirlikning poytaxti Buxoro va uning atrofidagi tumanlar amir tomonidan boshqarildi. Viloyat beklari nisbatan kichik hududiy bo'linmalar amlok mulklar hisoblanib, ularning boshqaruvchilari **amaldor** deb atalgan. Amirlikning ma'muriy tuzilishidagi eng quyi bo'g'in qishloq jamoalari bo'lib, ularni oqsoqollar boshqargan. Xullas, Buxoro amirligirus istilosiga qadar hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining katta qismini o'z ichiga olgan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi.

Manbalar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan unvon, mansab hamda amallarga oid ma'lumotlar juda chalkash, ko'p hollarda bir-birini inkor etadi. So'nggi yillarda Sh.Vohidov va R. Xoliqovalar o'z tadqiqotlarida ushbu masalalarga aniqlik kiritishga harakat qilganlar. Quyida ularning tadqiqotlariga asoslanib amirlikdagi mansablar va unvonlar haqida so'z yuritamiz.

Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo mang'it urug'ivakillariga, sayyidlarga, xo'jalarga hamda ulamolarga berilgan bo'lib, davlatdagi eng yuqori unvon **amir ul-umaro, otaliq, hokim (valiy, bek), qo'shbegi va devonbegilar** bo'lgan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Oltin O'rda davlatida joriy etilgan **otaliq** unvoni mang'itlar davriga kelib otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy vama'muriy ishlarda asosiy vakiliga aylandi. Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining tasimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (rud-i shahr) va dorug'alik vazifasi yuklandi.

Budavrda **qo'shbegi** yoki **qo'shbegiyi bolo** eng oliy saroy mansab hisoblanib uning

mavqei juda baland bo'lgan. Amalda bosh vazir vazifasinibajargan bu mansab egasi iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar bo'yicha amirning eng yaqin odami bo'lgan. Saroydagi oliy mansablardan yana biri **devonbegi** bo'lib, bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo'lgan. Devonbegimoliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yig'ish ustidan to'lanazorat qilish ishlariga javob bergan. Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida o'rin egallagan. Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Shahardagi jamoat tartibini saqlash **mirshablarga** topshirilgan bo'lib, ular shahar **mirshabboshisiga** bo'ysunishgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga boshqabarcha shaharlar mirshabboshilari bo'ysungan. Mang'itlar davrida Buxoroda **qo'shbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi** birgalikda "**chor hokim**",

ya'ni, "**to'rt hokim**" deb yuritilgan. Amirlikning boshqaruv tizimida **bosh rais** alohida ahamiyatga egabo'lgan. Ushbu amal yarim diniy, yarim targ'ibotchi usulida edi. Amirlikdabosh rais odatda **eshon rais** yoki **rais-ush shariat** deb atalgan bo'lib unga barcha mahalliy raislar bo'ysungan. Bosh rais ularni vaqti-vaqti bilan amir oldida tekshiruvdan o'tkazib turgan.

Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud bo'lgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi **parvonachi**, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi **hidoyachi**, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni ko'tib oluvchi **shig'ovul**, amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi **tongotar(tunqator)**, amirga qaratilgan salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi javobgar **salom og'asi**, amir

XVIII-XIX asrning birinchi yarmida amirlikda eng oliy diniy mansab **shayxulislom** hisoblangan. Ammo, bu davrda uning vazifalari ancha toraygan

edi. XIX asr o'rtalaridan boshlab shayxulislom o'rnini **qozikalon** egallaydi. Yuqorida eslatilgan amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais qatnashgan.

Amir Muzaffar davridan boshlab amirlikdagi barcha huquqiy normalar qozilar tomonidan hal qilingan. Barcha fuqarolik, xo'jalik vajinoiy ishlar Qur'on asosida ko'rib chiqilgan hamda jazolar tayinlangan. Qozilar amir irodasiga ko'ra qozikalon tomonidan tayinlangan. Shariat bo'yicha boshqaruv qozilar qo'lida bo'lgan. Qozikalon amirlik poytaxtining bosh qozisi bo'lishi bilan birga, davlatdagi boshqa qozilar boshlig'i hisoblangan. dasturxoniga javobgar **dasturxonchi**, amir safari chog'ida nomozga chorlovchi **imomi jilov**, amir safari chog'ida qonun bilan shug'ullanuvchi **mufti jilov**, amir maslahatchilari guruhi **jam'og'a** kabilar shular jumlasidan. Amirga bo'lgan sadoqati va xizmati uchun alohida shaxslar **dodhoh, inoq, to'qsabo, otaliq, eshikog'asi** kabi unvonlarga ega bo'lganlar.

Amirlikda rasman uchta diniy unvon – **o'roq, sudur va sadr** mavjud bo'lgan. Manbalarga ko'ra, madrasani tugutgan shaxs **mulla, qozi, rais** amallarini egallashi mumkin bo'lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlagnidan so'ng shariat huquqlari sohasida to'plagan bilim va tajribalari asosida bunday shaxslarga dastlab o'roq, keyin sudr va so'ngra sadr unvonlari berilgan. Eng oxirgi diniy unvoni bo'lgan shaxslar **qozikalon, muftiy, a'lam, oxun** kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo'lgan.

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masalalar bilan shug'ullanuvchi maxsus amaldor-**qozi askar** ko'rib chiqqan. Harbiy

jinoyatlar bo'yicha fatvo tayyorlash **muftiy askar** zimmasida bo'lgan. Demak, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Amir Nasrullo davrida amirlikda muntazam qo'shin – sarbozlar qo'shini tashkil etilgan. Eng yuqori harbiy unvonlar **sarkarda, amiri lashkar, dodxoh(qo'shin boshlig'i)** kabilar bo'lib, **qo'ronbegi, to'qsabo, mingboshi** kabi oliy toifali harbiy amaldorlar ham faoliyat yuritgan. Bekliklar hududidagi qo'shinga beklarning o'zlari rahbarlik qilganlar. Bekning eng yaqin yordamchilari **yasovulboshi** boshchiligidagi yasovullar bo'lgan. Qo'shinda **ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o'nboshi, miroxo'r** kabi bo'linma boshliqlari ham bo'lgan. Ming boshi bayroq(tug') ko'tarib yurish huquqiga ega edi.

2. Xiva xonligining hududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi

Xonlikning aniq chegaralari haqida ma'lumotlar saqlanmagan. XIX asrga kelib xonlik tarkibiga turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning qo'shilishi natijasida davlat sarhadlari ancha kengaydi.

Manbalarga ko'ra, Eltuzarxon (1804-1806 yy.) davrida xonlikning xududi uncha katta bo'lmasdan, shimoliy chegarasi Orol-Qo'ng'irot hokimligi, janubiy chegarasi esa Darg'onota bilan chegaradosh bo'lgan. XIX asr o'rtalariga oid rus manbalarida xonlikning g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha, janubda esa Marv vodiysi orqali Eronga tutashib ketganligi, shimolda esa Ural daryosigacha cho'zilganligi qayd etilgan.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI-XVIII asrlarda **viloyatlarga** bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy hududlar **beklik** deb atalgan. Manbalarga ko'ra, bu davrda xonlikda 16ta bekklik va 2ta noiblik mavjud edi. Ular Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Kuhna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, Qiyot, Shobboz (Shohabboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Shumanay va Qo'ng'irot bekkliklari hamda Beshariq va Qiyot-Qo'ng'irot noibliklaridir. Ularni xon tomonidan ayinlangan **beklar** va **noiblar** boshqarganlar.

► Xiva shahri boshqaruvi xon va bosh vazir ixtiyorida bo'lgan. Xonlikning poytaxti turli davrlarda Vazir, Kat, Ko'hna Urganch, Xiva shaharlari bo'lgan. Muhammadxon Rahimxon I (1806-1825 yy.) xonlikning ma'muriy boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Bekliklarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligini hisobga olib, Muhammadxon Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va manbalarga ko'ra, xonlikda avval 15ta hamda keyinroq yana 11ta **hokimlik** tashkil etdi.

► Bular quyidagilar edi: Xazorasp, Ostona, Urganch, Kat, Toshhovuz, Qo'shko'prik, Oqdarband, Gurlan, Ko'k qashqa, Qo'ng'irot, Ko'hna Urganch, Ilonli, Taxta, Xonqa, Shobboz, Manoq, G'ozibod, Shayx, Mang'it, Xo'jayli, Shumanay, To'rchi, Oqtepa, Qorag'on, Xitoy.

► Hokimliklar o'z navbatida **masjid-qavmlarga** bo'lingan. Manbalar xonlikda jami 1537ta masjid-qavmlar bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.

► Viloyat hokimlari xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan.

Shunday qilib, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi. Xiva xonligining o'troq dehqonchilik vohalarida asosan o'zbeklar yashab, ular davlatdagi aholining katta ko'pchiligini tashkil etganlar. Xonlikda

shuningdek, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, kam miqdorda tojiklar, yahudiylar, hindlar, eroniylar, ruslar, armanlar, nemislar ham yashaganlar. Xiva xonligidagi aholining umumiy soni haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Arxiv hujjatlari va rus sayyohlarining ma'lumotlari bu masalaga qisman aniqlik kiritadi. Xususan, XIX asrning birinchi choragiga oid ma'lumotlarda xonlik aholisi 300 ming, shu asrning 40-yillariga oid ma'lumotlarda 300 mingga yaqin, so'nggi choragiga oid manbalarda 700 mingga yaqin deb berilsa, arxiv manbalarini chuqur o'rgangan olim M. Yo'ldoshev XIX asr o'rtalarida xonlikda 800 mingga yaqin odam istiqomat qilganligi haqida ma'lumot beradi. XIX asrning o'rtalariga kelib xonlikda shahar hayotining rivojlanishi natijasida shahar aholisining soni ko'payib bordi. Xiva, Xazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'ng'iro't, Ko'hna Urganch kabi shaharlarda rus sayyohlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2 mingdan 5 mingga xonadon yashagan. Xonlik poytaxti Xiva shahrida 21 mingdan ortiq aholi yashagan.

► **3.Davlat boshqaruvi tizimi. Mansablar, unvonlar va amallar**

► XVII asrda Xivada muayyan bir sulola hukmdor emas edi. Chingiziylar sulolasiga mansub ba'zi shaxslar Xivaga chaqirilib xonlik taxtiga ko'tarilgan bo'lsa-da, amalda hokimiyat qo'ng'iro't sulolasidan bo'lgan **inoq** qo'lida bo'lgan.

► 1804 yildan boshlab faqat Qo'ng'iro'tlar sulolasi vakillari Xivada xon bo'lganlar.

► Xiva xonligida unvon va mansablarni saroy, harbiy va diniy unvon hamda va amallarga bo'lish mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha (Sh.Vohidov) bu tasnif sof nazariy bo'lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo'yicha berilmagan. O'sha vaqtda amaldor va unvon egasi ko'pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan bir mansabdan boshqa mansabga o'tib, unvonlar sohibiga aylangan.

► Xonlikda eng oliy unvon **xon** bo'lib, u ma'muriy, siyosiy va harbiy vakolatlarga ega bo'lgan. Xiva xonligi davlat tizimida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli o'laroq, xon huzurida Oliy Kengash amal qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu Oliy Kengashni Muhammad Rahimxon I "o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lgan urug' oqsoqollari kengashi o'rniga ta'sis etgan edi. Bu Oliy Kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqini berdi."

► Bu Kengashning vakolati chegaralangan bo'lib, maslahat beruvchi organga o'xshar, uning a'zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar bo'lgan. Kengash majlisida boshqa amaldorlarga qaraganda qo'proq inoq, shayx ul-islom, devonbegi va yasuvulboshi hal etuvchi ovozga ega bo'lganlar.

► Kengash majlislari masalaning muhimligiga qarab, xon tomonidan chaqirilar edi. Oliy Kengash oqsoqollardan, ya'ni, ma'lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi, naqib, shayx ul-islom, mutavvalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo'r kabilardan iborat edi. Shuningdek, xonning qarindosh urug'laridan bo'lgan beklar, otaliq, inoq va biylar ham bu kengashga kirganlar.

► Bu tor doiradagi Kengash garchi davlat tashkiloti sifatida rasmiylashtirilmagan bo'lsa-da, uning qarori xonning qaroridek ko'rsatilsada, amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma'muriy va sud hokimiyati edi.

► Kengash xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar bo'yicha qaror qabul qilar va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabalariga doir muammolarni hal etar edi. Garchi Kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila

olsa-da, muhokama qilingan masalalar bo'yicha qaror chiqarish avvalo xonning xohish – irodasiga bog'liq bo'lgan.

► **Xon saroyidagi unvon va mansablar.** Unvonlar orasida eng kattasi

► **inoq** edi. Odatda inoqlar eng qudratli o'zbek urug'laridan tayinlangan hamda

► hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lgan. Inoqlar yirik amaldor,

► ya'ni urug' boshlig'i hisoblangan. Abulg'ozixon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga o'z yonidan to'rtta joy ajratgan. Inoqlar biy, sulton, mingboshi kabi unvonlarni ham olganlar. XX asr boshlariga kelib inoqlar **bek** martabasiga tushib, oliy saroy amaldorlaridan ma'muriy mansab egalariga aylanadilar.

► **Otaliq** – urug' oqsoqoli. Inoq boshliq to'pa (guruh) ga birlashgan urug' boshlig'i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan.

► **Biy** – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug'ning boshlig'i hisoblanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqollariga beriladigan unvon edi. XVII-XIX asrlarda biylar yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etganlar. Biy unvoni avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan.

► **Amir ul-umaro** – Amirlarning amiri, Xiva xonligida XIX asrning o'rtalarida ta'sis etilgan. Sayid Muhammadxon bu unvonni birinchi marta o'zining akasi Sayid Mahmud to'raga bergan edi. Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida amir ul-umaro uning akasi Fozilbiy edi. O'shandan keyin amir ul-umaro unvoni hech kimga berilmagan.

► **Qo'shbegi** – Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan biri bo'lib, moliya va soliq yig'ish ishlarini bajaragan. Qo'shbegining maxsus devoni hamda unga tobe etuvchi amaldorlari bo'lgan.

► **Mehtar** – katta, ulug' degan ma'noni beradi. Mehtar saroy xizmatkorlarining boshlig'i vazifasini bajarib, xonga yaqin kishilardan va xon urug'iga mansub a'yonlardan tayinlangan. Mehtarning ham o'z devoni bo'lib, yer solig'i "solg'ut" to'plash ham uning xizmatiga kirgan.

► **Beklarbegi** – Qoraqalpoq va ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Beklarbegining vazifasi ularning o'z urug'laridan yig'iladigan xarajatlarning to'g'riligini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdan iborat

► bo'lgan. Bu lavozimga amaldorlar odatda xonning qarindosh-urug'laridan tayinlangan.

► **Bek** - XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida beklar ancha katta rol o'ynaganlar. Bek – xon va davlat arboblarning qarindoshlariga, farzandlariga beriladigan faxriy unvondir.

► **Parvonachi** – xon saroyidagi oliy vazirlardan biri. Parvonachi saroyning ichki va tashqi ishlarida ham faol qatnashishi mumkin bo'lgan. U arzu-shikoyatlarni xonning huzuriga olib kirib, javobini qaytargan. Shuningdek, parvonachi xonning formonlarini saroy a'yonlariga yetkazib turgan.

► **Xonlikdagi harbiy unvonlar va mansablar.** Davlatdagi eng oliy harbiy amaldor xonning o'zi edi. Ko'p hollarda shaxsan xon boshchiligida, ayrim hollarda taniqli sarkardalar boshchiligida boshqa hududga yurishlar uyushtirilgan. Eng yuqori harbiy-ma'muriy lavozim amir ul-umaro edi.

► Undan keyingi rasmiy ravishda yuqori sarkarda **yasovulboshilik** mansabi edi. Xonlikda ular ikki kishi bo'lib, biri yovmud turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdirlarga qo'mondonlik qilar edi. Xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi. Lekin ularxon huzurida bo'ladigan tor kengashda mehtar, qo'shbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, shotirlar, eshikolari itoat etganlar. Yasovulboshidan keyingi harbiy unvon **mingboshi** edi. Harbiy yurishlar paytida mingboshilarga katta ma'suliyat yuklangan. Ya'ni, ular qo'shinni aytilgan yerga to'plashi, ularning tayyorgarlik darajasini nazorat qilishi, jang paytida qo'shinning ma'lum guruhiga yo'l boshchilik qilishi lozim bo'lgan. Shuning uchun ham arxiv hujjatlariga ko'ra mingboshilar yaxshi in'omlar olganlar.

► Xiva xonligida harbiy istehkomlar-qal'alar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular ma'muriy-mudofaviy vazifani bajargan. Bunday qal'alar **kutvol** (qal'abon) qo'lida edi.

► Xiva qo'shinlarida **sarkardalar** muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

► Sarkardalar bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lgan navkarga boshchilik qilganlar. Yurishlar paytida sarkarda boshchiligida tug' (bayroq) qo'taribborilgan. Bayroq ko'tarib boruvchilarga **tug'begi** boshchilik qilgan. Qo'shinda **yuzeboshi, panjshohboshi** (ellikboshi), **dahboshi** (o'nboshi), **qorovul, mahram, navkar** kabi vazifalar bo'lgan.

► Navkarlar soliqlar va turli majburiyatlardan ozod qilinganliklaribois katta yer egalari qattiq himoya qilganlar. Xiva qo'shinida dehqonlardan olinadigan navkarlardan tashqari, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa ko'chmanchi xalqlar askarlari ham bo'lib, ular xonga majburiy ravishda ma'lum miqdorda askarlar berganlar.

XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllanganyangi davlat – Qo'qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo'lgan **ming urug'i** asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniyning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg'ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o'sishi hamda 1704 yilda Chodak xo'jalarining isyon ko'tarib, Farg'onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg'onaning shimoli va shimoli – g'arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo'jalar qo'l ostida bo'lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar. Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669-1670 yillarda tug'ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710 yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi.

► Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan Shohruhbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi.

► Abdurahimbiy 1724 yilda Andijonni, 1725 yilda Xo'jandni, 1726 yilda O'ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo'shib oldi. U qisqa muddat bo'lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo'qon (Xo'qand) qishlog'i o'rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal'ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo'qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.

► 1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy asosiy etiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo‘qonda Isfara, Qatag‘on, Marg‘ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o‘ratib oldi. Shu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jung‘orlar) ning Farg‘onaga qilgan hujumlariga zarba berdi.

► 1822 yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Muhammadalixon (Madalixon) (1822-1842 yy.) o‘tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo‘qon honligining hududi yanada kengayib, qirg‘izlarning ba‘zi tumanlari xonlikka qo‘shib olinadi hamda Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar.

► Manbalarga ko‘ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826-1831 yillar davomida Qashg‘arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg‘ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko‘chirib keltirdi.

► Natijada din peshvorlari Muhammadalixonga “G‘oziy” (“din homiysi”, “din yo‘lida kurashuvchi”) unvonini berdilar. 1840 yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo‘lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrabxon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo‘lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo‘lib, asosiy vaqtini haramida o‘tkaza boshladi.

► Natijada davlatni boshqaruv ishlarida suiste‘molliklardan umumiy noroziliklar boshlanib, xonni ag‘darish uchun fitna tayyorlana boshladi

► Lekin o‘z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko‘zi yetmagan bir guruh Qo‘qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrullo noma yozib, undan yordam so‘rashdi. Qo‘qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo butaklifni tezda qabul qilib, 1842 yil aprelda Qo‘qonni bosib oldi. Qo‘qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammadalixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi.

► Umuman olgan, XIX asrning o‘rtalariga kelib Qo‘qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og‘irlashgan edi. buning sababi **birinchidan**, o‘troq aholi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lgan qipchoqlar hokimiyatni tan olmaganlar. Xonlik hududlaridagi ba‘zi viloyat hukmdorlari Musulmonqo‘lga qarshi chiqdilar.

► **Ikkinchidan**, hokimiyatda yuqori mavqeni egallash hamda xonga ta‘sir o‘tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o‘zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug‘idan bo‘lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan.

► **Uchinchi** sabab esa, qipchoqlarning o‘troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o‘troq aholiga nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarni kamsitganlar.

► **To‘rtinchidan** esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo‘lgan edi.

► Xonlik hududida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873 yilgacha davom etgan bo‘lsa ham, hukmdor, uning yaqinlari va mahalliy hokimlarning jabr-zulmi hamda qirg‘iz-qipchoqlarning qayta bosh ko‘tarishi natijasida bu yerlarda o‘zaro nizolar, xalq chiqishlari boshlandi.

► Bu paytda Namanganda bo'lgan Skobelev Rossiya imperiyasining topshirig'iga asosan 1876 yil fevralda Qo'qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi.

► Shu tariqa, 1876 yil 19 fevralda 150 yildan ko'proq hukm surgan Qo'qon xonligi tugatilib, uning hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etildi.

XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo'qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. “Turkestanskiye vedomosti” (1876, №13) to'plamida esa Asaka, Marg'ilon, Baliqchi O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

► Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o'g'illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o'zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar.

► Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimida **bek (hokim, voliy)** va uning o'rdasi alohida o'rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan **hokim** va **qozi** ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan.

3. Davlat boshqaruvi tizimi. Mansablar, unvonlar va amallar

► O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi.

► Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon **xon** unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo'lida bo'lgan.

► Xonlikning ming qabilasidan bo'lgan hokimlar turli yillarda Shahrisabz, Urgut, Mog'iyon, Urmitan viloyatlari va bekliklarida ham hukm surganlar. Olimxon davrigacha (1798y.) ming urug'i boshliqlari XIX asrning boshlarida **biy** unvoni bilan hokimiyatni boshqarganlar. Olimxon 1805 yilda o'zini rasman xon deb e'lon qildi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810-1822yy.) 1818 yilda o'zini “**amir ul-muslimin**” deb e'lon qildi. 1822 yilda Muhammad Alixon ham hon unvoni bilan taxga O'TIRGAN

► Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullangan Abulg'ozixon tarixchi tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. Taxminan 1657 yilda Abdulg'oz tabobatga oid “Manafi' ul-inson” (“Insonga foydali narsalar”) nomli asarini yozgan bo'lsa, 1658-1664 yillarda “Shajarai turk” nomli tarixiy asarlarini yaratdi.

► Abulg'ozixon hali o'zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o'g'li Anushaxon (1663-1687yy)ga topshirdi va oradan olti oy o'tib vafot etdi. Anushaxon Xiva xonligi mavqei va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro,

Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo'ldi.

► Anushaxonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga bo'lgan munosabat o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi hamda uning atroflariga ko'chib kelishiga ruhsat berdi. 1687 yilda saroy a'yonlari tomonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon o'ldiriladi.

► Taxtga esa uning o'g'li Xudoydod (1687-1688yy) o'tkaziladi. Afsuski yangi hukumdorning xonlik faoliyati uzoq davom etmadi. Ogahiy habarlariga ko'ra, siyosatda bilimdon va xalqa adolatli xon sifatida obro' orttira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon I shahid edi. Ammo, Arangxonning (1689-1690yy.) hukmronligi uzoq davom etmadi. 1690 yilda u Orol o'zbeklari bilan bo'lgan janga halok bo'ldi.

► Muhammadxon Rahimxon I (1806-1825 yy.) xonlikning ma'muriy boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Bekliklarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligini hisobga olib, Muhammadxon Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va manbalarga ko'ra, xonlikda avval 15ta hamda keyinroq yana 11ta **hokimlik** tashkil etdi.

► Bular quyidagilar edi: Xazorasp, Ostona, Urganch, Kat, Toshhovuz, Qo'shko'prik, Oqdarband, Gurlan, Ko'k qashqa, Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch, Ilonli, Taxta, Xonqa, Shobboz, Manoq, G'ozibod, Shayx, Mang'it, Xo'jayli, Shumanay, To'rchi, Oqtepa, Qorag'on, Xitoy.

► Hokimliklar o'z navbatida **masjid-qavmlarga** bo'lingan. Manbalar xonlikda jami 1537ta masjid-qavmlar bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.

► Viloyat hokimlari xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan.

► Shunday qilib, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi.

► Xon avlodlari **xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra** deb atalganlar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo'lib, xonningo'zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lsa-da, ma'lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo'shin boshliqlarining xonga ta'siri kuchli bo'lgan. Bunga Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo'lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844-1852yy.) yoki Aliqulining amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayidxon, 1863-1865 yy.) misol qilib keltirish mumkin. Bu holat xonning siyosiy kuch qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga hamda ma'lum ijtimoiy guruhlarfaoliyatiga bog'liq bo'lgan deyishga asos bo'ladi.

► Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdorbo'lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo'riq yerlar, ko'lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to'ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, xon saroyida **mingboshi** boshchilik qiladigan **Kengash** tuzilgan bo'lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhimamaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi.

Qo'qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798-

1842 yy.) davlat boshqaruvi va davlatchilik ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Tadqiqotchilar ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o'troq xalq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni, o'zaro nizo va urushlarni, xon taxti uchun olib borilgan kurashlarni, Buxoro amiri bilan bo'lgan nizolar va dushmanliklar, saroy amaldorlarining xoinliklari kabilarni ko'rsatadilar. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi

Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab **harbiy, harbiy-ma'muriy, saroy unvon va Mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona** amallariga bo'linar edi Xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar joriy etilgan:

- **Amir ul-umaro** – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo'yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib – intizom kabilar) shaxs bo'lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;

- **Amirlashkar** – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo'qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo'lgan;

Mingboshi – ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan

mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo'lgan. Bu unvon SHERALIXON davrida (1842- 1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan;

- **Botirboshi** – botir bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlariga ham boshchilik qilgan. (Ulug' nahr arig'i, Otabek botirboshi).

- **Qo'shbegi** – harbiy qo'shinning boshlig'i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da'vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin edi.

- **Voli yoki voliy (noib, muovin)** – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma'muriy ishlariga boshchilik qilgan.

- **Qal'abon yoki kutvol** – Qo'qon xonligining chegeralarida joylashgan qal'a va istehkomlarining hokimi bo'lib, shu hududlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo'lgan. Harbiy maqsadga ko'ra, qal'abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlangan.

Qo'rboshi – qo'rxona ya'ni aslahaxona boshlig'i. Bu mansab egasi xon va

mingboshiga itoat etgan. Qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo'lgan.

- **Yofar** – soqchilar boshlig'i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo'lgan. Yofar o'z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g'allagir (g'alla oluvchi), javgir (bug'doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida ham qayd etilgan.

- **To'pchiboshi** – to'pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig'i.

- **To‘qsabo** – o‘zlarining tug‘iga ega bo‘lgan harbiy guruhning boshlig‘i.
- **Ponsadboshi** – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.
- **Yuzboshi** – yuz kishilik harbiy dasta boshlig‘i.
- **Panjohboshi** – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig‘i.
- **Dahboshi** – o‘n kishilik harbiy guruh boshlig‘i.
- **Qorovulbegi** – soqchilar va qorovullar boshlig‘i.

Qo‘qon xoligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

- **Otaliq** – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o‘tirganidan so‘ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallaganlar.

- **Beklarbegi** – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba‘zi viloyatlarning hokimiga berilgan.

- **Biy** – turkiy qabilalarning boshliqlari.

- **Devonbegi** – xon devonining boshlig‘i, Qo‘qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo‘lgan.

- **Xazinachi** – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritgan.

- **Inoq** – xonning xos va sirdosh mulozimi.

- **Eshikog‘asi yoki chehraog‘asi** – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig‘i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijazatsiz qo‘ymaslikka javobgar shaxs.

- **Parvonachi** – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.

- **Dodxoh** – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

Dasturxonchi – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.

- **Saroy qorovulbegisi** – xon o‘rdasining soqchilariga boshliq bo‘lgan saroy amaldori.

- **Tunqator** – tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.

- **Oftobachi** – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.

- **Sharbatdor** – eng oliy va faxriy unvonlardan bo‘lib, xonning xos majlislari va safarlarida hizmatda bo‘lgan.

- **Hidoyatchi** – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg‘alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o‘tkazuvchi amaldor.

- **Shig‘ovul** – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko‘ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo‘lgan.

- **Sarkor** – saroydagi xon amaldorlarining boshlig‘i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.

Qo‘qon xonligida qo‘yidagi diniy vaqozixonalar mansab, unvon hamda amallari mavjud bo‘lgan:

Shayx ul-islom – dindorlarning eng oliy unvoni bo‘lib, 1818 yilda

Umarxon tomonidan joriy etilgan.

- **Xoja kalon** – fikh olimi (huquqshunos) ning faxriy unvoni.

- **Xalifa** – o‘rinbosar. Qo‘qondagi naqshbandiya, qalandariya, yassaviya

taraqiyotlarining rahbarlari.

- **A'lam** – faqih, olim hamda shariat qonun – qoidalarining bilimdoni.

- **Oxund** – bilimli va madrasada o'qiydigan kishi.

Sudur – vaqf mulklarining daromadlari hamda hisob – kitobiga javobgar mansabdor.

- **O'roq** – vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga mas'ul shaxs, O'roq shaklidagi nishonni sallasiga taqib yurgan.

- **Mudarris** – madrasada ta'lim beruvchi ustoz.

- **Imom va imom xatib** – masjid imomi hamda juma nomozlarida xutba o'qib xizmat qiladigan imom.

Muazzin – musulmonlarni namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi.

- **Qozi ul – qo'zzot** – qozilar qozisi (adliya vaziri).

- **Qozi kalon** – xonlik poytaxti hamda viloyatlar markazlaridagi qozilar va qozixonalar ustida nazorat qiluvchi amaldor.

- **Qozii askar** – qo'shin qozisi.

- **Tarakachi** – meros qolgan mol-mulklarni merosxo'rlarga taqsimlab (taraka) beruvchi shaxs.

3-mavzu. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari. (2 soat)

Reja

1. Turkiston o'lkasida harbiy-mamuriy hokimiyat tizimining yuzaga kelishi.
2. Turkiston general-gubernatorligida xokimiyat tuzumini va uning funksiyalari.
3. Rossiya imperiyasining Turkistondagi milliy siyosatining o'ziga xos xususiyati.

Turkiston o'lkasida harbiy-mamuriy hokimiyat tizimining yuzaga kelishi. Turkiston o'lkasi ichki boshqaruvini tashkillashtirishda imperiyaga xos ma'muriy an'analar, mutloq harbiy qo'mondonlik va podsho g'aznasi manfaatlaridan kelib chiqib o'tkazilishi. Turkiston general-gubernatorligida xokimiyat tuzumini va uning funksiyalari. Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limlari faoliyati. Mustamlaka boshqaruv tizimining takomillashtirilishi. Rossiya imperiyasining ko'chiruvchilik siyosati. Hokimiyat, politsiya va sud organlari, faoliyat doirasining kengayishi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi milliy siyosatining o'ziga xos xususiyati.

1865 yildayoq Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoni bilan Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorliklari hamda Turkiston viloyati turmush tarzi va umumiy ahvolini o'rganish uchun "Dasht komissiyasi" tuzilib, O'rta Osiyoga jo'natiladi. Ushbu komissiyaning vazifasi bosib olingan hududlardagi sharoitni o'rganish hamda ularni qanday boshqarish haqida nizom tuzish uchun ma'lumotlar to'plashdan iborat edi. Komissiya o'z ish jarayonida bosib olingan yerlardan quyidagi qoidalarga asoslangan holda foydalanishni belgilab bergan edi:

1. Harbiy va fuqaro hokimiyatini bir qo'lda to'plagan holda o'lkani boshqarish.
2. Siyosiy hokimiyatga ega bo'lmagan barcha ichki ishlarni boshqarishni yerli aholining

xulq-atvori va urf-odatlarini hisobga olib, mahalliy aholi qo‘liga topshirish.

3. Mahalliy boshqarmada, uning qonun va urf-odatlarida mavjud bo‘lgan davlat manfaatlariga ziyon yetkazuvchi barcha narsalarni butunlay tugatish.

4. Imkoniyati boricha sudni ma‘muriyatdan batamom ajratib qo‘yish. Ko‘rinib turibdiki, “Dasht komissiyasi” ning asosiy vazifasi mustamlakachilikka asoslangan o‘lka boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan edi. Bu “Komissiya” tomonidan ishlab chiqilgan “Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi” bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorda quyidagilar qayd etilgan edi:

1. Loyihada ko‘rsatilgan hududlarda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilsin.

2. General-gubernatorga o‘lkani boshqarish uchun loyihada nazarda tutilgan shtatlardan kelib chiqqan holda, boshqarish uchun amaldorlar olishga imkoniyat berilsin.

3. General-gubernatorga loyihada ko‘rsatilgan yerlarda, o‘lkadagi mahalliy sharoit, tuzem (mahalliy) xalqlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda so‘nggi marta qonuniy tartibda ko‘rib chiqish va qabul qilish uchun uning qismlari bo‘yicha va yaxlit holda o‘zining xulosasini berish topshirilsin. Ungacha loyihada ko‘rsatilgan holatlarni asos sifatida qabul qilib, o‘lka tuzilishi uchun favqulodda muhim va foydali deb hisoblangan hamma choralarni ko‘rish topshirilsin.

Tadqiqotchilarning (S.Tillaboyev) ta’kidlashicha, Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o‘z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblangani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o‘zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo‘lgan quyi boshqaruv organlari, soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning dastlab saqlanib qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining turmush tarziga katta o‘zgarishlar kiritish salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin edi. Undan tashqari, yangi bosib olingan yerlarda

hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan o‘z odamlari bo‘lmaganligi, mahalliy sharoitni to‘liq bilmaslik kabilar ham an’anaviy boshqaruv tizimini ma’lum muddat saqlab qolishga majbur qilgan.

Rossiya imperatori tomonidan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” 1886 yil 12 iyunda tasdiqlangan bo‘lsada, ma‘muriy tizim bo‘yicha e’tirozlar davom etdi. Ammo, imperator Turkiston o‘lkasida sobiq general-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda unga ba’zi o‘zgarishlar kiritdi. Umuman olganda, Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to‘ldirilib, o‘zgartirilib turildi. Chunki podsho Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruv tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo‘yicha dasturiy hujjatlar ishlab chiqishda “harbiy vaziyat” omili hal qiluvchi bo‘lgan. Bunday hujjatlar chorizmning O‘rta Osiyo xonliklarining yangidan-yangi hududlarini bosib olishi munosabati bilan vujudga kelgan va aynan shuning uchun ham doimo “muvaqqat” yoki “vaqtinchalik” xarakterga ega bo‘lgan. Misol uchun, “Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” (1867 y) “tajriba tariqasida” uch yil muddatga joriy qilingan bo‘lib, 20 yil davomida amal qilgan. “Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari” (1868 y), “Amudaryo bo‘limini

boshqarishning vaqtinchalik qoidalari” (1874 y) va “Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha vaqtinchalik Nizom” (1876 y) to‘g‘risida ham shunday deyish mumkin

Turkiston o‘lkasining ma‘muriy-hududiy boshqaruvi.

Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo xonliklarini bosib olganidan so‘ng bu hududlarda ko‘p asrlardan buyon shakllanib, mavjud bo‘lib kelgan, o‘troq va ko‘chmanchi aholining diniy hamda mahalliy xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan boshqaruv tizimi o‘rniga imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi boshqaruv tartiblari o‘rnatiladi. Ma‘lumki, 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, uning general-gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqarolik hokimiyatini birlashtirgan. General-gubernator bir vaqtning o‘zida podsho noibi, harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, Yettisuv kazak qo‘shinlari atamani, bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini ham o‘tagan.

General-gubernator imperator tomonidan tayinlangan va vazifasidan ozod etilgan bo‘lib, u harbiy vazirga bo‘ysungan. Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi markaziy, viloyat, uyezd (tuman), uchastka (volost), shahar, qishloq va ovul boshqaruvi shakllaridan iborat edi. General-gubernatorlik dastlabki tashkil etilgan paytda ikkita – markazi Toshkent bo‘lgan Sirdaryo va markazi Verniy (Olmaota) bo‘lgan Yettisuv viloyatlaridan iborat bo‘lgan. Sirdaryo viloyati hududiga asosan ilgari Turkiston viloyatiga tegishli bo‘lgan yerlar va Qo‘qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Alatavsk okrugi hududlari hamda Turkiston viloyatining bir qismidan iborat hududlarda tashkil etilgan.

Sirdaryo viloyati ma‘muriy jihatdan Kazalinsk, Perovsk, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo‘jand, Jizzax uyezdlariga bo‘lingan bo‘lsa,

Yettisuv viloyati Sergiopol, Kopal, Verniy, Issiqko‘l va To‘qmoq uyezdlariga bo‘lingan. Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo‘shimcha ma‘muriy – hududiy birlik tashkil etib borgan. Jumladan, 1868 yilda Buxoro amirligiga qarashli bosib olingan yerlarda markazi Samarqand bo‘lgan Zarafshon okrugi, Xiva xonligiga qarashli yerlarni bosib olish hisobiga 1874 yilda markazi Petro-Aleksandrovich (To‘rtko‘l) bo‘lgan Amudaryo bo‘limi, 1876 yilda Qo‘qon xonligi hududlarida markazi Yangi Marg‘ilon (Skobelev, Farg‘ona) bo‘lgan Farg‘ona viloyati tashkil etilgan edi.

2. Turkiston o‘lkasining ma‘muriy-hududiy boshqaruvi.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi markaziy, viloyat, uyezd (tuman), uchastka (volost), shahar, qishloq va ovul boshqaruvi shakllaridan iborat edi. General-gubernatorlik dastlabki tashkil etilgan paytda ikkita – markazi Toshkent bo‘lgan Sirdaryo va markazi Verniy (Olmaota) bo‘lgan Yettisuv viloyatlaridan iborat bo‘lgan. Sirdaryo viloyati hududiga asosan ilgari Turkiston viloyatiga tegishli bo‘lgan yerlar va Qo‘qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Alatavsk okrugi hududlari hamda Turkiston viloyatining bir qismidan iborat hududlarda tashkil etilgan.

Sirdaryo viloyati ma‘muriy jihatdan Kazalinsk, Perovsk, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo‘jand, Jizzax uyezdlariga bo‘lingan bo‘lsa, Yettisuv viloyati Sergiopol, Kopal, Verniy, Issiqko‘l va To‘qmoq uyezdlariga bo‘lingan. Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo‘shimcha ma‘muriy – hududiy birlik tashkil etib borgan. Jumladan, 1868 yilda Buxoro

amirligiga qarashli bosib olingan yerlarda markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi, Xiva xonligiga qarashli yerlarni bosib olish hisobiga 1874 yilda markazi Petro-Aleksandrovich (To'rtko'l) bo'lgan Amudaryo bo'limi, 1876 yilda Qo'qon xonligi hududlarida markazi Yangi Marg'ilon (Skobelev, Farg'ona) bo'lgan Farg'ona viloyati tashkil etilgan edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-hududiy jihatdan Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyatlari hamda Amudaryo bo'limidan iborat edi. Viloyatlar uyezdlarga bo'lingan bo'lib, ular quyidagilar edi: Sirdaryo viloyati – Avliyoota, Kazalinsk, Qurama, Perovsk, Turkiston, Chimkent; Toshkent shahri markaz sifatida general-gubernatorga bo'ysungan; Amudaryo bo'limi ham Sirdaryo tarkibida bo'lgan; Yettisuv viloyati – Verniy, Kopal, Jarkent, Lepsin, Pishpek, Prjevalsk, To'qmoq; Farg'ona viloyati – Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh, Chust va Chimyon; Samarqand viloyati – Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax; Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyati – Mang'ishloq, Krasnovodsk, Ashxobod, Tajan va Marv uyezdlari.

Viloyatlar boshqaruvi harbiy gubernator va viloyat boshqarmasi tomonidan amalga oshirib borilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harbiy gubernator harbiy va harbiy fuqarolik xususiyatiga ega bo'lgan. Harbiy gubernator qoshida amaldorlar va viloyat boshqarmasi mavjud bo'lib, viloyat boshqarmasiga harbiy gubernatorning yordamchisi raislik qilgan. Bu yordamchi harbiy gubernator bilan kelishilgan holda imperator yorlig'i bilan vazifasiga tayinlangan va ozod etilgan. Harbiy gubernator bo'lmagan paytlarda uning vazifasini yordamchisi bajargan. Viloyat boshqarmasi uchta bo'lim – farmon beruvchi, xo'jalik va sud bo'limlaridan iborat bo'lgan. Bo'lim boshliqlari general-gubernator tomonidan tayinlangan hamda vazifasidan ozod etilgan. Uezdlarni uyezd boshliqlari idora qilgan. Ular general-gubernator tavsiyasiga binoan oliy yorliq bilan vazifasiga tayinlangan va ozod etilgan. Uyezd boshliqlari ma'muriy va politsiya vazifasini bajargan hamda qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilgan.

Mahalliy boshqaruv ko'chmanchi aholini boshqarish va o'troq aholini boshqarishga bo'lingan. Har bir uyezdagi ko'chmanchi aholi viloyatlarga, volostlar esa ovullarga bo'lingan. Volost (bo'lis)lar – volost boshqaruvchilari, ovullar esa oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Viloyat boshqaruvchilari va unga nomzodlar harbiy gubernator tomonidan, ovult oqsoqoli va unga nomzodlar uyezd boshlig'i tomonidan tayinlangan. Volost boshlig'i politsiya va ma'muriy hokimiyatni amalga oshirgan. O'troq aholini boshqarish qishloqlarda ma'muriy va politsiya vakolatlariga ega bo'lgan oqsoqollar tomonidan amalga oshirilgan. O'troq aholi uyezdlarda volostlarga, volostlar esa qishloq jamoalari (oqsaqolliklar)ga bo'lingan.

1886 yilgi "Nizom" ga ko'ra, Turkiston o'lkasini boshqarish quyidagicha bo'lingan:

1. Bosh boshqarma.
2. Turli tarmoqlarning alohida qismlarini boshqarish.
3. Mahalliy ma'muriy boshqaruv: viloyat – uyezd – volost – qishloq.
4. Sud boshqaruvi.

Turkiston general-gubernatori huzurida Kengash, maxsus topshiriqlarni bajarish uchun amaldorlar, tarjimon va devonxona mavjud bo'lgan. Kengash vakolatlariga barcha qonunchilik masalalari, general-gubernator topshirgan vazifalarni ko'rib chiqish kirgan.

Ammo u, o'lkani umumiy boshqarish bo'yicha maslahat ovozigacha ega bo'lgan.

Uezd boshqaruvi bo'yicha Amudaryo bo'limi alohida maqomga ega bo'lgan. Amudaryo bo'limi boshlig'i uyezd boshlig'i maqomiga ega bo'lib, ma'muriy va politsiya boshqaruvi uning ixtiyorida bo'lgan. Bo'lim boshlig'i huzurida yordamchi va devonxona mavjud bo'lgan.

Volost boshliqlari va ularning yordamchilari aholi tomonidan uch yilga saylangan hamda harbiy gubernator tomonidan tasdiqlangan. Volost boshqaruvchilari sud hukmlarini ijro etgan, aholining kelib-ketishini nazorat qilgan hamda soliqlarning o'z vaqtida yig'ilishini ta'minlagan.

Turkistondagi mustamlaka boshqaruvi 1898 yilgacha "harbiy-xalq boshqaruvi", undan keyin esa "ma'muriy politsiya boshqaruvi" deb atalgan bo'lsa ham uning mohiyati mazmunan o'zgarmagan. Barcha vakolatlari avvalo, genral-gubernator, qolaversa, u boshchiligidagi rus ma'muriyati qo'lida to'plangan bo'lib, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda o'zbek davlatchiligi va boshqaruvining barcha ko'rinishlarini butunlay yo'qotish va ruscha idora usulini qat'iy joriy etish bo'yicha izchil faoliyat olib bordi. Ma'muriy boshqaruv tizimi ana shu maqsadga qaratilib, buning uchun barcha choralar ko'rilgan edi.

Turkiston o'lkasida 1867 yildan 1917 yilgacha o'n beshta general –gubernator hukmronlik qilgan bo'lib, ular quyidagilar edi:

1. K.P.Kaufman – 1867-1882 yy.
2. M.G. Chernyayev – 1882-1884 yy.
3. N.O. Rozenbax – 1884-1888 yy.
4. A.B.Vrevskiy – 1889-1898 yy.
5. S.M. Duxovskiy – 1898-1901 yy.
6. N.A. Ivanov – 1901-1904 yy.
7. P.N. Tevyashov – 1904-1905 yy.
8. D.I. Subotich – 1906 y.
9. N.I. Grodekov – 1907-1908 yy.
10. P.I. Mishenko – 1909 y.
11. A.B. Samsonov – 1909 -1913 yy.
12. Flug, Martson va Yerofeyevlar – 1913-1916 yy.
13. A.N. Kuropatkin – 1916-1917 yy.

4-mavzu. O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida. (2 soat)

Reja

1. 1917 yil siyosiy jarayonlarida Turkiston. Turkiston Muhtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi.
2. Bolsheviklar tuzumiga qarshi kurash. XXSR va BXSRLarning tashkil topishi.
3. O'rta osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi maqsad va mohiyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi.
4. O'zbekistonda sinfiy mafkuraga asoslangan kommunistik partiyaning mutloq xukmronligining o'rnatilishi.

1917 yil siyosiy jarayonlarida Turkiston. Turkiston Muhtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi. Sovetlar andozasi asosida TASSR tashkil topishi.

Bolsheviklar tuzumiga qarshi kurash. XXSR va BXSRLarning tashkil topishi. O'rtasiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi maqsad va mohiyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. O'zbekiston SSRning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi SSSR da boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'zining barcha salbiy ko'rinishlari bilan qaror topishi va mustahkamlanishi sharoitida sodir bo'lishi. O'zbekistonda sinfiy mafkuraga asoslangan kommunistik partiyaning mutloq xukmronligining o'rnatilishi. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.

1917 yil 15-22 oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s'ezdida 15 kishidan iborat hukumat- .Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Unda 8 ta o'rin so'l eserlarga, 7 ta o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berilib, hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan bitta ham vakil kiritilmadi. XKS raisi lavozimini F.Kolesov egalladi.

Turkistonda hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi.

Turkiston XKS 1917 yil 28 noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'linmalarini tuzish haqida qaror qabul qiladi. Bu bo'linmalar Sovet tuzumi va bolsheviklarga qarshi ko'tarilgan dastlabki ongli chiqishlarni bostirishda faol ishtirok etdi. Turkiston XKS 1917 yil oxirlarida o'z qarori bilan "Sho'roi Islomiy" va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning rahbarlari keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumatiga qo'shildilar, ayrimlari istiqbolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qildilar. "Sho'roi Ulamo" tashkilotining Toshkent sho'basi faqat 1918 yil 13 mayda yopib qo'yildi. Turkiston o'lkasi XKS o'zining tuzilishi va boshqaruv apparatlari jihatidan tubdan farqlanuvchi hukumat edi. Turkiston XKS tarkibiga kirgan 15 ta komissarlik o'lkadagi boshqaruv ishlarini butunlay qamrab olgan bo'lib, boshqaruv tizimining farqli tomoni shunda ediki, Turkiston XKS tashkil topgan paytdayoq Rossiyadagi Markaziy hukumatni tan oldi. Chunonchi, Turkiston XKS raisi F.Kolesov Petrograddagi XKS nomiga yuborgan telegrammada quyidagicha ta'kidlagan edi: "Komissarlar Soveti o'z oldiga sizning hamma dekretlaringizni amalga oshirish vazifasini qo'ydi...Bizning to'la-to'kis qo'llab quvvatlashimizni hisobga olishingizni so'raymiz".

Tadqiqotchilarning (Q.Rajabov, M. Haydarov) fikricha, Turkiston o'lkasi yangi hukumati o'sha kunning o'zida (1917y. 23 noyabr-E.B.) aholiga qilgan murojaatida ham o'zining asl maqsadlarini yashirib o'tirmadi. Murojaatda ham telegrammada bo'lgani kabi quyidagilarga alohida urg'u berilgan edi: "Xalq Komissarlari Soveti markaziy hokimiyatning barcha dekretlarini og'ishmay amalga oshiradi va o'z faoliyatida s'ezdning ...qarorlariga amal qiladi. Bu topshiriqlarni bajarish yo'lidagi har qanday qarshilik sovetlar tomonidan keskin choralar ko'rish bilan kutib olinadi". Tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, Turkiston XKS o'z faoliyatining birinchi kunlaridan boshlab sovet siyosatini amalga oshirishga, Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini mustahkamlashga qattiq va astoydil kirishdi. Barcha mahalliy sovetlarga zudlik bilan qizil gvardiya tuzishga kirishish taklif qilindi. O'lka komissarligi tarkibida bo'lgan va boshqaruvda asosiy rol o'ynaydigan harbiy, tashqi savdo, shuningdek, pochta,telegraf va temir yo'llar boshqaruvi

masalalari butunlay Rossiyadagi tegishli idoralarga berib qo'yilishi oqibatida Turkiston XKS ijrochi organga aylanib qoldi. Markazdan yuborilgan barcha mas'ul xodimlar, turli komissiya va tashkilotlar o'z siyosatlarini qo'g'irchoq organga aylangan o'lka XKS orqali yuritdilar.

Turkistonda hokimiyatning faqat ishchilar va yevropalik millat vakillari qo'lida bo'lib qolishi o'lkadagi barcha demokratik kuchlarning hukumatga bo'lgan ishonchsizligini kuchaytirib yubordi. Bunga qarshi Markazdagi bolsheviklar hukumati chekka o'lkalar, shu jumladan Turkistonda ham "sovetcha asosdagi avtonomiya" o'rnatishga qattiq kirishdi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Moskvadan ko'plab partiya va sovet xodimlari Turkistonga jo'natildi. Jumladan, P.A. Kobozev O'rta Osiyoning favqulodda komissari qilib yuborildi. 1918 yil 20aprel-1may kunlari Toshkentda Turkiston o'lkasi Sovetlarining V s'ezdi bo'lib o'tdi. Unda "proletar demokratiyasi"ga tegishli tamoyillari bo'yicha tanlab olingan 251 deputat (shundan 120 tasi tub millat vakillari) ishtirok etdi. S'ezd kun tartibidagi asosiy masala Turkistonda Sovet mafkurasiga asoslangan bolshevikcha avtonomiya yaratish bo'ldi.

S'ezd delegatlari Lenin va Stalinning ko'rsatmalari asosida 1918 yil 30 aprelda "Rossiya Sovet Federatsiyasi Turkiston Sovet avtonom respublikasi" haqida Nizomni qabul qildi. Ushbu Nizomda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliy qonunchilik va ijroiya organlari, mahalliy organlar tuzilishi, vazifalari va ularning sovet Rossiyasi bilan o'zaro munosabatlari belgilab berildi. Ushbu Nizom Turkistonda avtonom respublika tuzilganligini qayd etib, unga muvofiq, Buxoro va Xivadan tashqari, Turkiston o'lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud Rossiya sovet federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi.

"Nizom"da Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, "o'z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi", deb qayd etildi. S'ezdda "markaziy hukumat bilan o'zaro munosabatlarni belgilash uchun" besh kishidan iborat komissiya tashkil etish va Moskvaga yuborishga qaror qilindi.

S'ezd sovet Turkistonining qonun chiqaruvchi oliy organi -Markaziy Ijroiya Komiteti (Tur SIK)ni sayladi. 36 kishidan iborat bu komitetning yarmi bolsheviklar, yarmi so'l eserlar (18 tadan) edi. Ushbu komitet sovetlar s'ezdlari oralig'idagi davrda o'lkada oliy hokimiyat vazifalarini bajaruvchi oliy qonunchilik organi bo'ldi. Turkiston MIK raisi qilib Markazdan hukumatning favqulodda komissari P.A.Kobozev (hamrais qilib A.Salkin) saylandi. Shuningdek, Turkiston XKS tarkibiga 16 kishi (9 ta bolshevik va 7 ta so'l eser) kiritildi. Mahalliy millat vakillaridan to'rt kishi – S.Jo'raboyev, S.Yusupov, Sh.Ostonboyev va S.Azimboyevlar Turkiston MIKga saylanib, S.Tursunxo'jayev sog'liqni saqlash xalq komissari sifatida hukumat tarkibiga kiritildilar.

Sovet hokimiyatining Turkistonda olib borgan mustamlaka boshqaruv siyosati hamda markazlashtirish harakatlari TSR boshqaruv organlarida faoliyat ko'rsatayotgan milliy rahbar xodimlarning kuchli noroziliklariga sabab bo'ldi. Milliy kommunistlar o'lkadagi bolsheviklar siyosatiga ochiqdan ochiq qarshi chiqq boshladilar. Milliy rahbar xodimlarning norozilik kayfiyatlarini yuzaga chiqishida 1919 yil martda tuzilgan o'lka Musulmonlar byurosi (Musbyuro) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunonchi, Qayg'usiz Otaboyev, Yusuf Aliyev, Abdulla Rahimboyev, Sanjar Asfandiyorov, Nazir To'raqulov, Inomjon Xidiraliyev kabi ko'plab milliy rahbar xodimlar Turor Risqulov raisligidagi Musbyuro atrofida

birlashgan edilar.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi.

1917 yil oktyabr-noyabr oylarida Toshkent va Qo‘qonda yuz bergan voqealar Turkistonda ijtimoiy-ciyosiy harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Qo‘qon shahrida 1917 yil 26-28 noyabr kunlari Turkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi vakillari ham qurultoyda teng huquqli bo‘lib ishtirok etdilar. Qurultoyning 27 noyabr kuni qabul qilingan qarorida shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi”. 28 noyabrda tashkil topayotgan davlatning nomi aniqlanib “ Turkiston Muxtoriyati” deb ataladigan bo‘ldi. Butunrossiya Ta’sis s’ezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to‘la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo‘lida bo‘lishi haqida qaror qabul qilindi. Muvaqqat kengash a’zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo‘ldi. Qurultoy jarayonida Turkiston Milliy Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati tarkibiga muxtoriyatchilik harakatining faol ishtirokchilari, jumladan, quyidagilar hukumat a’zolari bo‘ldilar:

1. Muhammadjon Tinishboyev –Bosh vazir, ichki ishlar vaziri, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a’zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a’zosi, temir yo‘l muhandisi.

2. Islom Sulton Shoahmedov (Shagiixmedov) –Bosh vazir o‘rinbosari, Butunrossiya Musulmonlari Kengashi Markaziy qo‘mitasining a’zosi, huquqshunos.

3. Mustaf Cho‘qay-tashqi ishlar vaziri, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a’zosi, Turkiston o‘lka Musulmonlar Sho‘rosining raisi, huquqshunos.

4. Ubaydulla Xo‘jayev (Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev) –harbiy vazir, Butunrossiya Musulmonlar kengashi Markaziy qo‘mitasining a’zosi, huquqshunos.

5. Hidoyatbek Yurg‘uli (Yurali) Agayev –er va suv boyliklari vaziri, agronom.

6. Obidjon Mahmudov –ozuq-ovqat vaziri, Qo‘qon shahri dumasining rais o‘rinbosari, jamoat arbobi

7. Abdurahmon O‘rozayev –ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, huquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld –moliya vaziri, huquqshunos. Muvaqqat hukumat tarkibiga kirishi lozim bo‘lgan qolgan 4 o‘rin yevropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko‘rsatilishi uchun ularga ajratildi.

Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a’zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e’lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy qarashlaridan qat’iy nazar, ular yakdillik va hamjihatlikka da’vat etilgan edi. Shuningdek, Turkiston Muxtoriyati hukumatining Milliy davlatchilikning qaror topishini jo‘shqin muborakbod etib, matbuotda taniqli ma’rifatparvarlar, diniy, jamoat va siyosat arboblari birin-ketin chiqishlar qilib, Muxtoriyatni tabrikladilar.

O‘sha paytda chop etiladigan “Ulug‘ Turkiston” gazetasi sahifalari Qo‘qon, Samarqand, Toshkent, Kaspiyorti viloyatidan Turkiston Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlovchi xabarlar bilan to‘lib toshgan edi. Yangi hukumat faoliyati faqat Qo‘qonda

yoki Farg‘ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yer aholisi tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanganligi bois, Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq orasida katta e‘tibor qozondi. Shuning uchun ham ma‘rifatparvar Fitrat Muxtoriyat e‘lon qilingan tunni “Milliy laylatulqadrimiz” deb atadi.

Xalq ommasining qizg‘in qo‘llab-quvvatlashidan ilhomlangan Muxtor hukumat vakillari jadal faoliyat boshladilar. Dastlabki kunlardan boshlab Millat majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e‘lon qilinib, yangi hukumat davlat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb etdi. Bir nechta hukumat gazetalari o‘zbek, qozoq va rus tillarida nashr etila boshlandi. Shuningdek, hukumat milliy qo‘shinni tashkil qilishga alohida e‘tibor qaratdi. Harbiy vazir Ubaydulla Xo‘jayev ishtirokida o‘tkazilgan ko‘rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 nafarga yetgan. Bundan tashqari Qo‘qonda Ergash qo‘rboshi rahbarlik qilgan ikki mingga yaqin mirshablar ham bor edi. Yangi hukumat iqtisodiy sohada 30 million so‘m miqdorida ichki zayom chiqarishni yo‘lga quydi. Chunki gazetalarni nashr qilish, muxtoriyat qo‘shinlarining ta‘minoti hamda hukumatning ichki harajatlari uchun mablag‘ zarur edi. Shuningdek, yangi hukumat a‘zolari ochlik girdobida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g‘alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi.

Ammo, umumxalq tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan ma‘qullanmadi. 1917 yil 13 dekabrda Toshkentning eski shahar aholisi “ Muxtor Turkiston uchun” shiori ostida tinch namoyish o‘tkazdilar. Toshkent shahar sovetidagi bolsheviklar esa, shaharda qurolli kuch bilan tartib o‘rnatishga buyruq berdilar. Natijada tinch namoyish qatnashchilari o‘qqa tutilib, 16 kishi halok bo‘ldi. Shunga qaramasdan, Muxtoriyat hukumatini qo‘llab-quvvatlash davom etaverdi. Xususan, 1917 yil 26-30 dekabr kunlari Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari I favqulodda qurultoyining ham asosiy masalasi Turkiston muxtoriyatiga munosabat masalasi edi. Butun Turkiston o‘lkasidan 200 yaqin vakillar qatnashgan ushbu qurultoy 30 dekabrda Turkiston muxtoriyati hukumatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, Turkiston o‘lkasi Xalq komissarlari Sovetiga ishonchsizlik bildirish haqida qabul qilgan deklaratsiyasida quyidagi fikrlar bor edi: “Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti barcha aholi ayniqsa, musulmonlar hohish-istaklarining ifodachisi emasligi; Turkiston o‘lkasi xalqlari irodasi ikki qurultoyda muxtoriyat e‘lon qilinganida ifodalanganligi; Turkistonda yagona hukumat organi butun musulmonlarning qurultoyida tashkil topgan va musulmon ishchi, askar va dehqonlarning qurultoyida to‘ldirilgan Turkiston Muxtoriyati hukumati ekanligini e‘tiborga olib, Musulmon ishchi, dehqon va askarlar qurultoyi Turkiston Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni darhol Turkiston Muxtoriyati hukumati va Millat Majlisiga topshirilsin deb istak bildiradi”.

Ta‘kidlash lozimki, yangi davlatchilik barcha milliy guruhlarining mutanosibligi prinsiplari, umumdemokratik va milliy qadriyatlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida barpo etilgan edi. Yuqorida qayd etilganidek, Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati aholini oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mahsulotlari bilan ta‘minlash, o‘z moliyaviy jamg‘armasini yaratish, turli-tuman siyosiy partiyalar va harakatlar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vazifalarini hal qilish yuzasidan qizg‘in harakatlarni amalga oshira boshlagan edi. Sovet hokimiyatidan farqli o‘laroq, Turkiston Muxtoriyati hukumati qonuniy asosda tashkil etilgan edi. Turkiston Muxtoriyati hukumati keng musulmonlar ommasi va

demokratik kayfiyatdagi yevropalik aholining vakolatini olgan edi. Shuning uchun ham aytish mumkinki, Turkiston Muxtoriyati o'z taqdirini o'zi belgilagan xalq respublikasi edi.

Ammo, o'lka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. 1918 yil 19-26 yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV s'ezdida Muxtoriyatga butunlay salbiy munosabat bildirildi. Ushbu s'ezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror chiqardi. S'ezd bolsheviklar fraksiyasining Turkiston Muxtoriyati to'g'risidagi rezolyutsiyasini qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyada Turkiston qonuniy hukumati munofiqlarcha "qoraguruhchilar to'dasi" deb ataldi. Bu ham yetmagandek, bu s'ezd bolsheviklarning tazyiqi ostida qonuniy kuchga ega bo'lgan, tub yerli aholi manfaatlarining himoyachisi bo'lib maydonga chiqqan o'lkadagi ilk demokratik va xalqchil hukumat-Turkiston Muxtoriyati ustidan shafqatsiz hukm chiqardi.

1918 yil 30 yanvarda Turkiston XKS Muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlar boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnoqtsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan beshafqat qurolli drujinalaridan ham keng foydalandilar. 31 yanvar kunning ikkinchi yarmida boshlangan janglar bir necha kun davom etdi. Qon to'qilishini oldini olish maqsadida muzokaralar olib borish harakatlari natija bermadi. 1918 yil 19 fevralda Qo'qon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida ag'darib tashlandi. Hukumat boshlig'i Mustafa Cho'qay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo'ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo'ldi, ayrimlari qo'lga olindi. Dahshatli janglar va talon-tarojlar natijasida 10000 qo'qonlik o'ldirildi. Turkiston Muxtoriyati hukumatining ag'darilishi turkistonliklar tomonidan Rossiyaning Turkistonga nisbatan tajovuzkorona rejalari mavjudligining yangi dalili sifatida qabul qilindi va ular qo'llariga qurol olib o'z Vatanlarini bosqinchilardan himoya qilishga otlاندilar. Bu bilan Turkistonda sovetlarga qarshi istiqloqchilik harakatiga asos solindi

Ma'muriy-siyosiy biqiqlik

■ 1980-yillarning boshlarida sovet siyosiy tizimi, xo'jalik yuritish usuli o'zining rivojlanish imkoniyatlarini batamom tugatdi.

■ Ma'muriy-siyosiy biqiqlik kuchaydi, jamiyat a'zolari mehnat intizomi pasaydi, loqaydlik, befarqlik kuchaydi. 80-yillar o'rtalarida sovet jamiyatida «qayta qurish» boshlandi.

■ Qayta qurish haqida M. S. Gorbachev KPSS MK ning aprel (1985 yil) plenumida taklif kiritdi.

■ Unda Mahsulot ishlab chiqarish uchun 2 marta ko'p tabiiy resurslar, energiya, inson mehnati sarf etilishi, temir, po'lat, stanoklar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 1-o'rinni egallashiga qaramasdan mamlakatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilmaganligi qayd etildi.

■ 80-yillarning o'rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi ro'y bera boshladi. Qayta qurish konsepsiyasi cheklangan bo'lib, u SSSRni taraqqiyotini ta'minlay olmas edi.

■ Qayta qurish yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot yomonlashdi.

■ Respublikada milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar toptaldi, buning oqibatida xalq orasida loqaydlik, ishonchsizlik va norozilik kuchaydi.

■ Farg‘ona fojeasi yuz berdi. Milliy o‘zlikni anglash boshlandi.

■ O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, paxta yakkahokimligini tugatilishi, ekologik holatni sog‘lomlashtirilishi O‘zbekistonda dolzarb masala sifatida ko‘tarildi.

5-mavzu. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. (2 soat)

Reja

1. 1991 yil 31 avgust “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunning qabul qilinishi.

2. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.

3. O‘zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

1991 yil 31 avgust “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunning qabul qilinishi va 1 sentyabrni Mustaqillik kuni deb e‘lon qilinishi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. O‘zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

I.A.Karimov 1989 yil iyunda O‘zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylandi;

• 1989 yil 21 oktyabrda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 11-chaqiriq 11-sessiyasida «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi;

• «O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasi»ni tayyorlashga kirishildi. Unga ko‘ra, «O‘zbekiston xalq xo‘jaligini sog‘lomlashtirish va bozor iqtisodiga o‘tishning asosiy prinsiplari» ishlab chiqildi va u 1990 yil 17 oktyabrda umumxalq muhokamasi uchun e‘lon qilindi;

• O‘zbekiston Oliy Kengashi 1989 yil 25 noyabrda bo‘lgan «O‘zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990 yilgi Davlat plani to‘g‘risida»gi masalani muhokama qilar ekan, Respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi;

• 1990 yil 24 martda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 12 chaqiriq 1-sessiyasi O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Sessiya I.A.Karimovni O‘zbekiston sovet sotsialistik Respublikasi Prezidenti etib sayladi;

• 1990 yil 20 iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 12-chaqiriq 2-sessiyasida «O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi;

• 1991 yil 17 martda «O‘zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli Respublika bo‘lib qolishiga rozimisiz?» degan savol qo‘yilgan umumxalq referendumini o‘tkazildi;

• 9,2 milliondan ortiq kishi yoki referendumda qatnashganlarning 94 foizi yoqlab O‘zbekistonning mustaqil teng huquqli Respublikasi sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo‘lishini qo‘llab ovoz berdi;

• 1991 yil 22 iyulda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati «O‘zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va

tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish» to'g'risida yana bir tarixiy ahamiyaga molik qaror qabul qildi;

- 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi sessiyasi bir ovozdan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi. O'zbekiston SSRning nomi «O'zbekiston Respublikasi» deb o'zgartirildi. So'ngra «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi.

- O'zbekistonda davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatiga bo'linishi qonunlashtirilgan;

- Uch hokimiyatdan har biri mustaqil faoliyat yuritadi. Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblanadi;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi»-deyilgan. Bu vazifani bajaruvchi vakillik organi parlament deb ham yuritiladi;

- BMTga a'zo davlatlarning 185 tasidan 160 tasida parlament instituti mavjud.

- O'zbekiston Respublikasi Konunchilik palatasi va Senati

- O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ikki palatadan – 1 Qonunchilik palatasi (quyi palata) va 2 Senat (yuqori palata)dan iborat. Quyi va yuqori palataning vakolat muddati 5 yil.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

- 1.Qonunchilik palatasi (quyi palata) 120 deputat, Qonunchilik palatasi boshlig'i Spiker deb ataladi

- 2. Senat(yuqori palata)Senatning 100 a'zosi, rahbari Senat raisi deb ataladi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

- Konstitutsiyaning 76-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi», - deya ko'rsatilgan;

- Konstitutsiyaning 77-moddasida «O'zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi xududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat» deya ko'rsatilgan;

- Konstitutsiyaga O'zR Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat (77-modda);

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda olti kishidan saylanadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zR Prezidenti tomonidan tayinlanadi;

• Oliy Majlis palatalariga saylanish shartlari: nomzod yigirma besh yoshga to'lgan va kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi xududida muhim yashagan bo'lishi shart. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari

• Oliy Majlisning har ikki palatasi birgalikda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qiladi, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi;

• O'zbekiston Respublikasi qonunlarini qabul qiladi va o'z navbatida, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadi;

• mamlakat tashqi va ichki siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi; respublika qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari tizimini hamda vakolatlarini belgilaydi;

• Boj, valyuta va kredit ishlarini, shuningdek, ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

• O'zbekiston Respublikasining chegaralarini o'zgartirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradi;

• O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudini saylaydi;

• O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlaydi va vasifasidan ozod etadi;

• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarini, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash va lavozimlaridan ozod etishga doir farmonlarini, vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqaruv organlarini tuzish va tugatish haqidagi farmonlarini tasdiqlaydi;

• Xalqaro shartnomalarni va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya (barvaqt to'xtatish) qiladi; davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etadi;

• Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etadi; ularni tugatish, nomini o'zgartirish va ularning chegaralarini o'zgartirishga oid masalalarni hal qiladi va boshqalar.

Mahalliy davlat boshqaruv tizimidagi tub o'zgarishlar.

Mahalliy davlat hokimiyatining Konstitutsiyaviy asoslari:

• 99-modda. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

• 101-modda. Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

• Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

• Xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyatlarning vakolat muddati – 5 yil.

• 102-modda. Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, qonunga muvofiq tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan, shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli tuman hokimi tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

• Hokimlar o‘z vakoltilarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o‘zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

• 104-modda. Hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi.

• 105-modda. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi.

Mustaqil O‘zbekistonda o‘tkazilgan tub islohotlar va ularning bosqichlari

1) O‘tish davri:

O‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar

2) Faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri:

2001 yildan boshlangan bo‘lib, ikkinchi bosqich - faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosat, qonunchilik, sud huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalar izchil isloh qilindi va rivojlantirilmoqda.

6-mavzu. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli (2 soat)

Reja

1. O‘zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mamlakatni modernizatsiyalashda amalga oshirilayotgan jarayonlar mohiyati.

2. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi va boshqaruvda yangi, samarali usullarning qaror topishi.

3. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mamlakatni modernizatsiyalashda amalga oshirilayotgan jarayonlar mohiyati. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi va boshqaruvda yangi, samarali usullarning qaror topishi. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlatchiligi taraqqiyoti.

Jahon davlatchilik va demokratik taraqqiyoti tajribasidan ma‘lumki, huquqiy davlat qurishni maqsad qilib qo‘ygan har bir jamiyatda davlat hokimiyatini tashkil etish hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasiga asoslanishi kerak. Chunki bunday prinsip yuz berishi mumkin bo‘lgan suiste‘mollikni oldini olishning ishonchli vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan O‘zbekiston ham o‘z davlat organlari idoralari tizimini hokimiyatlar bo‘linishi asosida tashkil etgan. Huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan bo‘lgan hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 11 moddasida “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning **qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga** bo‘linish

prinsiplariga asoslanadi”, deb mustahkamlab qo‘yilgan. Hokimiyatlarga bo‘linish prinsipining amalga oshirilishida “bir-birini tiyib turish va o‘zaro muvozanatda ushlab” tizimining samarali ishlashi juda muhim bo‘lib, bu tizimning xuquqiy asoslari Asosiy Qonunda mustahkamlangan. Unda hokimiyatning har bir tarmog‘i vakolatiga kiruvchi masalalar doirasi aniq chegaralanib, ko‘rsatib berilgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni – Oliy majlis, ijro etuvchi hokimiyatni – Vazirlar mahkamasi, sud hokimiyatini – sudlar amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasidagi **davlat idoralari** davlat hokimiyatini amalga oshirishning yagona tizimini tashkil etadi. O‘zbekiston fuqarolari davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirar ekan, saylovlar va o‘z vakillari orqali davlat organlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Konstitutsiyaga muvofiq (99 modda), “Viloyatlar, tumanlar va shaharlar (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar”.

Sobiq ittifoq Respublikalari orasida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimi joriy etilgan edi. Davlat boshqaruvining Prezidentlik Instituti 1990 yilning 24 martida “O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (asosiy qonuni)ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” qonun bilan joriy etilgan edi. O‘z SSR Oliy Soveti o‘n ikkinchi chaqiriq birinchi

sessiyasida I.A Karimov Prezident etib saylandi. O‘sha sessiyada qilingan ma‘ruzada I.A Karimov shunday degan edi “...Bugun yuzaga kelgan vaziyatda O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.Respublikada yakka boshliq lavozimining joriy etilishi Ittifoq miqyosida bo‘lganidek, qonunlar va davlatning boshqa qarorlarini ijro etish omillarini mustahkamlashga, demak, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalarda qayta qurish jarayonlarini tezlashtirishga ko‘maklashishi shubhasizdir”.

1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumxalq saylovlari muqobilik asosida o‘tkazilib, unda I.Karimov Prezident etib saylandi. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident – hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga ioya qilinishida davlat mexanizmi uchun eng muhim institutdir.

Ma‘lumki, “prezident” atamasi lotincha “praesidense”, so‘zidan olingan o‘lib, aynan tarjimai “oldinda o‘tiradigan” degan ma‘noni beradi. Bu tushuncha konstitutsiyaviy-huquqiy ma‘noda davlat boshlig‘ini anglatadi. Hozirgi kunda dunyodagi 130 dan ortiq davlatlarning hokimiyat tizimida prezidentlik instituti mavjud. “Prezident” atamasi o‘zining hozirgi ma‘nosida 1787 yilgi AQSh konstitutsiyasida mustahkamlanib, AQShda prezidentlik joriy etilganidan boshlab ishlatilib kelinmoqda. Prezidentni davlatning markaziy boshqaruv organlari tizimida tutgan o‘rni davlat boshqaruvining shakliga bog‘liq. Agar mamlakatda davlat boshqaruvining parlamentar respublika turi o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda Prezident faqat davlat boshlig‘i vazifasini bajaradi va u ijroya hokimiyatiga rahbarlik qila olmaydi. Shuning uchun ham boshqaruvning parlamentar respublika shaklida Prezident davlat organlari tizimida markaziy o‘rinni egallamaydi. Boshqaruvning Prezidentlik respublikasi shaklidagi davlatlarda esa Respublika Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi. U davlat boshqaruv organlari tizimida markaziy o‘rinni

egallaydi. __ Davlat boshlig‘i sifatida Prezident davlat hokimiyati boshqaruv organlarida yetakchi va muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekistonning Oliy vakilligini amalga oshiradi. Davlat boshlig‘i o‘zida u yoki bu hokimiyat tarmog‘ini emas balki, davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti” deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddadan iborat bo‘lib, ularda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomlari va vakolatlari belgilab berilgan.

Oliy majlis va uning faoliyati. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylov to‘g‘risidagi” Qonun loyihasi 1993 yil 4 sentyabrdamatbuotda e‘lon qilindi. Respublikadagi ko‘plab yetakchi olimlar,

huquqshunoslar, mutaxassislar uning muhokamasida ishtirok etdilar. Natijada mazkur Qonun loyihasiga bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. 1993 yil 28 dekabrda Oliy kengashning o‘n to‘rtinchi sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Oliy majlisga birinchi saylovlar 1994 yil 25 dekabrda bo‘lib o‘tdi. Birinchi turda 205 ta deputat, qolgan ikki turda (1995 yil 8 va 22 yanvar) 45 ta deputat (jami 250 ta) saylandi.

Oliy majlis - O‘zbekiston Respublikasining oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi hisoblanadi. U ikki palatadan iborat bo‘lib, quyi palata – **Qonunchilik palatasi**, yuqori palata – **Senat** deb nomlanadi. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 nafar deputatdan iborat. Qonunchilik palatasini ishi palata barcha deputatlarning professional doimiy faoliyat ko‘rsatishiga asoslanadi. Qonunchilik palatasining vakolat muddati – besh yil. Vakolat muddati tugagach, u yangi Qonunchilik palatasi ishi boshlaguniga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib turadi. O‘zbekiston Respublikasining saylov kuniga qadar 25 yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan Respublika fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo‘lishi mumkin.

Senat – hududiy vakillik palatasi hisoblanib, senatorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 6 kishidan saylanadi. Yuqori palataning 16 nafar a‘zosi fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Vazirlar Mahkamasi va uning faoliyati. O‘zbekiston Respublikasida hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlangan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi” Qonunga binoan, u O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlisning qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta‘minlovchi ijro etuvchi hokimiyatdir.

Hukumat – davlat boshqaruvining oliy organi bo‘lib, davlat boshqaruv shaklining qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar har qanday davlatning oliy ijroya organi hisoblanadi. Hukumat Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga

oshiradi, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni ta'minlaydi, davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda Qurolli kuchlarga umumiy raxbarlik qiladi. Hukumatning shakllanish tartibi, mazkur davlatda mavjud bo'lgan boshqaruv shakliga bog'liq holda o'rnatiladi hamda turli davlatlarda turlicha nomlanadi. Misol uchun, AQShda – Ma'muriyat, Angliyada va Turkmanistonda – Ministrlar Kabineti, Fransiya va Italiyada – Ministrlar Kengashi, Xitoyda - Davlat Kengashi, Rossiya va Tojikistonda – Hukumat, Yaponiyada – Kabinet va hok. O'zbekistonda Vazirlar Mahkamasi Prezident, Oliy majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi. Vazirlar mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlari, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining raxbarlari kiradi.

Konstitutsiyaga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar ahkamasi faoliyatini tashkil etadi va ungi rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi Prezident tomonidan shakllantiriladi. Prezident Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Oliy majlis palatalariga taqdim etadi. Ushbu masala avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi. Bosh vazirni lavozimidan ozod qilish Prezident vakolatiga kiradi. Vazirlar mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga ko'ra, Prezident tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi **Vazirlar Mahkamasining rayosati** faoliyat ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining ijro hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etishiga doir vakolatlariga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasining a'zoligiga nomzodlarni tasdiqlash uchun Prezidentga taqdim etadi.

2. Vazirlar Mahkamasi Respublika qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

3. O'zbekistonning butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagi faoliyat sohalarini keltirish mumkin:

- ma'muriy-siyosiy sohasidagi faoliyat;
- iqtisodiyot sohasidagi faoliyat;
- ijtimoiy-madaniy sohasidagi faoliyat;

Ma'muriy – siyosiy sohadagi vakolatlar:

1. Respublika boshqaruv tuzilmasini takomillashtiradi.

2. Respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi.

3. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.

4. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat budjetida bo‘lgan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy apparati xodimlarining soni va ularga sarflanadigan mablag‘lar miqdorini belgilaydi.

5. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari raislarining o‘rinbosarlarini, bosh boshqarmalar hamda davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarini lavoziga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

6. Xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralari hay‘atlari a‘zolarini, shuningdek, Hukumat tomonidan tashkil etiladigan xo‘jalik boshqaruvi organlari a‘zolarini tasdiqlaydi.

7. O‘zbekistonning davlat xavfsizligi va mudofaa qudratini oshirish, davlat chegaralarini qo‘riqlashni ta‘minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash va himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

8. Davlat boshqaruv organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish hamda Respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, katta avariya va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko‘radi.

9. O‘zbekistonning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta‘minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi hamda ularni bajarish chora-tadbirlarini ko‘radi. __

Iqtisodiy sohadagi vakolatlar:

1. Iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, mulkchilikning barcha shakllarini uyg‘unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining hukuqiy mexanizmini ro‘yobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart- sharoitlar yaratish.

2. Xo‘jalik yuritishning yangi shakllari-konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa ana shunday tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga ko‘maklashadi, xalq xo‘jaligi va aholi talablarini qondirishdan kelib chiqib, ular faoliyatini

yo‘naltiradi va muvofiqlashtiradi.

3. O‘zbekistonda pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi, yagona narx siyosatini o‘tkazish, mehnatga haq to‘lash miqdorining belgilangan kafolatlarini va ijtimoiy ta‘minot darajasini ta‘minlash chora – tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

4. Respublika budjetini, shuningdek, mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish istiqbollari va eng muhim dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlar:

1. Fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

2. Fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnat qilish

huquqini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot-tizimini takomillashtiradi.

3. Sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Vazirlar Mahkamasining majlislarida davlat boshqaruvi, xo'jalik va ijtimoiy – madaniy qurilishning eng muhim masalalari hal etiladi. Majlislar yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Ularni tayyorlash va o'tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibi to'g'risidagi” qarori bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi majlislarida muhokama etish uchun

masalalar vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, idoralar, korporatsiyalar, kompaniyalar, konserinlar, uyushmalarning rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, ular bo'lmagan hollarda ularning birinchi o'rinbosarlari tomonidan kiritiladi.

O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatining tashkil etish Konstitutsiya, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonun, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari “Ish tartibi” va boshqa me'yoriy qonun hujjatlari asosida tashkil etiladi. Mahalliy ijroya hokimiyati deganda O'zbekistonda tashkil etilgan **viloyat, tuman, shahar hokimiyati** tizimi tushuniladi. Mahalliy vakillik va ijro etuvchi mahkama hokimning rahbarligi ostida ishlaydi. Viloyat hokimlari, Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muommolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuziladi. Bu Kengash tarkibiga hokim, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, kotibiyat boshlig'i kiradi. Maslahat Kengashi tarkibiga hokimning qaroriga muvofiq xalq deputatlari Kengashi a'zolari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kirishi mumkin.

Konstitutsiyaga binoan, mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;_
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda Konstitutsiyaga va qonunlarga zid kelmaydigan vakolatlarni amalga oshirish.

Viloyat, tuman va shahar ijroya hokimiyatiga **hokim** boshchilik qiladi. Hokim Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Mahalliy ijroya hokimiyati organlari **boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan** iborat bo'lib, ularning tuzilishi va tashkil etilish tartibi, faoliyat yuritish asoslari Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi. Hokimning faoliyatini to'g'ri tashkil etishda hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari faoliyatini tashkil etish o'ta muhimdir.

Tuman tarkibidagi shahar va shaharchalarda Kengashlar tuzilmaydi.

Shahar tartibidagi tuman hokimi shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shahar tarkibiga kiruvchi tuman hokimlari shahar hokimini rasmiy vakili hisoblanadi va unga hisob berib turadi. Tumanlar tarkibiga kiruvchi shahar hokimlarining tayinlanishi xam shu tartibda amalga oshiriladi._

3.Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari. 1993 yil 2sentyabrda bo‘lib o‘tgan Oliy Kengashning o‘n ikkinchi chaqiriq uchunchi sessiyasida “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi bu hujjat **qishloq, shaharcha va ovullar** tarkibida tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tuzilishi va ularning huquqiy holatini belgilab berdi.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarga ko‘maklashadilar. Ular o‘z hududlaridagi ijtimoiy-xo‘jalik vazifalarni hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlar o‘tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga Respublika rahbariyati va hukumatining qarorlarini bajarish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi. Konstitutsiyada belgilab qo‘yilganidek, “shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda **fuqarolarning yig‘inlari** o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol)ni uning maslahatchilarini saylaydi. O‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”.

Fuqarolar yig‘inini rais (oqsoqol) tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki hokim bilan kelishilgan holda zaruratga qarab chaqiradi. Fuqarolar yig‘ini shuningdek, xalq deputatlari Kengashi, hokim tomonidan yoki shu hududda yashayotgan fuqarolarning uchdan bir qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

Yuqorida eslatilgan Qonunda fuqarolar yig‘ini **raisi (oqsoqol)** va uning maslahatchilarini saylash tartibi belgilangan bo‘lib, ularni fuqarolarning yig‘ini (yig‘ilishi) tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishgan holda saylaydi.

Fuqarolar yig‘inlarda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan barcha aholining yarmidan ko‘prog‘i ishtirok etgan taqdirda yig‘inlar vakolatli deb hisoblanadi, vakillar yig‘ilishlari esa vakillarning kamida uchdan ikki qismi kelganda vakolatli hisoblanadi. Fuqarolar yig‘ini (yig‘ilishi)ni olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig‘inni rais (oqsoqol) yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo‘yicha qarorlar ochiq ovoz berish orqali va oddiy ko‘pchilik ovoz berish bilan qabul qilinadi.

O‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘z-o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida qarorlar qabul qiladilar. Bu qarorlarni tegishli hududda yashaydigan barcha fuqarolar bajarishlari shart.

V. GLOSSARIY

Zamonbobo	– Buxoro viloyati Qorako’l tumanidagi Zamonbobo ko’li bo’ylarida miloddan avvalgi II mingyillikda yashagan chorvador va dehqonlarning qadimiy madaniyati.
ishlab chiqaruvchi xo’jalik –.	ancha vaqt urug’ni o’simlik va hayvon yegulik mahsulotlari bilan ta’minlab kelgan ziroatchilik va chorvachilikdir. Ziroatchilik termachilikdan boshlangan, chorvachilik esa ov va hayvonlarni qo’lga o’rgatishdan kelib chiqqan
matriarxat –	yeng qadimgi tuzum rivojidadagi bir bosqich bo’lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, urug’ga va oilaga ayol kishi sardorlik qilgan.
patriarxal oila –.	ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topgan oiladir
patriarxat –.	eng qadimgi jamoa tuzumining bir davri bo’lib, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqeyega ega bo’lgan, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan
Sopollitepa –	O’zbekiston janubidagi bronza asri dehqonlari manzilgohidir (mil.av. II mingyillikda).
so’nggi paleolit -	bu davr miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklarni o’z ichiga oladi.
urug’chilik –	o’zaro qon-qarindosh bo’lgan kishilardan iborat dastlabki odamlar uyushmasi.
sivilizasiya -	(lotincha «sivilis»-fuqaroviy, ijtimoiy, ya’ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz) — jamiyatning o’z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarining hamda ularni yanada ko’paytirib takomillashtirib borish usullarining majmui.
eng qadimgi urug’chilik tizimi -	insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo’lgan, hamma odamlar hamkorlikda mehnat qilgan bir davridir.
ark –	shaharning devor bilan o’ralgan mustahkam qismi; ichki qal’a. Unda podsho va uning oilasi, shuningdek, davlat muassasalari joylashgan.
Afrosiyob –	hozirgi Samarqandning sharqiy qismida

	joylashgan shahar.
Baqtriya –	Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, Janubiy Tojikiston va Surxondaryo viloyati
vaysa –	“uy quli”. O'rta Osiyoda qadimgi qulchilik shakllaridan biri, ular dehqonchilik, uy chorvachiligi va boshqa ishlab chiqarish vazifalarini bajarganlar.
varzana –	“vis”lar birikuvidan vujudga kelgan yirik qo'shni jamoa
vis –	“nmana”lar birikuvidan hosil bo'lgan urug' jamoasi
daxyu	– qabilalar ittifoqi
Dovon -	Farg'ona vodiysining qadimgi nomlaridan biri
Yerqo'rg'on	– hozirgi Qashqadaryo viloyati hududidagi qadimgi shahar.
Janubiy So'g'diyona –	Qashqadaryo vohasi
zanti –	qabilalar uyushmasi
Zulqarnayn	– Aleksandr Makedonskiyning laqabi. O'rta osiyoda u shu laqab bilan atalgan. Bu laqab – “ikki shoxli , “ikki tomonni tutuvchi” degan ma'nolarni anglatgan.
Ko'zaliqir -	hozirgi Xorazm viloyati hududida joylashgan shahar.
Marokanda –	Samarqandning yunoncha nomi.
Marg'iyona	– Murg'ob daryosi vodiysidagi qadimiy viloyat. Yozma manbalarda Marg'iyona Marv viloyati va vohasi nomi bilan tilga olinadi.
Marv	- hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan shahar.
massagetlar	– hozirgi Amudaryoning quyi oqimlari va unga tutash bo'lgan yerlarda yashagan qabilalar.
nmana	– katta patriarxal oila
Parkana	– Farg'ona vodiysining qadimgi nomlaridan biri
Politimet	- Zarafshonning qadimgi nomi
saklar	– hozirgi Sirdaryo bo'ylarida, Toshkent viloyati va janubiy Qozog'iston yerlarida, Farg'ona vodiysida yashaganlar.
saka tigraxauda	– “tigr”- bu “o'tkir”, “xauda”- “bosh kiyim”.
saka-xaumovarka	– “xaoma muqaddas ichimlikni ulug'lagan saklar”
saka tiay para so'g'dam	– “so'g'dlarning narigi yog'idagi saklar”.
saka tiay darayyo	– “daryo, dengiz narigi yog'idagi saklar”

Sangirtepa	– hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi shahar
satrap	– viloyat boshlig'i.
satrapiya	– harbiy-ma'muriy hudud.
So'g'diyona.	– Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzasida joylashgan qadimiy o'lka
so'g'dlar	– hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida hayot kechirganlar.
Tanais	– Sirdaryoning qadimiy nomlaridan biri.
Uzunqir	- hozirgi Qashqadaryo viloyati hududidagi qadimgi shahar.
Xorazm	– Amudaryoning o'rta va quyi qismidagi yerlarni o'z ichiga olgan.
Ershi shahri	– Dovon davlati poytaxti
Yaksart	– Sirdaryoning qadimgi turkcha nomi.
O'kuz	– Amudaryoning qadimgi nomi.
Qal'aliqir	- hozirgi Xorazm viloyati hududida joylashgan shahar.
Qang'diz	– Qang' davlatining (ikkita) poytaxtlaridan biri. Oqqo'rg'on tumani hududiga to'g'ri keladi.
Qiziltepa.	- hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi shahar
qal'a	– mudofaa maqsadida qurilgan, strategik jihatdan qulay va mustahkam tayanch punkti.
Abbosiylar	– arab xalifalari sulolasi bo'lib (749-1258 yy.), bu sulolaga Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Abu-ul Abbos as-Saffoh (749-754 yy.) asos solgan. Abbosiylar sulolasi besh asr, ya'ni 749 yildan 1258 yilgacha hukm surgan. Abbosiylardan 38 kishi xalifa bo'lgan.
ajam	– arablar o'zlari bosib olgan hududlardagi boshqa xalqlarni, jumladan, Yaqin, O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo xalqlarini shunday ataganlar.
amir al-mo'minin –	mo'minlarning hukmdori. Ilk islom davrida xalifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab xalifa Umar olgan. Keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan yuritilgan.
amir ul-umaro	– harbiy ishlarni boshqargan
bantak	– qul
biy	– urug' va qabila oqsoqoli

buxorxudot	– Buxoro mahalliy hukmdorlari, yirik yer sohiblari
vazir ul-vuzaro	– ulug' vazir
vaqf	– masjid, madrasa va muqaddas joylar uchun ajratilgan mulk bo'lib, ular soliقدan ozod etilgan.
vag'n	– ibodatxona
vag'npat	– kohin, ibodatxona ruhoniysi
vag'nze.	– ibodatxona tasarrufidagi yer va mulklar
guvokor	– savdogar
devon ad-dar.	– kengash, u o'z navbatida uchga bo'lingan
doya	– cho'ri
dehqon	– “qishloq hokimi”, zamindor
ixshid	– viloyat hokimi, xon yoki amir avlodlari
iqta.	– davlat yerlari xalifa tomonidan harbiy yo'l boshchilar va amaldorlarga umr bo'yi yoki merosiylik tariqasida berilgan
kadivar	– yirik zamindorga mute qishloq aholisi
kashovarz	– ziroatkor
korikor	– xizmatkor
ko'shk	– istehkomli baland qo'rg'on
mulk	– xususiy yer egalariга qarashli yerlar
mufatih	– vaqf ishlarini amalga oshiruvchi shaxs
naf	– ilk o'rta asrlarda Sug'dda shahar va qishloq aholisi shunday nomlangan.
ozod	– mulkdor
ozodkor	– shahar hunarmandi
tudun	– turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili
Ummaviylar	– arab xalifalari sulolasi (661-750 yy.). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiyalar zodagoni Abu So'fyonning o'g'li Muoviyadir. Muoviya xalifa Ali hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qilgan.
ushr	– musulmon mamlakatlarida natura shaklida undirilgan soliq. Ushr solig'i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan.
xiroj	– yer solig'i; Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i. Xiroj O'rta Osiyoda VII asrda arablar tomonidan

	joriy qilingan; hosilning 20-25% hisobida olinadigan qishloq xo'jalik solig'i;
xoqon	– hukmdor, podsho
xutba	– juma va ulug' ayyom kunlari masjidida imom xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pand-nasihatlar. Shuningdek, o'rta asrlarda xalifa va mahalliy hukmdor nomini tilga olib imom tomonidan o'qiladigan duo ham xutba deyilgan.
Chag'oniyon	– O'rta asrlarda Movarounnahrda qadimiy viloyat. Uni hozirgi Surxondaryo viloyati hamda qisman Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lgan.
shayx ul-islom	– eng yuqori pog'onada turuvchi huquqshunos shaxs
shod	– Turk xoqonligidagi tuman – o'n minglik lashkar boshlig'i
yabg'u, jabg'u o'rda	– el-yurt hokimi, mahalliy hokim
	– 1. Turkiy va mo'g'ul xalqlarida harbiy-ma'muriy tashkilot, manzilgoh. O'rta asrlarda oliy hukmdorlar qarorgohi, poytaxti; 2. Podshoh, xon yoki biror oliy martabali shaxsning harami.
qasr	– saroy
qo'rg'on, qo'rg'oncha	– atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan darvozali turar joy
g'azavot –	din uchun kurash. Islomda g'ayridinlarga qarshi musulmonlarning muqaddas urushi.
akkorlar	– ijaraga ishlovchilar
amid ul-mulk	– davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri
amiri-oxur yoki miroxur	– otxona boshlig'i lavozimi bo'lib, bu amaldor sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egallik qilgan.
amiri-shikor	– sultonning ov ishlarni tashkil qiluvchi amaldor
ariz	– qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi vazir
ark	– ichki qal'a, podshohning shahar ichidagi qo'rg'on-saroyi, qarorgohi.
“arslonxon” va “bug'roxon”	– oliy daraja hukmdori ma'nosini anglatgan.
band	– toshlardan bino qilingan suv omborining to'g'oni; suv ombori; to'g'on.
barzikor	– qo'shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi

vazir	– devonxona boshlig'i
vaqf yerlari	– machit, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun beriladigan yerlar
devon	– vazirlar mahkamasi
jamoat yerlari	– qishloq jamoalari tasarrufida bo'lgan ma'lum hajmdagi yer maydonlari
juybon	– suv taqsimlovchi mirob
ilikxonlar	– Movarounnahrni 999 yildan 1212 yilgacha idora qilgan qoraxoniylar hukmdorlarining unvoni.
iqta'	– Saljuqiylar davrida yer parchasi, chek, uni hokim o'z vassallariga vaqtincha berardi, yer meros qolmasdi. Iqto'ning bir ko'rinishi.
iqto'	– o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga in'om qilingan chek yer. Odatda, iqto' umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtida qaytarib olib, boshqa kishiga tortiq qilishi mumkin bo'lgan.
iqtodor	– mulkdor
koriz	– yer osti suv inshooti
Marv	– O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Turkmanistonning Bayramli shahri yaqinida, Murg'ob daryosi qirg'og'ida joylashgan.
muzora'a	– ijaraga beriladigan yerlar
mustavfiy	– moliya vaziri
muxtasib	– tosh-tarozu, narx-navo va mafkura nazoratchisi
otaliq	– dastlab saljuqiylar sulolasi davrida (1038-1194 yy.) xon e'tiborini qozongan kishilarga berilgan mansab. O'taliq. –“Ota o'rniga ota” degan mazmunga ega bo'lib, uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog'atga yetgunlariga qadar boshqarishdan iborat bo'lgan.
poykor	– kichik mirob, qishloq mirobi
rabod	– musulmon Sharqidagi o'rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do'konlari joylashgan qismi. Rabodlar VII-VIII asrlarda paydo bo'lib, shaharlarning arki yoki shahristonning atrofiga qurilgan.

rabot	– g’oziylarga mo’ljallanib qurilgan maxsus binolar. Rabot faqat qo’rg’on, istehkomgina emas, shu bilan birga mehmonxona (karvonsaroy) ma’nosida ham tushunilgan.
sardoba (obdon)	– pishiq g’ishtdan qurilgan gumbazli hovuz; suvxona.
safforiylar	– Safforiylar davlatida hukmronlik qilgan sulola. Safforiylar nomi uning asoschisi Yoqub ibn Lays al-Saffor nomidan olingan.
saljuqiylar	– XI-XIV asr boshida Yaqin va O’rta Sharqdagi bir necha davlatlarda hukmronlik qilgan sulola. Sulola nomi ko’chmanchi turk-o’g’uz qabilasi boshlig’i Saljuq nomidan olingan.
sohibi shuhrat	– harbiy vazir
sulola	– bir urug’dan yoki avloddan tarqalgan podshohlar yoki xonlar nasli. Masalan, somoniylar, ahamoniylar, g’aznaviylar va h.k.
takin	– viloyat noiblari
“tamg’achxon”	– xonlar xoni
tashtdor	– sultonning yuvinishida zarur bo’lgan ashyo va narsalarni saqlovchi shaxs.
tohiriylar	– Tohiriylar davlatini boshqargan sulola. Asoschisi – Tohir ibn Husayn.
ustozdor	– barcha xo’jalik ishlari: otxona, oshxona, novvoy, saroy xizmatkorlari ustidan idora ishlarini amalga oshirgan saroy a’yoni.
ushur	– hosilning 1/10 hisobidagi solig’i
xiroj	- hosilning 1/3 hisobidagi solig’i
shayxulislom	– din va ilm peshvosi
shahriston	– o’rta asrlarda Sharqdagi shaharlarning markazi, ya’ni mudofaa devori bilan mustahkamlangan shaharning asosiy qismi. Shahristonda saroy, jome masjidi, yopiq yoki ochiq bozor, bosh maydon – registon, muhim ma’muriy binolar, hukmdor va uning yaqinlarini qo’rg’onlari, shuningdek, oddiy aholi xonadonlari va boshqalar bo’lgan.
xatib	– din peshvosi
eloqxon	– elning oq xoni; yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi.
“qoraxon”	– ulug’ xon
g’oziylar	– ko’chmanchilar hujumiga qarshi

	ko'ngillilardan tuzilgan qurolli maxsus guruh, adolat kurashchilari
hojib	– harbiy boshliq
hojib ul-hujob	- qo'mondon
hojib ul-buzruk	– bosh qo'mondon
hojib ul-Kabir	- hukmdor shaxsi bilan bog'liq masalalar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar shaxs.
hojib ulbob	– Saljuqiylar saroyi eshikog'asi
hojibi buzurg	(ulug' hojib) – XI-XIV asrlarda Movarounnahrda mavjud bo'lgan amallardan. Hojibi buzurg Saljuqiylar davrida nohiyalarga hokim etib tayinlanishi mumkin bo'lgan.
mutafakkir	– chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi.
muftiy.	– fatvo beruvchi, qaror chiqaruvchi, sud ishlarini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs
muhaddis.	– islom dunyosida hadis ilmi bilan shug'ullanadigan olim
renessans	- so'zi fransuzchada «qayta tug'ilish, yangi ruhda o'sish» ma'nolarini bildiradi va o'zbekchada ba'zan, «uyg'onish», deb ham yuritiladi.
ulamo	– islom ilohiyotchilari va huquqshunoslari, shuningdek, diniy muassasalarga, qozilik mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha musulmon dindorlari ulamolar deb yuritilgan.
shayx ul-islom	– eng yuqori pog'onada turuvchi huquqshunos shaxs
qozi	– sud ishlarini amalga oshiruvchi, sharhlovchi shaxs
g'oziy	– Islom dini uchun g'ayridinlarga qarshi muqaddas urush – g'azavot ishtirokchisi. Shariatga ko'ra, bunday urushda oti va quolyarog'i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo'lgan. Kambag'allar, qullar, nogironlar va keksa kishilar bundan ozod etilgan.
barot	– ijaraga olish; soliqlar mahalliy xonlar tomonidan barot tartibida avvaldan to'planib, aholidan yig'ib olish paytlarida ular shubhasiz rasmiylashtirilgan miqdordan oshirib

	undirilgan.
bosqoq	– mo'g'ullar hukmronlik qilgan XIII – XIV asrlarda mahalliy hokim
dinor	– bir misqol (4,8 gr) og'irlikda so'qilgan oltin yoki kumush tanga.
dirham.	– mayda kumush tanga
yom	– savdo yo'llarida joylashgan bekat; ularning xizmati va xarajati ham aholiga yuklatilgan edi.
iqto	– yirik mansabdorga hadya etilgan yer va mulk.
iqtodor	– barcha soliq va to'lovlardan ozod etilgan yirik mansabdor, harbiy ma'mur
kadivar	– yirik zamindor va ularning xo'jaliklariga qaram bo'lib qolgan dehqon.
kalon	- XIII asrdagi yer solig'i; hosilning 1/10 qismi hajmida
keshik	- XIII asrda mo'g'ullar qo'shinidagi zaxira qism; maxsus gvardiya
muzoriy	– ziroatkor dehqon, polizkor
mulki devon	– davlat yerlari
mulki inju-xon	– noiblar va ularning avlodlari tasarrufidagi yerlar
mulki vaqf	- machit, madrasa, xonaqoh va maqbaralar ixtiyorida yerdar.
mulklar	– xususiy yerlar
no'yon	– bir tuman (10 ming) qo'shin qo'mondoni. Qadimgi turk va mo'g'ul qo'shinlarida shahzoda va sultonlar no'yon deb atalgan. XIV- XVI asrlarda eng nufuzli amirlargina no'yon bo'lgan.
Oltin O'rda	– tarixiy manbalarda Jo'chi ulusi deb ham yuritiladi. XSh asrning 40-yillarida Chingizxonning nabirasi Jo'chixonning o'g'li Botuxon (1208-1255 yy.) tomonidan bosib olingan Sharqiy Yevropa Jo'chi ulusiga qo'shilgach, tashkil topgan davlat Oltin O'rda deb atalgan.
payza	- yorliq
suyurg'ol	– oliy tabaqa zodagonlarga in'om qilingan yer-mulk
tuman	– 1) o'n ming degan ma'noni anglatadi. O'n ming aholisi bo'lgan yoki o'n ming kishilik

	qo'shin yetkazib berishga qodir bo'lgan okrug. Shuningdek, o'n ming otliqdan tashkil topgan qo'shin ham tuman deb atalgan; 2) Oktyabr inqilobiga qadar O'rta Osiyoda ma'muriy-hududiy bo'linish; uyezd.
ulus	– tor ma'noda ma'lum bir urug', qabila yashab turgan sarhadni ifodalagan; kengroq ma'noda esa xon va uning oila a'zolariga tegishli yerlar va ularga bo'ysunuvchi hamda shu yerda istiqomat qiladigan aholini qamrab olgan ma'lum bir sarhad tushunilgan.
xoqon yoki qog'on	- hukmdor, podsho
xoqon	– turk, xitoy, mo'g'ul hukmdorlari unvoni.
xon	– turkiy xalqlar va mo'g'ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan.
Xo'jand	– hozirgi Tojikiston Respublikasidagi davlat.
chig'atoy ulusi	– Chingizxon tomonidan Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlarning umumiy nomi (1224 yildan boshlab). Hududi Movarounnahr, Yettisuv va Qashqardan iborat bo'lgan.
chig'atoylar	- Chig'atoy ulusini idora etgan sulola (1224-1370 yy.). Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy (1242 yil vafot etgan) nomidan kelib chiqqan.
shulen.	– XIII asrda olingan oziq-ovqat solig'i; har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan
yaso (Yosoq)	– Chingizxon zamonida joriy etilgan qonun-qoida. Fuqarolar yasoga, ya'ni qonun-qoidalarga qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor yasovul deb aytilgan.
yasovul	– o'rta asrlarda Mo'g'uliston, O'rta Osiyoda podshoh yoki xon saroyidagi kichik mansabdor. Oliy hukmdorning amru-farmoyishlarini bajaruvchi shaxsiy xizmatkori.
O'tror	– Sirdaryoning o'ng sohilida, Aris daryosi bo'yida joylashgan yirik o'rta asr shahri.
qopchur	– mo'g'ullar davrida chorvadan olinadigan soliq; 100 bosh chorvadan 1 bosh olingan.
G'azna	– Afg'onistonning yirik shaharlaridan. Qobulning janubida, Hindistonga olib

	boradigan karvon yo'li ustida joylashgan.
amir ul-umaro	– amirlar amiri, oliy amir degan ma'noni anglatgan. Oltin O'rda, Chig'atoy ulusida butun harbiy ishlar uning tasarrufida bo'lgan. Bundan tashqari, Amir ul-umaroga hukumatning barcha bosh ijroiya idoralari ham bo'ysungan. Amir Temur va temuriylar davrida amir ul-umaro faqat oliy bosh qo'mondon, ayrim hollarda, hukmdorning xudoychisi bo'lgan.
ayl	– o'nlik qo'shin
banno	– g'isht teruvchi binokor
begor	– hashar ishlari
dorug'a	– harbiy ma'mur
dorug'ona	– dorug'alar foydasiga to'planadigan to'lov
jeta	– qoroqchi
zakot	– chorva mollarining 1/40 miqdoridagi soliq
izofa	– zahira qo'shinlar
koriz	– yer ostidan o'tkazilgan ariq.
muzoriy	– qo'shchi; ziroatkor, ekin ekuvchi
riyoziyot	– matematika
rasadxona	– osmon jismlarining holati va harakatini kuzatadigan maxsus joy.
sarbadorlar	– XIV asrda Eron va O'rta Osiyoda mo'g'ullar hamda mahalliy zodagonlarga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilari. So'zma-so'z ma'nosi “o'z boshini dorga tikkanlar”.
sanad	– shahodatnoma, hujjat
Sohibqiron	– 1) Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini to'sishi paytida tug'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz – Zuhro va Mushtariy sayyoralari bir-biriga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi “baxtiyor podshoh”, “qudratli podshoh” demakdir.
sudsi faxriy	– sekstant (astronomik uskuna)
suyurg'ol	– oliy tabaqa zodagonlarga in'om qilingan yer-mulk.
tabl	– katta nog'ora
tamg'a	– savdo boji, savdogarlardan olinadigan soliq
tarxon	– yorliq; ushbu yorliqni yirik mulk egalari

	birov xizmati uchun berilib, unga binoan mulkdor barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan.
ushr	– mulk yerlarining bir qismidan, ya'ni hosilning 1/10 miqdorida olinadigan soliq
fulus	– mayda mis chaqa
xiroj	– sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq
yalov	– bayroq
qoravul	– Temur va temuriylar davrida hamda ko'chmanchi o'zbek xonlari davrida qo'shinning oldida borgan otryad. Qoravulning asosiy vazifasi qo'riqchilik xizmatini o'tash hamda harakatdagi qo'shinning old tomonida nimalar bo'layotganini kuzatib, undan doim xonni xabardor qilib turishdan iborat bo'lgan. Qoravul birinchi bo'lib jangga kirgan. Shuningdek, xon va sultonning qarorgohini qo'riqlovchilar ham qoravul deb atalgan. Ammo ular bilan qo'shin tarkibidagi qoravul o'rtasida juda katta farq bor. Xon va sultonlar qarorgohini qo'riqlovchi qoravullar xon va sultonlarning mayda xizmatkorlari bo'lib, ular doimo xon va sultonning xavfsizligini ta'minlash hamda ularni qo'riqlash bilan shug'ullangan.
hazora	– minglik qo'shin
ho'shun	– yuzlik qo'shin
amin	– 1. Buxoro amirligida tuman yoki qishloq oqsoqoli; 2. Bozorda sotuvchilardan soliq undiruvchi mansabdor;
aminona	– Buxoro amirligi hududida, Samarqand va Farg'ona bozorlarida XVIII-XX asr boshlarida chorva va oziq-ovqat mollarini sotuvchi kishilardan undiriladigan maxsus bozor haqi. Shuningdek, O'rta Osiyo hududidagi aminlar foydasiga yig'ib olinadigan soliq ham aminona deyilgan.
amirlik	– musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqarilgan mamlakat. XVIII asrning ikkinchi choragidan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.
amiri	shikor – ov boshlig'i yoki sohibi. XV-XVI asrlarda ko'chmanchi o'zbek xonlari davrida

	mavjud bo'lgan davlat mansablaridan biri. Bu mansabni olgan amirlar zodagonlar hayotida, ayniqsa, xonlar va sultonlar hayotida muhim bo'lgan xon ovini tashkil qilish edilar.
amlak	– 1. XVI-XX asr boshlariga qadar O'rta Osiyo xonliklarida mavjud bo'lgan davlatga qarashli yer egaligi; mulklar, yer-suv, kishi tasarrufidagi narsa va buyumlar amlok deyilgan.
dasturxonchi	– amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.
devonbegi	- davlatning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirishni ustidan nazoratni ham devonbegi olib borgan. Devonbegi Ark etagida yashagan.
dodxoh	– fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi amaldor
inoq	– bu lavozimda ishlagan amaldorning vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo'lgan.
ko'kaldosh	– butun amirlik hududida do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumot to'plagan.
mingboshi	– harbiy va ma'muriy unvon. Qo'qon xonligida xondan keyingi mansab.
mirshab.	– tungi shahar soqchilari boshlig'i vazifasini bajargan
mirob	– Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida suv taqsimoti va sug'orish tizimi ustidan nazorat qiluvchi shaxs.
miroxo'r	– amir otxonasining boshlig'i bo'lgan.
muftiy.	– qazikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqargan
mushrif	– lavozimida ishlagan amaldorlar xonga inom etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan.
muhtasib	(rais ham deyilgan) – musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatgan, masjidlarga borib nomoz o'qishga keluvchilar

	ro'yxatini, bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshirgan. Ayni paytda u ichkilikbozlik, sudxo'rlikka ham qarshi kurashgan.
no'yon	– bir tuman (10 ming) qo'shin qo'mondoni. Qadimgi turk va mo'g'ul qo'shinlarida shahzoda va sultonlar no'yon deb atalgan. XIV- XVI asrlarda eng nufuzli amirlargina no'yon bo'lgan.
oftobachi	– O'rta Osiyo xonliklarida hukmdor saroyida hukmdorning qo'lga suv quyuvchi shaxs bo'lib, yuqori mavqyega ega bo'lgan lavozimlardan biri.
parvonachi	– XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud bo'lgan mansab; vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Biror bir shaxs biror lavozimga tayinlanganida, bu haqdagi yorliqni o'sha shaxsga va boshqalarga yetkazuvchi amaldor.
kitobdor	– amir kutubxonasi va barcha viloyatlar kitobdorlari boshlig'i.
sadr	– Buxoro amirligida XIX-XX asrlarda amalda bo'lgan, diniy ilohiyot ilmida erishgan yutuqlariga qarab beriladigan unvon bo'lib, avval “o'roq”, “sudur” va ulardan keyin oxirgi, uchinchi unvon “sadr” bo'lgan.
sadrlar	- vaqf mulklarini boshqaruvchilari bo'lib, vaqf muassasasining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayd etib qo'yilgan. Ular vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini olardilar.
suyurg'ol	– biror hukmdor tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga berilgan in'om. Suyurg'olga berilgan yer nasldan-naslga meros bo'lib o'tgan.
soliq	– ma'lum tartibda aholidan davlat foydasiga to'planadigan pul, mablag'.
tanho	– O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan suyurg'olning bir ko'rinishi bo'lib, u faqat harbiylarga berilgan. Tanho ham suyurg'olga o'xshab pul, mol-mulk, yer-suv tariqasida berilgan.
tarxon	– O'rta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat

	solliqlaridan ozod qilingan yer-suv, mol-mulklari.
tug'begi	– Buxoro xonligidagi harbiy mansablardan biri. Tug' (tuq)– bayroq. U xon qo'shinining asosiy bayrog'ini qo'riqlovchi va yurish vaqtida uni ko'tarib yuruvchilarga boshchilik qilgan harbiy mansabdor.
to'qsobo	– harbiy unvon bo'lib, XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida xon bayrog'ini qo'riqlagan maxsus harbiy qism boshlig'i.
ellikboshi	– harbiy-ma'muriy unvon. O'rta Osiyo xonliklarida yuzboshidan keyingi mansab. 50 nafar askardan iborat harbiy qism qo'mondoni yoki 50 nafar askar ajrata oluvchi mahalla, qishloq yoki ovul rahbari. Ellikboshi mingboshi tomonidan tayinlangan.
shayxulislom	– musulmon jamoasi boshlig'i; qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi, hukmdorning eng yaqin kishisi. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo'lib ham o'tgan.
shag'ovul	– xonlikda ikkinchi ma'muriy shaxs bo'lgan mehtar moliya, soliq va hashar ishlariga mutassadiylik qilishdan tashqari u bosh vazir sifatida davlatning tashqi munosabatlariga ham rahbarlik qilgan. Bu sohada shag'ovul bevosita uning yordamchisi hisoblangan. Shag'ovul ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan.
qozi	– shariatda sudya, huquqiy ishlarni hal etuvchi vazifasini bajaruvchi mansabdor. Qozi shuningdek, vasiylikka, vasiyatning bajarilishiga, meros taqsimotiga tegishli ishlarni amalga oshirgan. Vaqf ham qozi nazoratida bo'lgan.
qozikalon	– Buxoro amirligida dindorlar va mullalarning boshlig'i, ya'ni raisi bo'lgan. Shu bilan birga, bu davrda barcha musulmon davlatlarida bo'lgani kabi, Buxoroda ham huquq masalalari dinga qarashli bo'lib, dindorlar qo'lida ekanligi sababli qozikalon barcha huquq masalalari va lashkar ma'muriyatining ham raisi hisoblangan. Bosh qozi ham diniy, ham adliya ishlarini boshqargan.

qozi urdu	– Xiva xonligida qozi askar shunday atalgan. Amalda u harbiy xizmatdagilarning qozisi-sudyasi bo'lgan.
qozi-ul-quzzob	– qozikalon o'rinbosari.
qoravulbegi	– O'rta Osiyo xonliklarida qoravullik xizmatini bajaruvchi harbiy qismlarning boshlig'i.
qal'abon	– Qo'qon xonligida xonlikning chegara hududlarida joylashgan qal'a va istehkomlarning hokimi. Ushbu vazifaga, odatda, harbiy maqsadlardan kelib chiqqan holda dodxohdan qo'shbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlangan.
qalachi	– xiva xonligida rus shaharlaridan mol keltiruvchi savdogarlarni shunday deb atashgan.
qutidor	– 1. Sarmoyador; 2. Qo'qon xonligida: soliqlardan to'plangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori.
qushchi, qushbegi	- XV-XVI asrlarda podshoh va xonlar qushxonasining mutasarrufi bo'lgan. Uning zimmasiga ovni tashkil qilish va o'tkazish vazifalari yuklatilgan.
qo'shbegi	– qo'sh, harbiy lager, qarorgohning boshlig'i. XIX asrdan boshlab Xiva xonligi, Qo'qon xonligida xonning birinchi vaziri hisoblangan. Buxoro amirligida esa qo'shbegi mansabi oliy mansab (vaziri buzruk) hisoblangan. Mang'itlar sulolasi davrida qo'shbegiga barcha viloyatlarning hokimlari, beklari bo'ysungan hamda amirning poytaxtda bo'lmagan vaqtida xonlikning barcha ishlarini boshqargan. Qo'shbegi mansabidan keyin Otaliq mansabi turgan.
amin	– Rossiya imperiyasi davrida Farg'ona vodiysi, Samarqand, Kattaqo'rg'on uyezdlarining ayrim volostlarida xalq tomonidan saylanib bir yoki bir necha kichik qishloqni boshqaruvchi amaldor. Buxoro amirligida amin amlokdonga, Turkiston general gubernatorligida esa volost boshlig'iga itoat etgan.
jadid	– jadidchilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi.
jadidchilik	– usuli jadid, ya'ni “yangilik uchun”

	iborasidan kelib chiqqan bo'lib, yangilik uchun kurashganlar va ularning g'oyasi shunday deb atalgan.
jadid maktablari	– eski musulmon diniy maktablarini isloh qilib, yangicha usulda ta'lim bergan va jadidchilik g'oyalari ilgari surgan maktablar. Bu maktablarda diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'qitilar edi.
jandarmeriya	– Rossiya imperiyasida siyosiy muhofaza, tintuv ishlari olib borish, davlatga qarshi siyosiy chiqishlarga qarshi kurash uchun xizmat qiladigan maxsus polisiya qo'shinlari.
yosh buxoroliklar	– Buxoro jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan partiya bo'lib, taraqqiyparvar va mahalliy burjuaziya vakillari mavjud tuzumga qarshi demokratik islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lganlar.
yosh xivaliklar	– Xiva jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan partiyayu Ularning maqsadi xon hokimiyatini cheklab, konstitusion monarxiyaga o'tish.
ko'nka	– to'rt yoki oltita ot bilan harakatlantirilgan bir vagonli, tor izli shahar transporti. Toshkentda ko'nka XIX asr oxirlarida qurilib, Xadra bilan temir yo'l vokzali orasida qatnagan. Undan 1915 yilgacha foydalanilgan.
oxranka	– Turkiston o'lkasida Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida yashirin polisiya tashkiloti shunday atalgan.
to'ra	– Turkiston o'lkasida podsho ma'murlari nomiga hurmat yuzasidan qo'shib aytilgan atama.
uyezd	– Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasida joriy etilgan ma'muriy-hududiy bo'linma.
eshon	– lug'aviy ma'nosi “ular”, “u kishi” degani. Ulug' avlodlarning va sufiylik oqimida diniy rahnamolarning faxriy unvoni. Eshonlar musulmonlar jamoasining boshlig'i, murabbiysi, shuningdek, darvishlarning ham diniy murabbiysi hisoblangan.
BXSR	- Buxoro Xalq Sovet Respublikasi
Skobelev	- hozirgi Farg'ona
Perovsk	-hozirgi Qizilo'rda

muvaqqat	– vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan.
muxtoriyat	– o'ziga mustaqil; avtonomiya.
TASSR	- Turkiston Avtonom Sovet Sosialistik Respublikasi
XXSR	– Xiva Xalq Sovet Respublikasi
MIK	- Markaziy Ijroiya Komiteti
RSFSR	– Rossiya Sovet Federativ Sosialistik Respublikasi
nozir	– o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida saroy ta'minoti va uni xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdor. XX asr boshlarida Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo'yicha xalq nozirlari tayinlangan bo'lib, ular o'sha soha bo'yicha ishning borishiga javobgar shaxs hisoblanganlar.
sovxo'zlar	- davlat xo'jaliklari
kolxo'zlar	- jamoa xo'jaliklari
jamoalashtirish –	kollektivlashtirish
«Quloqlar» sifatida ro'yxatga olingan badavlat xo'jaliklar	- mol-mulki to'liq musodara qilinib, oilalari Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog'iston, Uzoq Sharq kabi o'zga yurtlarga surgun qilingan badavlat xo'jaliklar.
«staxanovchilik harakati» -	«sosialistik» musobaqa
MTSlar	- mashina-traktor stansiyalari
RTS	- remont texnika stansiyalari
TSR	- Turkiston Sovet Respublikasi
NEP	– Yangi iqtisodiy siyosat (novaya ekonomicheskaya politika)
tanazzul	– orqaga qarab ketish; inqiroz, tushkunlik.
qaramlik	— mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil yo'llar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarining hukmronligi o'rnatilishi oqibatida davlat hokimiyatining oliylik va suverenlik belgilaridan mahrum bo'lishi. Qaram davlatlar metropoliya davlatlariga siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qaramlik zanjirlari bilan bog'langan bo'ladilar.
«qizil imperiya	» - 1917-1991 yillarda mavjud bo'lgan sobiq sho'ro davlatiga nisbatan ishlatiladigan atama. «Imperiya» so'zi lotincha bo'lib, mutlaq hokimiyatga ega hokimni, mahkumlar, mazlumlar ustidan cheklanmagan huquqqa

	ega, jabr-zulm va ezishga asoslangan idora etish va boshqarish usulini, mustamlakalarga egalik qiluvchi va qaram xalqlarni asoratga solib shafqatsiz ekspluatasiya qiluvchi yirik tajovuzkor davlatni bildiradi.
tanazzul	– orqaga qarab ketish; inqiroz, tushkunlik.
korenizasiya – mahalliyashtirish	
hokimiyatning uch asosiy tarmog’i	- davlat hokimiyatining taqsimlanishi tamoyili, ya’ni davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo’linishi demokratik huquqiy davlatga xosdir.
huquqiy demokratik davlat	- jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng mukammal shakli va mazmuni. Huquqiy demokratik davlat uchun kurash bundan to’rt-besh asr muqaddam boshlanib, faqat XX asrning ikkinchi yarmida haqiqatga aylana boshladi.
fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari	- O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasi va «Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risidagi Qonunning 1-moddasiga binoan, shahar, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig’inlari o’zini-o’zi boshqarish organlari.
O’zbekistonda sud hokimiyati	- mamlakatimiz davlat hokimiyatining uch mustaqil tarmoqlaridan biri hisoblanib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, shuningdek, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqil ish yuritadi. Sud hokimiyatini mamlakatimizda Konstitusiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo’jalik sudi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Xo’jalik sudi, Toshkent shahar sudi, viloyat sudlari, shahar va tuman sudlari amalga oshiradi.
to’rtinchi hokimiyat	- jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari (OAV)ning, ya’ni gazetalar, jurnallar, radio, televideniye va ommaviy axborot tarqatishning boshqa vositalarining jamiyat a’zolariga ta’sir kuchiga aytiladi.
GKChP	- Favqulodda holat Davlat Komiteti
MDH	- Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi

BMT	- Birlashgan Millatlar Tashkiloti
YeXHT	- Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti
YeTTB	- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
milliy qadriyatlar	— millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlari, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar. Milliy qadriyatlari bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millat — milliy qadriyatlarning sohibi; millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.
qadriyatlar	— borliq, jamiyat, narsalar, voqeaalar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalar hayotning eng asosiy mavzulari bo'lib hisoblanadi.
BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI	(BMT) - Yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945 yilda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot.
ShANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI	- tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan xalqaro hukumatlararo tashkilot. 2006 yil boshlanishida oltita davlatni — Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonni o'z ichiga oladi.
YevrAzES	— Yevropa—Osiyo Iqtisodiy hamjamiyati, 2000 yil oktyabr oyida Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston mustaqil davlatlari rahbarlari imzo chekkan Shartnoma asosida tuzilgan xalqaro tashkilot.
globalashuv	(globalizasiya) — lotincha «glob» so'zidan olingan bo'lib, aynan uni «dumaloqlashuv», «kurralashuv» deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi

	bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.
<p>VOTUM (<i>lot. votum — xohish, iroda</i>) – saylov jamoasi yoki vakillik muassasasining ko'pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov votumi — prezident, parlament, munisipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kampaniyasining natijasi. Boshqaruvning parlamentar shaklidagi davlatlar parlamenti amaliyotida votum — qoidaga ko'ra, quyi palataning hukumat yoki alohida vazirning siyosiy yo'li, muayyan xatti-harakati yoki qonun loyihasini ma'qullashi (ishonch votumi) yoki ma'qullamasligidir (ishonchsizlik votumi). Ishonch votumi to'g'risidagi masalani qo'yish tashabbuskori hukumatning o'zi, parlament fraksiyasi yoki deputatlar guruhi bo'lishi mumkin. Hukumatga ishonchsizlik bildirilishi amaliyotda shu hukumatning iste'fo berishiga va yangi hukumatni tuzishga (hukumat tangligiga) yoki parlamentni (quyi palatani) tarqatib, parlamentga muddatidan oldin saylovlar o'tkazishga olib kelishi mumkin. Ikkinchi variant hukumatga parlamentni muddatidan oldin tarqatib yuborishni po'pisa qilish va shu orqali noma'qul qonun loyihalarini parlamentdan o'tkazish imkonini beradi. Ko'plik (plyural) votum – ayrim mamlakatlarda bunday votumga ko'ra saylovchilarning ayrim toifasi saylovda ikki yoki undan ortiq ovozga ega bo'ladi.</p>	

<p>Bilvosita (eventual) votum – mutanosib saylovlar tizimida ovoz berish natijalarini aniqlash tartibi, unga ko'ra ma'lum nomzodga berilgan va saylov kvotasidan ortiqcha bo'lgan ovozlar shu partiya ro'yxatidagi boshqa nomzod hisobiga o'tkaziladi.</p> <p>Majburiy votum - ayrim mamlakatlarda barcha yuridik salohiyatli fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ishtirok etish bo'yicha yuridik majburiyati (bu tartibni buzganlarga jarima solinishi mumkin).</p>	
<p>VAZIR</p>	<p>(arab. yuk ko'taruvchi) – o'rta asrlarda O'rta va Yaqin Sharq davlatlarida, shu jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i. Yuqori mansabdor shaxs. V. hukumat a'zosi hamda ma'lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxsdir.</p>
<p>VAZIRLAR MAHKAMASI</p>	<p>– Isroil, Latviya, Yaponiya, Shri-Lanka, Qozog'iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.</p>
<p>VAZIRLAR MAHKAMASINING FARMOYISHLARI</p>	<p>- Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar</p>

	Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.
DEPUTAT	(lotincha deputatus – “vakil”) – qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga saylangan shaxs, aholining ma'lum qismi – o'z saylov organi saylovchilarning yoki butun millatning vakili.
INSON HUQUQLARI	– insonning davlatga munosabati bo'yicha huquqiy maqomini, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyat va da'volarini ifodalovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali amalga oshirilishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.
INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY MARKAZ	– inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yanada kengaytirish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida tashkil etilgan markaz.
	KO'PPARTIYAVIYLIK – hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitusiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni ancha umumiyroq bo'lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. K. P. prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o'z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi.
MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH	– mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni aholining manfaatlari, uning tarixiy, ijtimoiy-etnik va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, shu davlat konstitusiyasi va qonunlari asosida

	<p>mustaqil (mas'uliyatni zimmasiga olib) hal qilish uchun fuqarolar faoliyatini tashkil etish tizimi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni aholi hokimiyat vakillik organlari (munisipal majlis, kengashlar, qo'mitalar va boshqalar), muvofiq keluvchi boshqaruv organlari, mahalliy referendumlar, fuqarolar kengashlari, bevosita demokratiyaning boshqa hududiy shakllari, shuningdek, aholining hududiy ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiradi.</p>
<p>NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI</p>	<p>– nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.</p>
<p>OMBUDSMAN</p>	<p>– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan.</p>
<p>OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI</p>	<p>– ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri bo'lib, u demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirishda, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotdagi voqyelikka nisbatan dahldorlik xissini shakllantirishda, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati, shuningdek jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar, bo'layotgan jarayonlar xususida keng</p>

	<p>jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka muvofiq ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikasiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasi sifatida e'tirof etiladi.</p>
PARLAMENT	<p>(ingl. parlament, frans. raglyeg — gapirmoq) — demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada Belgiya, Moldova, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda oliy vakillik organi "parlament" deb yuritiladi; AQShda va Lotin Amerikasining ko'pgina mamlakatlarida p. kongress deb, Rossiya Federasiyasida – Federal Majlis – Rossiya Federasiyasi P. deb, Litva va Latviyada – Seym deb ataladi. Tuzilishiga ko'ra p. bir palatali yoki ikki palatali bo'ladi (qarang: Ikki palatali tizim, Bir palatali tizim). Tarixda uch palatali p. ham bo'lgan (masalan, JARda 1984-1994 yillarda). P. birinchi marta XIII asrda Angliyada tabaqalarning vakillik organi sifatida tashkil qilindi.</p>
SAYLOV	<p>– demokratiyaning asosiy belgisi bo'lib, ovoz berish yordamida davlat hokimiyatining vakillik organlarini yoki mansabdor shaxsini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, jamoat birlashmalarini va boshqalarni bevosita xalqning xohish-irodasiga asoslangan holda, ular tomonidan yoki boshqa organ tomonidan shakllantirish bilan bog'liq jarayondir. Saylov tushunchasi ko'proq davlat hokimiyatining vakillik organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saylashga nisbatan qo'llaniladi.</p>
SAYLOV TIZIMI	<p>– demokratik jamiyat siyosiy tizimining</p>

	<p>muhim qismi bo'lib, fuqarolarning saylash va saylanishdan iborat huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisini anglatadi. Ushbu tushuncha davlatning saylab qo'yiladigan organlarini shakllantirish tartib-tamoyillarini ham o'z ichiga qamrab oladi.</p>
SIYO SIY PARTIYA	<p>– O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir (O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonuni 1-moddasi).</p>
TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK)	<p>- tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.</p>
TAKRORIY OVOZ BERISH	<p>– saylovda nomzodlar yetarli ovoz to'play olmaganda takroriy ovoz berish o'tkaziladi. Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan deputatlikka nomzod saylangan deb hisoblanadi. Takroriy ovoz berishda saylovchilarning ishtirok etishi foizi hisobga olinmaydi.</p>
TAKRORIY SAYLOV	<p>– “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 46-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatining takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi: a) agar saylov okrugida saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa; b) agar takroriy ovoz berish Qonunchilik palatasiga deputat saylanganligini aniqlash imkonini bermagan bo'lsa; v) agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod ovozga qo'yilgan va ulardan birtasi ham saylanmagan bo'lsa.</p>
TENG SAYLOV HUQUQI	<p>– saylov o'tkazishning asosiy prinsiplaridan</p>

	<p>biri sifatida saylovlarda ishtirok etuvchi saylovchilar huquqlarining tenglik tamoyili asosida himoyalaniishi, ya'ni har bir saylovchi bir ovozga ega ekanligi, barchaga saylov talablari bir xilda joriy etilishi, hamma uchun bir xil tashkiliy-huquqiy sharoit yaratilishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'iy nazar, teng saylov huquqiga ega ekanliklarini ham anglatadi.</p>
TO'G'RIDAN-TO'G'RI SAYLOV HUQUQI	<p>– saylov o'tkazishning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan mazkur huquq orqali fuqarolar ovoz berishda bevosita, hech qanday qo'shimcha vositalarsiz ishtirok etadi. Har qanday saylovda saylovchilar to'g'ridan-to'g'ri saylov uchastkalarida ovoz beradi.</p>
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI	<p>– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tuziladigan hamda o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradigan, davlat hokimiyati vakolatiga ega maxsus kollegial organ. Markaziy saylov komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi hamda referendum to'g'risidagi qonunlariga va boshqa qonunlarga amal qiladi.</p>
UMUMIY SAYLOV HUQUQI	<p>– saylov o'tkazishning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, ushbu prinsip ma'lum yoshga yetgan, to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarining saylovda (saylash va saylanishda) ishtirok etish huquqiga ega ekanligini anglatadi.</p>
FUQAROLAR YIG'INI	<p>– shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish</p>

	organlaridir.
Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.	
FUQAROLIK	JAMIYATI – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin, demokratik huquqiy jamiyat.
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI	– fuqarolik jamiyatini shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, bu bevosita jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining nechog'lik rivojlanganiga bog'liq bo'ladi. Fuqarolik jamiyati institutlari orqali fuqarolar davlat va jamiyat siyosiy hayotida bevosita ishtirok etadi. Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlari sirasiga nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, OAVlari, mahalla, oila kabilar kiradi.
XUSUSIYLASH TIRISH	– “jismoniy shaxslarning” va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.
HISOB PALATASI	– davlatdagi oliy moliyaviy (moliyaviy-iqtisodiy) nazorat organining dunyoda eng keng tarqalgan nomi. Xuddi shu nomda Vengriya, Gresiya, Ispaniya, Portugaliya, GFR, RF va qator boshqa mamlakatlarda ishlatiladi. AQShda Bosh hisobot boshqarmasi, Braziliya, Jazoir, Fransiya, Ruminiyada – hisob sudi deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 27 iyunda “Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu

	farmonga ko'ra, Hisob palatasi o'zining faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobot beradi. Hisob palatasining asosiy vazifasi davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, davlat aktiv va passivlarni holati va harakatini nazorat qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi
HUQUQIY DAVLAT	– davlat konstitusiyaviy-huquqiy maqomining tavsifi sifatida amal qiladi va davlatning quyidagi tamoyillarga so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi: xalq suvereniteti, inson huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan buzilmasligi, davlatning konstitusiyaviy tuzum bilan bog'liqligi, konstitusiyaning boshqa barcha qonunlar va qonunosti hujjatlaridan ustunligi, hokimiyatlarning bo'linishi, huquqiy davlatning tashkiliy negizi bo'lgan hokimiyatning organlari va davlat xizmatchilarining javobgarligi instituti, milliy huquq normalaridan xalqaro huquq normalarining ustunligi.
ChET EL INVESTISIYALARI	– chet ellik investorlar asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investisiyalaridan olingan har qanday daromadga aytiladi.
EKOLOGIK NAZORAT	–tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o'rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo'llash bilan bog'lik siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi “Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdaqi “Moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
2. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
3. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
4. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.
5. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
6. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
7. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.
8. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
9. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
10. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
11. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
13. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
12. Grant E. A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
13. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
14. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
15. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
16. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
17. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
18. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works

- Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 193.
14. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Account 2015. - 134 pp.
19. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
20. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
21. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
22. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
23. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
15. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
24. Аудын Ариф оғлы А. Хроника мусулманских государств I – VII веков хиджры. – Москва: Умма, 2018. – 448 с.
25. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
26. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
27. Bolshakov O. G. Istoriya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
28. Gabrielyan S. I. Istoriya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.
29. Gulobod Qudratulloh qizi, R. Ishmuhamedov, M. Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
30. Yevropa mamlakalari va AQSh 1640–1918 yillarda. / A. Xolliyev tahriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2010.
31. Ibraymov A. Ye. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A. Ye. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.
32. Istoriya noveuyshogo vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. Ye. Yazykova. – Moskva: Nauka, 2015.
33. Istoriya noveuyshogo vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A. Rodrigues. – Moskva: Nauka, 2014.
34. Istoriya srednix vekov. / pod red. S.P. Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
35. Ishmuhamedov R.J., M. Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
36. Luchenkova Ye., Myadel A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.
16. Matyoqubov X.X. Xorazm vohasi bronza asri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent.

2017.

37.Mommzen T. Istoriya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.

38.Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

39.Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladynin I., Novikov S. Istoriya drevnego mira. Vostok, Gretsiya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.

40.Проблемы истории и междисциплинарного синтеза. – M.: Litres, 2019. – 561 s.

41.Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.

42.Rusina Yu.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.

43.Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.

44.Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dney. – M.: Litres, 2020. – 384 s.

45.Xoliqulova X. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so'z, 2017.

46. Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

IV. Internet saytlar

47.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: www.edu.uz.

48. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

49.[www. Ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)

50.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: www.gov.uz

51.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sayti: <http://www.edu.uz/modules/wfchannel>

52. “Xalqso‘zi” gazetasi – wwwinfo XS. Uz.

53. “Turkiston” gazetasi – wwwturkistonsarkor. uz.

54. “Ma’rifat” jurnali – wwwma'rifat – inform.


55. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – wwwrzultacademyfreenetuz.

56. “Moziydan sado” jurnali – www moziy dostlink. Net

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil mart oyida o'tkaziladigan O'zbekiston tarixi yo'nalishi o'quv-uslubiy majmualari bo'yicha
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil mart oyida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining "O'zbekiston tarixi" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savollari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

Ekspertlar

G'oibov Bobur Sobirovich	SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrası professori, t.f.d.	
Xoliqulov Rustam Sharipovich	SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti, t.f.n.	
Meliev Baxtiyor Abduxomidovich	SamDU mintaqaviy markaz bo'lim boshlig'i, g.f.f.d.	
Murodov Qodir Qo'ldoshevich	SamDU mintaqaviy markaz muhandis-dasturehi	

Mintaqaviy markaz direktori
geografiya fanlari doktori



 S.B.Abbasov

ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Об учебно-методических комплексах по направлению истории Узбекистана, которые пройдут в марте 2022 года в Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете

В марте 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «История Узбекистана». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

**Зарубежный эксперт:
Профессор Педагогического института
Таджикистана в городе Пенджикент
доктор исторических наук:**



Вахидов Ш.Х.

